

# JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH

# JISER

International  
multidisciplinary  
scientific journal



- ✓ Academic journal, an academic or scholarly periodical
- ✓ Scientific journal, an academic journal focusing on science
- ✓ Medical journal, an academic journal focusing on medicine
- ✓ Law review, a professional journal focusing on legal interpretation





*“JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND  
EDUCATIONAL RESEARCH”*

---

***VOLUME 3, ISSUE 4***  
***(30- October)***

Ushbu to'plamda "**JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH** " ilmiy jurnaliga kelib tushgan maqolalar o'rin olgan.

Mazkur jurnalda zamonaviy ta'lim tizimini rivojlantirish jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etish va loyihalashtirish, integratsion ta'limni rivojlantirishda yo'nalishlar bo'yicha kreativ g'oyalar, takliflar va yechimlarni amalga oshirish maqsad qilib olingan. Mazkur jurnal materiallaridan OTM professor-o'qituvchilari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari va umumta'lim maktab o'qituvchilari, mustaqil tadqiqotchilar, magistrantlar, ilmiy xodimlar, iqtidorli talabalar hamda shu sohada ilmiy ish olib borayotgan tadqiqotchilar foydalaishlari mumkin.

**Eslatma! Jurnal materiallari to'plamiga kiritilgan maqolalardagi raqamlar, ma'lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to'g'riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.**

MUNDARIJA / TABLE OF CONTENTS / СОДЕРЖАНИЕ	
SO'Z BOSHI	
ТАВБИ VA TEXNIK FANLAR	
<b>Tillayeva Z.Y</b> <b>Qarshiboyeva S.N</b> <i>MODIFIKATSION O'ZGARUVCHANLIK BO'YICHA AMALIY MASHG'ULOT O'TKAZISH</i>	7
<b>Qosimo'va Dilofro'z Komiljono'vna</b> <i>QIZIL KITOB VA UNING AHAMIYATI</i>	10
<b>Зайнутдинова Дилафруз Латибовна</b> <i>ХОМИЛАДОРЛАРДАГИ ҚОННИНГ ТРОМБОЦИТАР ТИЗИМИ ПАТОЛОГИЯЛАРИ</i>	13
<b>Якубова Муҳаббат Дилшодбековна</b> <i>ҚУЁШ УРҒАНДА БИРИНЧИ ЁРДАМ КЎРСАТИШ</i>	16
<b>Сафоева С.М</b> <i>РЕЗУЛЬТАТЫ ДИАГНОСТИЧЕСКОГО ПОИСКА МЕЖДУНАРОДНЫХ КРИТЕРИЕВ СПКЯ У ЖЕНЩИН С СИНДРОМОМ ГИПЕРАНДРОГЕНИИ</i>	18
FILOLOGIYA	
<b>Qahramonova Sevara</b> <i>BADIY MATNDA ANTISEMIYA HODISASINING LINGVOPOETIK TAHLILI</i>	21
<b>Ачилова Мадина Шерзод кизи</b> <i>ТАЪЛИМ УСЛУБЛАРИ ВА ЎҚУВЧИЛАРНИНГ БИЛИМ ФАОЛИЯТИНИ ФАОЛЛАШТИРИШНИНГ АҲАМИЯТИ ВА ХУСУСИЯТЛАРИ</i>	23
<b>Ачилова Мадина Шерзод кизи</b> <i>ЧЕТ ТИЛЛАРИНИ ЎҚИТИШДА ТУШУНТИРИШ МЕТОДИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯЛАРИ</i>	26
<b>Тошболтаева Гулнора Нумонжоновна</b> <i>МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ЁШИДАГИ БОЛАЛАРНИНГ ТОВУШ МАДАНИЯТИНИ ТАРБИЯЛАШДА МТТ ВА ОИЛА ҲАМКОРЛИГИ</i>	29
PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA	
<b>Jo'rayeva Ra'no Nosirjonovna</b> <i>UMUMTA'LIM MAKTABLARI AMALIYOTCHI PSIXOLOGINING VAZIFALARI VA MAJBURIYATLARI</i>	31
<b>Karimova Ra'no Ravshanovna</b> <i>MAKTAB PSIXOLOGLARI FAOLIYATI VA UNING MAKTABDAGI MAVQEYI</i>	34
<b>Madusmanova Shahnoza Olimjonovna</b> <i>KIMYO TA'LIMINING MAQSAD VA VAZIFALARI</i>	36
<b>Aliyeva Oydin Axrarovna</b> <i>O'QUVCHILARGA FIZIKA FANINI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDANDAN UNUMLI FOYDALANISH</i>	38
<b>Quvandiqova Mohira Abdulkarimovna</b> <i>BOLALARNI MAKTABGA PSIXOLOGIK TAYYORLASH</i>	41
<b>Xamidullayeva Sarbinaz Baxadirovna</b> <i>MAKTAB O'QUVCHILARI BILAN O'TKAZILADIGAN PSIXOLOGIK TRENINGLARNING AHAMIYATI</i>	43
<b>Xojimatova Gulshanoy Najmiddin qizi</b> <i>O'QITUVCHI MULOQOTIDA MUOMALA MADANIYATINING SHAKLLANISHI</i>	45
<b>Yusupjanova Zuhroxon Yuldashевна</b> <i>O'QUVCHILARDA AQOLIY TARBIYANI SHAKLLANTIRISHNING MAZMUN- MOHIYATI</i>	49
<b>Абдуназарова Обидахон Абдулҳаким кизи</b> <b>Рискулова Гулноза Содиковна</b> <i>МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ЁШИДАГИ БОЛАЛАРНИ ИЖОДИЙ ФАОЛИЯТГА ЎРГАТИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ</i>	51
<b>Мамасолиева Гулсумой Акбаржон кизи</b> <b>Содикова Иродахон Фозилжон кизи</b> <i>МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ЁШИДАГИ БОЛАЛАРНИ МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТЛАР АСОСИДА ТАРБИЯЛАШ</i>	53
<b>Mavlanova Oydin Taxirovna</b> <i>ZAMONAVIY AXBOROT TEXNALOGIYALARINING QO'LLANILISHI VA TA'LIMDA SIFAT DARAJASINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI</i>	55
<b>Ibraimova Go'zal</b> <i>THE SECRETS OF SUCCESS</i>	57
<b>Qosimova Dilbarxon Ro'ziboyevna</b> <i>TA'LIM TIZMIDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA</i>	59
<b>Болтабоева Дилафруз Рустамовна</b> <b>Олимова Саломатхон Ибрагимовна</b> <i>МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ЁШИДАГИ БОЛАЛАРНИ ҚАЙТА ҲИКОЯ ҚИЛИШНИ ЎРГАТИШ МЕТОДИКАСИ</i>	62
<b>Киргизова Дилрабохон Бурхонжановна</b> <b>Ганиева Наргиза Абдусаматовна</b>	64

<i>МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАР НУТҚИНИ ЎСТИРИШДА ЛУФАТНИНГ АҲАМИЯТИ</i>	
<b>Хожиматова Ойдиной</b> <b>Ибрагимова Мохира</b> <i>БОЛАЛАР НУТҚИНИ ЎСТИРИШ, ХОТИРАСИНИ МУСТАҲКАМЛАШДА ТЕЗ АЙТИШ ВА ТОПИШМОҚЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ</i>	66
<b>TARIX FANLARI</b>	
<b>Umarova Shoira Usmanovna</b> <i>HAZRAT BASHIR</i>	68
<b>IJTIMOIIY VA SIYOSIY FANLAR</b>	
<b>Abdurasulova Shahnoza Ravshanovna</b> <i>OILA, MAHALLA, MAKTAB KONSEPTSIYASINING MOHIYATI</i>	72
<b>Usanov Sarvar Anvarovich</b> <i>ISHLAB CHIQRISHNI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING MUHIM OMILLARI</i>	75
<b>Usanov Sarvar Anvarovich</b> <i>TA'LIMDA O'QUVCHILARNING IQTISODIY SAVODXONLIGINI OSHIRISHNING O'ZIGA XOS AHAMIYATI</i>	79
<b>Xushvaqtova Nozanin Nurbek qizi</b> <i>AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIYAVIY HISOBNING XALQARO STANDARTLARI BO'YICHA XARAJATLAR HISOBI VA AUDITNI TASHKIL ETISH MASALALARI</i>	82
<b>Habibullo Ziyaviddinov</b> <i>THE DEVELOPMENT OF ENTREPRENEURIAL ACTIVITY IN THE FIELD OF PUBLIC CATERING AS A FACTOR IN IMPROVING THE QUALITY OF SERVICES FOR THE POPULATION</i>	85
<b>Adirova Rahima Djumanazarovna</b> <i>BOSHLANG'ICH TA'LIMDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING O'RNI</i>	88
<b>Абраматова Мохиҷехра Абдураззоқ кизи</b> <i>ШАВКАТ РАҲМОН ШЕЪРИЯТИ</i>	90
<b>Tursunov Ramziddin Abdixalil o'g'li</b> <b>Munavvarxonova Mahliyaxon Muzaffarxon qizi</b> <i>UMUMBASHARIY QADRIYATLAR TARMOG'IDA MILLIY XARAKTER XUSUSIYATLARI</i>	93
<b>Pashev Qurbonali Qayumjon o'g'li</b> <b>No'monov Otabek O'rmonjon o'g'li</b> <i>TARBIYA JARAYONINING SAMARADORLIGINI OSHIRUVCHI PSIXOLOGIK MEKANIZMLAR</i>	96
<b>Abdusalomova Go'zaloy Bahodirjon qizi</b> <i>JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR</i>	98
<b>Dilshod Hojiyev Dilmurodjon o'g'li</b> <i>FIZIKA KURSINI O'QITISHDA INNOVATSION FAOLIYATNI TASHKIL ETISHNING METODIK SHART-SHAROITLARI</i>	101
<b>Fazliddin Mamasidiqov</b> <i>PARDA TURSUN</i>	104
<b>Салимова Ирода Назарбаевна</b> <i>МОЗАИКАЛИ ПОЛЛАРИНИНГ ТУРЛАРИ ВА ХУСУСИЯТЛАРИНИ ТАҲЛИЛ ЭТИШ</i>	106
<b>Salomov Shoxabbos Nozimjon o'g'li</b> <b>Madumarova Maxfuza Maksimovna</b> <i>NEVROZ KASALLIGINING KELIB CHIQISHI VA PROPIDEVTIKASI</i>	110
<b>А.А.Дармонов</b> <i>"ЁШЛАРНИНГ ТАҲДИДБАРДОШЛИГИ" ТУШУНЧАСИНИНГ ИЖТИМОИЙ-ФАЛСАФИЙ МОҲИЯТИ ВА НАМОЁН БЎЛИШ ХУСУСИЯТЛАРИ</i>	112
<b>Чебатарева Алина Николаевна</b> <i>СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРАВОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ</i>	115
<b>Мўминова Нигорахон Икромжон кизи</b> <i>ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНИШ ВАЗИРЛИГИНИНГ ВАЗИФАЛАРИ</i>	117
<b>Мўминова Нигорахон Икромжон кизи</b> <i>ЁШЛАРНИ ИЛМИЙ ФАОЛИЯТИНИ ОШИРИШДА ДИДАКТИК ЁНДАШУВ</i>	119

# TABIY VA TEXNIK FANLAR

## MODIFIKATSION O'ZGARUVCHANLIK BO'YICHA AMALIY MASHG'ULOT O'TKAZISH

**Tillayeva Z.Y.,**

*TDSI akademik litsey bosh o'qituvchisi,*

**Qarshiboyeva S.N.**

*YTIT talabasi*

**Maqsad:** Bargdagi modifikatsion o'zgaruvchanlikni aniqlash. O'rganilayotgan belgining reaksiya normasini, o'rtacha ko'rsatkichini aniqlash. Nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish va tajriba o'tkazish ko'nikmalarini rivojlantirish.

**Kerakli jihozlar:** 100 dona o'simlik bargi, chizg'ich, kalkulyator, daftar

**Ishning bajarish tartibi:**

1. Atrofdagi keng tarqalgan o'simlikning shoxidan tanlamasdan, ketma-ket barglari uzib olinadi.
2. Barglarning uzunligi chizg'ich yordamida o'lchab, 1- jadval to'ldiriladi.

**1-jadval**

Barg uzunligi, cm	№	Barg uzunligi, cm	№	Barg uzunligi, cm	№	Barg uzunligi, cm	№	Barg uzunligi, cm	№
5,43	11	5,53	21	5,18	31	5,33	41	5,36	
5,53	12	5,54	22	5,46	32	5,35	42	5,47	
5,38	13	5,33	23	5,37	33	5,23	43	5,26	
5,44	14	5,34	24	5,46	34	5,46	44	5,45	
5,39	15	5,36	25	5,24	35	5,45	45	5,25	
5,56	16	5,48	26	5,39	36	5,46	46	5,44	
5,40	17	5,49	27	5,43	37	5,28	47	5,45	
5,56	18	5,55	28	5,44	38	5,47	48	5,44	
5,39	19	5,47	29	5,46	39	5,44	49	5,45	
5,57	20	5,45	30	5,45	40	5,43	50	5,47	

0									
---	--	--	--	--	--	--	--	--	--

	Barg uzunligi, cm	№	Barg uzunligi, cm	№	Barg uzunligi, cm	№	Barg uzunligi, cm	№	Barg uzunligi, cm
1	5,37	61	5,35	71	5,41	81	5,63	91	5,50
2	5,34	62	5,31	72	5,62	82	5,39	92	5,44
3	5,29	63	5,32	73	5,42	83	5,40	93	5,57
4	5,30	64	5,28	74	5,38	84	5,47	94	5,45
5	5,31	65	5,41	75	5,51	85	5,42	95	5,59
6	5,40	66	5,39	76	5,52	86	5,46	96	5,46
7	5,32	67	5,40	77	5,50	87	5,49	97	5,58
9	5,49	68	5,42	78	5,66	88	5,44	98	5,44
9	5,50	69	5,48	79	5,71	89	5,52	99	5,60
0	5,51	70	5,52	80	5,68	90	5,50	100	5,61


3. Olingan raqamlar orasida  $X_{max} = 5,68$  cm,  $X_{min} = 5,18$  cmdan iboratligi ma'lum bo'ldi. Ular orasidagi farq, ya'ni  $\Delta X = X_{max} - X_{min} = 5,68 - 5,18 = 0,50$ ga teng. Shundan keyin har bir guruh orasidagi kenglikni 0,05 ga teng deb olib 2-jadval tuziladi.

**2-jadval**

	Guruhlar chegarasi	Guruhlar o'rtachasi (X)	Takrorlanish soni (Y)
	5,18 – 5,22	5,20	1
	5,23 – 5,27	5,25	4
	5,28 – 5,32	5,30	7
	5,33 – 5,37	5,35	11
	5,38 – 5,42	5,40	16
	5,43 – 5,47	5,45	30
	5,48 – 5,52	5,50	14
	5,53 – 5,57	5,55	8
	5,58 – 5,62	5,60	6

0	5,63 – 5,67	5,65	2
---	-------------	------	---

4. 2-jadval asosida grafik chiziladi.



5. Barglarning o'rtacha ko'rsatkichi aniqlanadi. Buning uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:  $M = \sum (V \times P) / N$ . Bu yerda, N - variantlar soni; V - barg uzunligi;

P - takrorlanish soni;  $\sum$  - ja'mi; M - o'rtacha ko'rsatkich

$$M = (5,20 \times 1) + (5,25 \times 4) + (5,30 \times 7) + (5,35 \times 11) + (5,40 \times 16) + (5,45 \times 30) + (5,50 \times 14) + (5,55 \times 8) + (5,60 \times 6) + (5,65 \times 2) = 5,20 + 21 + 31,7 + 58,85 + 86,4 + 163,5 + 77 + 44,4 + 33,6 + 11,3 = 532,95 / 100 = 5,33 \text{ cm}$$

Demak, bargning o'rtacha ko'rsatkichi = 5,33 cm

#### Mustahkamlash uchun savollar:

1. Modifikatsion o'zgaruvchanlik nima?
2. Modifikatsion o'zgaruvchanlikning organizm uchun qanday ahamiyati bor?
3. Bargning o'zgaruvchanlik chegarasi, maksimum va minimumi nechchiga teng?
4. Bargning reaksiya normasi qanday aniqlanadi?
5. Qanday barglar eng ko'p uchraydi?



## QIZIL KITOB VA UNING AHAMIYATI.

**Qosimo'va Dilofro'z Komiljono'vna***Xorazm viloyati Urganch shahar**9-maktab Biologiya fani**o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada dunyoning ko'pgina olimlari tomonidan butun dunyoda yuqolib ketayotgan va juda kam uchraydigan hayvonlar, o'simliklar dunyosini himoya qilish va ularni saqlab qolish uchun Tabiat va tabiat resurslarini himoya qilish birlashmasining Qizil kitobi (XTHQB) tashkil qilinganligi e'tirof etiladi. Jumladan, bu kitob chet elda 60-70 yillarda chop etilib, 1-2 to'mida sutemizuvchilar, qushlar haqida, 3-4 tomida esa suvda va quruqlikda yashovchi hayvonlar, sudralib yuruvchilar va baliqlar haqida so'z yuritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *Qizil kitob, antropogen, Qur'oni karim, Zubr, Tavrot, Injil, estetik zavq, qo'riqxonalar, akvatoriya, noyob tur, tabiiy yodgorliklar, milliy bog'lar.*

Qizil kitob – bu hujjat bo'lib u Insonning vijdonidir. Har qaysi millat dunyo oldida o'zining tabiat boyliklarini asrash mas'uliyatini olgan (Xalqaro qizil kitobdan oligan). Qizil Kitob tabiatni sevuvchilar, mutaxasislarni diqqatini o'ziga tortib, hamma mintaqada mashhur bo'ldi. Bu kitob xuddi kalendardek bezalgan bo'lib, uning har bir varag'I bir xil rangdadir. Har qaysi rangni o'z ma'nosi bo'lib, masalan qizil rangda yozilgan hayvon zotlari va o'simlik turlarining yo'qolib ketayotgani va ularning himoyaga muxtojligini bildiradi.

Yer yuzida hayvon zotlari va o'simlik turlarining yoqolib ketishining ikki sababi bor bo'lib, birinchi sababi: - bu tabiiy sharoitning o'zgarishi natijasida bo'lsa (tabiiy sabab), ikkinchisi esa – (antropogen) inson harakatlari natijasidir.

Dunyoda umumiy qushlar va hayvonlarning 1/4 qismi tabiiy sabablar natijasida yo'qolgan bo'lsa, 3/4 qismi esa inson ta'sirida yo'qolgandir. O'zbekiston Qizil Kitobi ham 1984 yilda tashkil topgan. Unga ko'pgina o'simlik turlari va hayvon zotlari kiritilgan. Masalan, o'simliklardan: lolaning barcha turlari, anzur piyozi, boychechak va hakozi. Qizil Kitob haqida yana bir muhim joyi bolib, Qizil Kitobning sahifalari hech qachon tugallanmaydi, doimo uning sahifalarini yanggi o'simlik turlari va hayvon zotlari to'ldirib boradi. Qizil Kitobning sahifalarini qisqartirish uchun inson madaniyati va hulqini doim oshira borish kerak, bu olimlar oldida qo'yilgan muhim muammalardan biridir. Yer yuzidan- yil tabiat burchaklariga inson qo'li etmagan yerlar kamayib bormoqda, yani tabiatdagi cho'l, tog' va o'rmonlarning asl qiyofasini ko'rishga imkoniyat qolmayapti. Tabiatning asl muhitini va unda yashayotgan barcha jonzotlarni saqlab qolish uchun davlat tomonidan Qo'riqxonalar tashkil qilingan.

Yer sharida mavjud bo'lgan 500 000 o'simlik turining 6000 turidan inson kundalik hayotida foydalanadi. O'zbekistonda 4148 tur o'simlik mavjud bo'lib, shundan 577 tasi dorivor o'simliklar, 103 tasi bo'yoqdor o'simliklar, 560 turi efir moyli o'simliklar

hisoblanadi. Tarixiy qo'lyozmalar, toshdagi bitiklar va eng muhim ko'rsatma va qoidalar, musulmonlarning "Qur'oni Karim" tabarruk kitobida va boshqa diniy kitoblari – Injil, Tavrot, Zaburda ham qayd qilingan. 1961- yilda O'zbekiston fanlar Akademiyasining Fanlar Akademiyasining Qo'riqxonasi tashkil qilindi, hozirda Surxondaryo qo'riqxonasi deyiladi. 1971-yilda Respublikada 3ta Qo'riqxonasi: Qoraqalpog'istonda Baday Qo'riqxonasi, Buxorada Qorako'l va Qizilqum Qo'riqxonasi tashkil qilingan. 1975 yilda yana 4 ta Qo'riqxonasi tashkil qilindi. Varzangi (Buxorada), Nurota (Nurotada), Qizilqum (Qashqadaryoda), Zarafshonda (Samarqandda). 1976 yilda Qashqadaryoda Miroqchi Qo'riqxonasi, 1977 yilda Farg'onada Abdusamat, 1986 yilda Surxondaryo, Qo'riqxonasi tashkil qilingan, yer maydoni 245002 gektarga ega, uning tarkibiga Orol Payg'ambar Qo'riqxonasi qo'shildi. Yuqorida aytib o'tilgan O'zbekiston o'simlik va hayvon turlari soni 2700 dan ortiq bo'lib, ulardan hayvon turlari 15000 dan ortiq, o'simliklar, zamburug'lar va suvo'tlari esa 11000 atrofida. O'zbekiston Respublikasi hududida hozirgi kunda 4500 ga yaqin gulli o'simlik turlari mavjud. Ular orasida jiddiy muhofazaga muhtoj ko'pgina kamyob, endim va relikt turlar mavjud. Bunday turlarning soni 400 atrofida bo'lib, ular O'zbekiston florasining 10-12% ini tashkil qiladi.

Zarafshon vohasining florasida 2600 tur, Samarqand viloyatining 1700 tur, undan 201 tur dorivor o'simliklardir. O'zbekiston florasining yo'qolib ketish xavfi ostida turgan 163 tur "Qizil kitob"ning 1984-yilgi nashriga kiritilgan, yangi "Qizil kitob"da esa (1998) kiritilgan o'simlik turlarining soni 301 taga yetdi. O'zbekiston faunasida umurtqasiz hayvonlarning 677 turi (sut emizuvchilar-108, sudralib yuruvchilar-58, amfibiyalar-2 va baliqlar-77) mavjud, umurtqasiz hayvonlar turlari esa 15 mingdan ortiq. O'zbekistonning birinchi "Qizil kitob"i 1983-yilda nashir qilingan bo'lib, unga umurtqali hayvonlarning 63 turi kiritilgan edi. Yangi "Qizil kitob"(2003) birinchi bor davlat tilida yozilgan bo'lib, ikkinchi to'mida sutemizuvchilarning 23 turi, qushlarning 48-turi, sudralib yuruvchilarning 16-turi, baliqlarning 17-turi, xalqasimon chuvalchaglarning 3-turi, molyuskalarning 14-turi, bo'g'imoyoqlilarning 61-turi kiritildi. Tabiat o'zining go'zalligi bilan o'ziga insoniyatni jalb qiladi. Har bir kishini maftunkor tog'larni qoplab turgan doimiy muzlar, ulardagi toza havo, shox sharsharalari, muz chuqqilari, xushbo'y gullar, dorivor o'simliklar, hayvon turlari va qoyalari bilan rom qiladi. Bularning hammasidan zavq olish kerak, har bir narsaning o'z qadriga etish, tabiatdagi mo'jazgina bir jonli mavjudotni ham asrab-avaylash lozim. Shuning uchun biz tabiatning barcha jonzotlarini avaylaymiz, ularni asray olishimiz, ona-Vatanimizning har bir burchagini saqlashda o'z kuchimizni sarflashimiz kerak. Tabiat faqat bizgagina emas, balki kelajak avlodimiz uchun ham kerak.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.Barqaror taraqqiyot ta'limi. O'quv uslubiy qo'llanma. A.A.Azizov, N.G.Akinshina. T.2017-141 bet.
- 2.Barqaror taraqqiyot ta'limi. Topshiriqlar.A.A.Azizov, L.Akinshina. T.2017-54 bet.
- 3.Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o'zgarishi O'zbekiston Respublikasining birinchi milliy axboroti. T.2019.
- 4.Valukonis G.YU.,Muradov SH.O. Osnovi ekologii-T.T. Obshaya ekologiya Kn.1.- T. 'Mexnat', 2015-328 bet.
- 5.[http// nambiolg//.zh.uz](http://nambiolg//zh.uz).

## ҲОМИЛАДОРЛАРДАГИ ҚОННИНГ ТРОМБОЦИТАР ТИЗИМИ ПАТОЛОГИЯЛАРИ.

Зайнутдинова Дилафруз Латибовна

Тошкент Тиббиёт Академияси

«Гематология, трансфузиология ва лаборатория иши»

кафедраси ассистенти.

**Муаммонинг долзарблиги:** *Репродуктив ёшдаги аёлларнинг соғлиги, тиббий - ижтимоий муаммоларини ўрганиш ҳамда ҳал этиш давлат ва соғликни сақлаш тизимининг энг муҳим вазифасидир. Ушбу муаммолар нафақат бутун мамлакат бўйлаб балки ҳар бир минтақада ўз ечимини талаб этади, уларнинг ҳақиқий ҳолатини ҳисобга олган ҳолда, соғлигини яхшилаш бўйича аниқ вазифалар белгиланиши ва ҳал қилиниши керак.*

Ер юзида қон кетиш сабабли оналар ўлими 13-25% ни ташкил этади. Ўзбекистонда оналар ўлими кўрсаткичларининг динамик пасайиш тенденциясига эга бўлишига қарамай қон кетиш ва септик асоратлар туфайли ҳамон сақланиб қолмоқда [Абдуллаев Р.Б, 2013г].

Сўнги йилларда репродуктив ёшдаги аёллар, хусусан ҳомиладорлик вақтида касалланишнинг кўпайиши айниқса ҳавотирга солмоқда, чунки бу онада ҳам болада ҳам турли хил касалликлар ва оғир асоратлар сонининг кўпайишига олиб келади [Комилова Р.Т. ва бошқалар 2013й].

Ҳомиладорлардаги қоннинг гемостаз тизими патологиялари Ўзбекистонда ва бутун дунё ҳамжамиятида ногиронликнинг ортиши ва перинатал ўлим ҳолатларини маълум тадқиқотлар асосида тартибга солишни талаб этади [Файзуллаева Н.И. 2016г]. Оналар ўлими даражасининг пасайиши асосан туғруқ асоратларидан кейин ўлим сонининг камайиши билан боғлиқ, шу билан бирга оналар ўлими таркибида акушерлик қон кетишининг пасайишлари ўта секин [Масчан А.А., Румянцев А.Г., ва бш, 2010г].

Сўнги йилларда гемостазнинг бузилиши уларнинг пайдо бўлишининг кўпайиши ва турли патологик жараёнлар ҳамда атроф-муҳит омиллари таъсирида айниқса долзарб бўлиб қолмоқда [Масчан А.А., Румянцев А.Г., ва бш, 2010г]. Гемостаз касалликларининг сабаблари жуда хилма-хилдир, уларнинг орасида тромбоцитлар патологияси кенг тарқалган, бу 80% ҳолларда қон кетишларига олиб келади [Лисуков И.А., Масчан А.А., и др 2013г].

Ҳомиладорлик даврида аёлнинг танасида гемостаз тизимида физиологик ўзгаришлар она ва плацента ўртасида қон айланишининг доираси пайдо бўлиши билан боғлиқ. Ҳомиладорлик даври ошгани сари, аёлда гемостаз тизимининг барча бўғинида ўзгаришлар юзага келади, бу эса ҳомиладорлик, туғруқ ва туғруқдан кейинги даврда юзага келиши мумкин бўлган асоратларга тайёргарликни талаб этади [Шевелева А.С. 2018г].

Гемостаз тизимини фаоллаштиришда ҳомиладор аёл организмидаги умумий гемодинамиканинг ўзгариши муҳим рол ўйнайди. Физиологик жihatдан давом этаётган ҳомиладорлик билан гемостаз тизимидаги ўзгаришлар бир-бирига мутаносибдир [Заболотских И.Б., Пенжоян Г.А., 2012г]. Фетоплацентар тизимнинг юқори қон коагуляцияси шароитида нормал ишлаши учун компенсатор - адаптив механизмлар ишга туширилади: плацента гиперплазияси ва периферик капиллярларнинг кичик калибрли терминал ворсинкалар сони ортади, плацента тўсиғининг қалинлиги синцитиясининг ингичкалашиши камаяди ҳамда синцитокапиллярлар ва тугунлар ҳосил бўлади [Шевелева А.С. 2018г].

Ҳомиладорлик вақтида гемостаз тизимини фаоллашиши тромбогеморрагик асоратлар учун преморбид фон яратади. Гемостазнинг бузилиши туғруқ ва Кесар кесиш амалиёти мобайнида оғир қон кетиш хавфини оширади. Тромбоцитопения ва тромбоцитопатиялар жарроҳлик аралашувлар пайтида қон кетишни эҳтиёткорлик билан тўхтатишга қарамай оғир клиник синдромлар кузатилади, бу эса коагуляцион омилларнинг етишмаслиги натижасида кузатилади. Бундан ташқари, травмадан кейин ҳам гемостаз бузилган беморларда ҳам қон кетади ва катта гематомалар пайдо бўлади [Медянникова И.В. 2014г].

Тромбоцитлар - қоннинг пластинкачалари бўлиб, мегакариоцитларнинг ҳосилалари ҳисобланади, қонда яшаш муддати 8-10 кун, катталиги 1-2мкм ни ташкил этади [Яшук А.Г. 2010г]. Тромбоцитларнинг нормал сони  $150-400 \cdot 10^9/\text{л}$  оралиғида бўлиши қабул қилинган. Кўпгина муаллифларнинг фикрига кўра, тромбоцитларнинг сони  $100 \cdot 10^9/\text{л}$  дан камайса тромбоцитопения ҳисобланади. Ушбу ҳодисанинг частотаси 1млн аҳолига 10-130тани ташкил этади [Бакунович А. В. 2018г].

Тромбоцитопатия - бу тромбоцитларнинг сифатли нуқсон ва дисфункциясига асосланган гемостатик бузилишидир. Адгезия - (ёпишиш) плазма ва тромбоцитлар таркибида оқсил Виллебранд фактори мавжуд бўлиб, улар учта фаол марказга эга, иккитаси тромбоцит ретцепторлари билан биттаси субэндотелий ва коллаген толалари ретцепторлари билан боғланади. Адгезия билан бирга тромбоцитлар агрегацияси (томир деворида конгломерат шаклланиши) содир бўлади ва бу қобилияти тромбоцитларнинг универсал хусусиятидир [Лавриненко В.А., Бабина А.В. 2015г].

Маълумки, ҳомиладорликнинг иккинчи ярмидаги асоратлар плацента ишемиясини эндотелиал фаолияти бузилганлиги ва организмнинг кўп тизимли реакцияси натижасида юзага келади. Плацента қон айланишининг нотўғри созланиши юрак-қон томир, юқумли-септик, иммун, метаболик ва генетик омиллар туфайли умумий микроангиопатия ва тромбофилия ривожланишига асосланган [Костерина А.В. 2017г].

Клиникага ўта сезгир гемостазиологик усулларни жорий этиш билан, ҳомиладорлик жараёнининг барча босқичлари организмнинг тромб ҳосил бўлишига тайёргарлигининг ошиши билан тавсифланади. Ҳомиладорликнинг охирига келиб плазмадаги коагуляцион омилларнинг фаоллиги ошади. Ҳомиладор аёлларда тромбоцитларлар сони тўғрисидаги маълумотлар бир бирига қарама-қарши:

тромбоцитопенияни аниқлаш билан бирга тромбоцитларнинг нормал сони ва ҳатто тромбоцитоз ҳолатлари қайд этилган. Тромбоцитларнинг функционал ҳолатлари тез ўзгариши уларнинг ёпишқоқлик хусусиятларининг ошиши билан тавсифланади. Мураккаб туғруқ жараёнлари гиперкоагуляци ва гиперфибринолиз билан кечади [Меликян А. Л. 2018г].

Адабиёт маълумотлари шуни кўрсатадики, тромбоцитопениянинг клиник кўринишлари 70-90% ҳолларда бир хил кечиб, 10-30% беморларда улар ретцидив беради. Баъзи беморларда улар маълум вақт оралиғида турли хил омиллар таъсирида қайталади. Ҳомиладорлик пайтида биз билганимиздек тана тизимларида психо-эмоционал стресс кучаяди. Бу ўз навбатида иммун тромбоцитопения пайдо бўлишига ва кучайишига олиб келади [Файзуллаева Н.И. 2016г].

Жаҳон адабиётларида тромбоцитопения ва тромбоцитопатияси бор ҳомиладорлар аборт қилиш ёки туғиш вақтида кўп қон кетишидан вафот этади. XX асрнинг 20-йиллари адабиётига кўра, қон кетиш асоратлари билан болалар ўлими тахминан 50%ни, оналар ўлими 100%ташқил этган [Егорова Я.А., Заболотнов В.А. 2014г].

Бугунги кунга келиб, ҳомиладор аёлларда тромбоцитопатиялар ва тромбоцитопенияларнинг турли жиҳатларини ўрганиш бўйича ишлар мавжуд, аммо уларнинг сони кам ва бир-бирига қарама-қарши. Шу муносабат билан ушбу патологияларнинг кўплаб жиҳатлари ва муаммолари номаълум бўлиб қолмоқда. Шу билан бирга, ҳомиладор аёлларда тромбоцитлар билан боғлиқ касалликлар ва асоратларини ўрганиш (клиник ва лаборатор хусусиятлари) ва туғруқ пайтида беморларни бошқариш алгоритмларини ишлаб чиқиш бўйича тадқиқотлар етарли даражада ишлаб чиқилмаган. Бинобарин, ҳомиладор аёлларнинг соғлигини муҳофаза қилиш ва яхшилаш муаммоси тиббиётнинг миллий аҳамиятга эга бўлган долзарб йўналишларидан биридир.

## КУЁШ УРГАНДА БИРИНЧИ ЁРДАМ КЎРСАТИШ

**Якубова Муҳаббат Дилшодбековна***Андижон вилояти Олтинкўл тумани**2-ДМТТ тарбиячиси*

**Аннотация:** Ёзги соғломлаштириши даврида болалар саломатлигини сақлаш, айниқса, қуёш уриши билан боғлиқ ҳолатларни олдини олиши мақсадга мувофиқдир. МТТ да юрган тарбияланувчиларнинг саломатлигини сақлаш ҳар бир тарбиячидан катта масъулиятни талаб қилади. Мақолада болаларни қуёш урганда қандай йўл тутиши масалалаир ёритилган.

**Калит сўзлар:** *Қуёш уриши, рахит, биринчи тиббий ёрдам, холсизланиш. чарчоқ.*

Инсон шундай яратилганки, қаҳратон совукда ҳам, жазирама иссиқда ҳам унинг тана ҳарорати бир хил даражада туради. Одам организми ҳар қандай иқлим шароитларига мослашиш хусусиятига эга. Ўзбекистон иқлимига хос бўлган ҳавонинг қуруқлиги ҳамда мўътадил эсиб турадиган шабада танадан терлаш сабабли иссиқлик ажралишига ва тананинг иссиқ иқлим шароитига мослашишига ёрдам беради.

Қуёш нури таъсирида организмда рахит касаллигининг олдини олувчи Д витамини ҳосил бўлади. Бироқ, бош кийимсиз тик қуёш нурида узок туриш офтоб уришига, баъзида кўзда катарактанинг ривожланишига олиб келиши мумкин. Терини жазирама иссиқда ҳимоя қилмаслик унинг куйишига, бу жараённинг узок давом этиши эса тери ракига ҳам олиб келиши мумкин. Айниқса, болалар қуёшнинг салбий нурларига ўта таъсирчан бўлишади. Шунинг учун уларни ёзда соя жойларда бўлишига катта аҳамият бериш керак. Соябони кенг бош кийимлар кийиш ва офтобдан сақловчи қора кўзойнақлар тақиш қуёшнинг зарарли нурларидан асрайди.

Ҳаво ҳароратининг мунтазам кўтарилиши, организмни мослашув жараёнини издан чиқариши ва тананинг қизиб кетиши натижасида юзага келадиган касалликларга олиб келиши мумкин. Одамни иссиқ урса, унинг тана ҳарорати жуда ҳам кўтарилиб кетиши мумкин. Натижада офтоб урган кишида алаҳсираш, тиришиш – тортишиш ва баъзида унинг хушдан кетиши кузатилади. Бу ҳолат айниқса, болаларда организмнинг юқори ҳароратга мослашув жараёнларининг сустиги натижасида кузатилади.

Қуёш уриши– бош кийимсиз тўғри ташувчи қуёш нурлари остида ҳаракатланиш, қуёш уриши кўпроқ очиқ ҳавода узок муддатда (сайрларда, майдончада бош кийимсиз) бўлган болаларда рўй беради.

Қуёш ванналаридан нотўғри фойдаланиш, ультрабинафша нурларига юқори таъсирчанлик бўлганда ҳам кузатилади.

Қуёшда бўлган вақтни белгилаб бориш керак бўлади, қуёш уришининг белгилари қуёшда бўлгандан кейин 6—8 соатдан кейин тарқаб кетади.

**Биринчи белгилари** — ҳолсизланиш, чарчоқни ҳис қилиш, қизиб кетиш, бош оғриғи, айланиши. Кўп қуёш уришида эса тана ҳароратини ошиши кўнгил айнаши ва чанқаш билан кузатилади. Қуёш урган бола танаси пушти рангга кириб тери ажралиши кўпаяди. Қуёш уришининг оғир даражасида хушдан кетиш ва тутқаноқ тутиши кузатилади. Қуёш уришининг бошқа бир белгиларидан бурундан қон келиши ва қулоқларда шовқиннинг пайдо бўлишидир.

**Биринчи ёрдам кўрсатиш:** болани соя—салқин жойга олиб ўтиш, болани чалқанча ҳолда оёқларини кўтариб ётқизиш керак. Кўйлақларини ечиб, агар хонада бўлса ойналарни очиб шамоллатиш керак, чунки қуёш урганд соф ҳавонинг ғуриллаб кириш биринчи ёрдамнинг ажратиб бўлмас қисмидир. Куйган терига эса совуқ сувга хўлланган мато парчасини қўйиш мумкин. Бу вақтда беморга кўпроқ суюқлик бериш керак. Ҳушсизлик ҳолида эса боланинг бурнини нашатирга ботирилган пахта билан артиш ёки ҳидлатиш керак бўлади. Шифокорлар бундай вақтда тана ҳароратини тушурувчи воситаларни қабул қилиш маън этадилар. Қуёш урганда боланинг оёғининг кафтини сув билан аралаштирилган сиркада артиш мумкин.

Қуёш уриши яна терининг куйиши билан кечиши мумкин, бу ҳолатда тери кизариши, шишиши ва терида пуфакчалар пайдо бўлиши мумкин. Бундай белгилар пайдо бўлганда эса тери куйишига қарши спрейларни пуркаш мумкин.

Бир донишманд “Соғлом инсон — табиатнинг энг бебаҳо асаридир” деб таъкидлаган экан. Зеро соғлом турмуш тарзи — инсоннинг кун тартибига риоя этиши, фаол ҳаракат асосида организмни чиниқтириши, спорт билан шуғулланиши, тўла ва сифатли овқатланиши, гигиеник қоидаларга амал қилиши, зарарли одатлардан ўзни тута билишидир. Чунки ҳар қандай жамият тараққиётида унинг келажагини таъминлайдиган ёш авлоднинг соғлом ва баркамол бўлиб вояга етиши ҳал қилувчи ўрин тутади.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президент Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 2020 йил 29 декабрь <https://www.youtube.com>
2. Sog'lom.uz сайти “Соғлом авлод” газетаси. 16.06.2018 й
3. Daryo.uz/ 14.07.2019 й



**РЕЗУЛЬТАТЫ ДИАГНОСТИЧЕСКОГО ПОИСКА МЕЖДУНАРОДНЫХ КРИТЕРИЕВ СПКЯ У ЖЕНЩИН С СИНДРОМОМ ГИПЕРАНДРОГЕНИИ****Сафоева С.М***врач акушер-гинеколог,**Перинатальный центр г. Ташкента*

По данным NIH (National institute of health, США) СПКЯ (синдром поликистозных яичников) встречается у 6-10% женщин репродуктивного возраста, по данным ESHRE/ASRM (Европейское общество репродукции человека и эмбриологии совместно с Американским обществом репродуктивной медицины) у 15-20% женщин. Данные отличаются по причине отсутствия единых общепринятых критериев данного заболевания.

В 2012 году Европейское общество репродукции человека и эмбриологии совместно с Американским обществом репродуктивной медицины (ESHRE/ASRM) приняли консенсус по диагностике СПКЯ. Критериями данного консенсуса являются:

- Клиническая и/или биохимическая гиперандрогения
- Овуляторная дисфункция
- Поликистозная морфология яичников

при наличии двух из трех критериев можно диагностировать СПКЯ, с условием исключения других эндокринных заболеваний со схожей симптоматикой.

Нами обследовано 50 женщин с синдромом гиперандрогении на наличие критериев СПКЯ согласно общепринятому консенсусу. Провели клинико-лабораторные обследования, для выявления гиперандрогении, оценки овуляторной функции и эхосонографических изменений в яичниках.

У женщин с клиническими симптомами гиперандрогении (n26-52%), основными жалобами были, нарушение менструального цикла, бесплодие (первичное, вторичное), повышенное оволосение, ожирение, жирность кожи и волос, стрии на бедрах и на животе. Оценивалась степень гирсутизма по шкале Ферримана-Галлвея: общие баллы составили от 8 до 14 баллов. Нормальное оволосение  $\leq 8$  баллов было у 23 (46%) пациенток, легкий гирсутизм 8-15 баллов у 26 пациенток (52%), выраженный гирсутизм (14 баллов и выше) у 1 пациентки (2%).

Биохимическая гиперандрогения выявлено у 23 (46%) женщин по повышенному уровню свободного тестостерона.

Так как обследованные женщины обратились в консультативную поликлинику ГПЦ с жалобами на нарушение менструального цикла и бесплодие, у большинства из них (n 38 (76%)) отмечалась ановуляция.

В норме объем одного яичника составляет от 4 до 8-9 кубических сантиметров. По данным ультразвукового исследования в день обращения пациентки с аменореей, и на 5-6 дни менструального цикла при регулярном менструальном цикле объем яичников составил в среднем 7 см<sup>3</sup>. У n9 (18%) пациенток объем одного яичника составлял больше 9 см<sup>3</sup>. У n41 (82%) пациенток был нормальный объем яичников.

По результатам нашего исследования частота выявления международных критериев у женщин с синдромом гиперандрогении:

Клиническая и/или биохимическая гиперандрогения: у 26 (52%) женщин

Олиго-/ановуляция: у 38 (76%) женщин

Поликистозная морфология яичников: у 9 (18%) женщин.

Как всем известно, ни один из данных критериев не являются обязательными, при диагностике СПКЯ. Хотя по нашим данным овуляторная дисфункция является лидирующим критерием среди наших пациенток, но ановуляция может быть признаком любых других эндокринных нарушений. На следующем этапе диагностики предстоит вопросы об исключении других эндокринных патологий приводящих к симптомам поликистозных яичников. Поэтому продолжать изучать методов диагностики и лечения данного синдрома является одним из самых актуальных задач современной медицины.

## ЛИТЕРАТУРА:

1. [«Сколько людей страдают или находятся в группе опасности СПКЯ?»](#). Юнис Кеннеди Шрайвер Национальный институт детского здоровья и развития человека . 2013-05-23.
2. Любна Пал (2013). [«Диагностические критерии и эпидемиология СПКЯ»](#). Современные и новые концепции синдрома поликистозных яичников . Дордрехт:Спрингер. п. 7. ISBN 9781461483946.
3. Геворкян М.А, Блинов Д.В, Смирнова С.О. Комбинированные оральные контрацептивы в лечении пациенток с синдромом поликистозных яичников // Акушерство, гинекология и репродукция. 2012. №1. С. 39-49.
4. Zawadzki J, Dunaif A. Diagnostic criteria for polycystic ovary syndrome: towards a rational approach. In: Dunaif A, Givens J, Haseltine F, Haseltine G, eds. Polycystic Ovary Syndrome. 1st ed. Oxford, England: Blackwell Scientific; 1992:377-384.
5. Rotterdam ESHRE/ASRM-Sponsored PCOS Consensus Workshop Group. Revised 2003 consensus on diagnostic criteria and long-term health risks related to polycystic ovary syndrome (PCOS). Hum Reprod 2004; 19:41-7.
6. Azziz R, Carmina E, Dewailly D et al. Positions statement: Criteria for defining polycystic ovary syndrome as a predominantly hyperandrogenic syndrome: an Androgen Excess Society guideline. J Clin Endocrinol Metab. 2006 Nov;
7. Legro RS, Arslanian SA, Ehrmann DA, Hoeger KM, Murad MH, Pasquali R, Welt CK. Diagnosis and treatment of polycystic ovary syndrome: an endocrine society clinical practice guideline. J Clin Endocrinol Metab. 2013 Dec;
8. Синдром яичниковой недостаточности: принципы диагностики и лечения. Руководство для врачей/ М.М.Асатова, О.А.Хегай.-2019.-100с. (стр 54)  
<sup>9</sup> Панарина О.В., Рашидова М.А., Беленькая Л.В., Трофимова Т.А., Шолохов Л.Ф. Современные представления о патогенезе синдрома поликистозных яичников (обзор литературы) Acta Biomedica Scientifica (East Siberian Biomedical Journal). 2017;2(4):94. [https://doi.org/10.12737/article\\_59fad50f053c20.99807656](https://doi.org/10.12737/article_59fad50f053c20.99807656)
- <sup>10</sup> Савина В.А., Швед Н.Ю., Потин В.В., Тарасова М.А., Ярмолинская М.И., Иващенко Т.И., Баранов В.С. Аллельные варианты гена CYP 19 (ароматазы p450) и активность ароматазы p450у больных с синдромом поликистозных яичников // Медицинская генетика-2012.-№4.-С.36-41.

# FILOLOGIYA

## BADIIY MATNDA ANTISEMIYA HODISASINING LINGVOPOETIK TAHLILI

**Qahramonova Sevara**

*Navoiy davlat pedagogika instituti*

*O'zbek tili va adabiyoti fakulteti*

*talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada antisemiya hodisasi, uning badiiy matnda o'llanishi, turli so'z turkumlari va bir xil turkumlari doirasida antonimik munosabat ifodalashi haqida to'xtalib o'tilgan. Ulug'bek Hamdamning "Muvozanat" asari misolida antisemiya hodisasi tahlil etilgan.*

**Kalit so'zlar:** *antonimiya, antisemiya, kontrast, semantik qarama-qarshilik.*

O'zbek tilshunosligida antonimiya bilan bir qatorda, antisemiya termini ham ishlatiladi. Qarama-qarshilik hodisasi borliqning asosiy mezonlaridan bir sifatida e'tirof etib kelinsa, u tilshunoslik sohasida ham muhim o'rin egallaydi. Antisemiya deganda, leksik birliklar o'rtasidagi semantik qarama-qarshilikning yuzaga kelishi, nafaqat bir turkum, balki, turli turkumdagi so'zlar munosabatidagi qarama-qarshilik tushuniladi. E. N. Miller antonimiyani tadqiq qilish davomida ushbu hodisaga sof semantic kategoriya sifatida yondashib, grammatik kategoriya hisoblangan turkumlik antonimiyaning belgilanishida ahamiyatga ega emasligini aytadi. U antonimlarning belgilanishidagi an'anaviy paradigmatic mezon bo'lgan bir turkumga mansublikni ikki leksema antonimligi belgilanishidagi muhim shart sifatida qaralishiga hech qanday asos yo'qligini ta'kidlaydi.

Antisemik birliklar badiiy matnda xuddi antonimlar kabi kontrast hosil qilishning lisoniy vositasi sifatida keng ko'lamli lingvopoetik imkoniyatga ega. Harakat va predmet bildiruvchi so'zlar antisemiyasida antisemik yadroni, albatta "harakat" semasi tashkil etadi. Chunki sof predmetlik semasi antisemik munosabatni yuzaga keltira olmaydi. Bunda predmet sifatida ham harakatning muallaq holati olinadi. Masalan, *kulmoq* so'zining *yig'lamoq* so'ziga nisbatan antisemik aloqasini ta'minlab beruvchi sema *kulgi* so'zida ham aks etgan, turkumning o'zgarishi buni inkor eta olmaydi. Buni quyidagi misol orqali ko'ramiz: "*Bu xalqning kulgusi yig'iga, yig'isi- kulguga aylanib ketadi-yu, tovba, deb o'yladi Yusuf*".

Antisemik birliklar asosida kontrast hosil qilish badiiy nutqda muayyan ta'sirchanlikning, ifodalilikning yuzaga kelishiga asos bo'ladi va muallif turli tushunchalar, belgilar, holatlar, obrazlarni bir-biriga qarshilantirish natijasida ularni ta'kidlash, bo'rttirib ko'rsatish imkoniyatini hosil qiladi. Yozuvchining bunday badiiy niyatining amalga oshishida qo'llanayotgan qarshilantiruvchi vositalarning turli turkumdaligi ifodaning oshishiga xizmat qiladi.

Antisemik munosabatlarning eng keng ko'lamli sifat va ot turkumidagi so'zlar o'rtasida yuzaga chiqadi. Ot – sifat antisemiyasida yasovchi asos qaysi turkumda bo'lishidan qat'iy nazar, antisemik munosabat asosini belgi tashkil etadi. Masalan,

“ **Tirik** ekanmiz va buni **o'limdan** afzal ko'rар ekanmiz, demak, qolmoqlikning o'zi maqsadga aylanmaydimi?” Ushbu gapda “tirik” leksemasi belgi bildiruvchi so'z bo'lib, ot so'z turkumiga xos leksema bilan o'zaro antisemik hodisani hosil qilmoqda.

Yoki *Sen to'g'rilikcha pul topolmay, shu bilan birga qing'ir yo'lga kirib ketolmay naq arosatda qolib aziyat chekasan.* Yuqoridagi gapda “to'g'rilik” (*To'g'ri ekanlik, to'g'ri holatga egalik, to'g'ri bo'lishlik*) va “qing'ir” – (*To'g'ri chiziq bo'ylab yo'nalgan; egri; qiyshiq*) so'zlari ko'chma ma'noda qo'llanib, o'zaro antonimik munosabatni yuzaga keltirmoqda.

Qarama-qarshilikning bir turkum doirasida olinishi badiiy matn sharoitida ko'p uchratishimiz mumkin. Antisemik birliklar asosida kontrast hosil qilish badiiy nutqda muayyan ta'sirchanlikning, ifodalilikning yuzaga kelishiga asos bo'ladi va muallif turli tushunchalar, belgilar, holatlar, obrazlarni bir-biriga qarshilantirish natijasida ularni ta'kidlash, bo'rttirib ko'rsatish imkoniyatini hosil qiladi.

Harakat bildiruvchi so'zlar antisemiyasi. *Talabalik paytlarida ular hamisha birga yurishar, birga yotib, birga turishar, hatto ota-onalarining ziyoratiga bir kunda ketib, bir kunda qaytishardi. Birga quvonib, birga iztirob chekardilar.*

*Unga jonini qiynash biron maqsad yo'lida o'lib- tirilib ishlash, maqsadga o'zlikni begona qilish – ... degan gaplar begona.*

Payt bildiruvchi so'zlar antisemiyasi. *Sahardan kechgacha u yer- bu yerga borib, u bilan, bu bilan laqillab kun o'tkazamiz.*

Faoliyat-jarayon nomini bildiruvchi so'zlar antisemiyasi. *Mohiyatan, u boshdan- oyoq odobdir, yomonlikdan yuz o'girib, (harakat bildiruvchi birlik) yaxshilikka yuzlanmoqdir, insonning o'z botinidagi nafs ajdariga qarshi sulhsiz-qurolsiz kurashmoqdir, o'zganing yukini yengillatish va o'zgaga yuk bo'lmaslikdir, o'zining foniy (belgi bildiruvchi birlik) borlig'idan xalos bo'lib, Ollohning boqiy borlig'iga qo'shilmog va vaxdat mayini sipqormog yoki kamida shu xayrli intilishlar yo'lidagi azim mujodaladir.*

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, til sistemasida mavjud bo'lgan nafaqat antisemik juftliklar, balki muayyan antisemik yadro asosida uyushadigan antisemik guruhlar qarama-qarshilikning tildagi o'rnini yanada oydinlashtiradi hamda psixolingvistik jihatdan tafakkurimizda bu birliklarning assotsiativ holda gavdalanishiga imkon beradi. Badiiy nutqda antisemik birliklarni hosil qilish va ularni qo'llash yozuvchi badiiy mahoratining imkoniyatlari kengligidan dalolat beradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdullayeva D. “O'zbek tilida antisemiya” T-2010
2. Abdullayeva D. “Leksik birliklarda antisemiya” T-2008
3. Ulug'bek Hamdam “Muvozanat” T- 2007

**ТАЪЛИМ УСЛУБЛАРИ ВА ЎҚУВЧИЛАРНИНГ БИЛИМ ФАОЛИЯТИНИ  
ФАОЛЛАШТИРИШНИНГ АХАМИЯТИ ВА ХУСУСИЯТЛАРИ.****Ачилова Мадина Шерзод қизи***Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети**2-босқич (бакалавр) талабаси*

**Аннотация:** *Ушбу мавқолада ўқувчиларни ўқув материални ўрганиш билан боғлиқ кечинмалари, хис-туйғуларини фаоллаштирувчи усуллари. Ўқувчиларни назорат қилиш, ўз-ўзини назорат қилиш, ўзини-ўзи баҳолаш усуллари. Ўқув жараёнида ўқувчиларнинг гуруҳларда ва шахсий ўзаро муносабатларини бошқариш усуллари ҳақида сўз юритилади.*

**Калит сўзлари:** *Ўзини-ўзи баҳолаш, усуллар, ўқув материаллари, таълим методи, таълим услублари, материал, нерв томир системалари, тафаккур, диққат, хотира тасаввур.*

Таълим жараёнида ўқувчилар муайян билимлар, кўникма ва малакаларни эгаллайдилар, ўқув материалнинг битта мазмунини ўзи таълимнинг турли воситалари ёрдамида, турли усуллар билан ўзлаштирилиши мумкин. Шу сабабли ўқитувчи олдида мувафакқиятлироқ ва самаралироқ ўқитиш ва ўқишга ёрдам берадиган йўللарни танлаш масъулияти туради. Таълим билим бериш ва ривожлантириш вазифаларини амалга ошириш методини танлашга боғлиқ. Материални билим олишнинг назарий ёки амалий фаолиятидаги муайян формаларидаги суҳбат ёки амалий ишларнинг бажариш формасида, ёхуд бевосита кузатишлар ва шу каби кўринишда ўзлаштириш мумкин. Материал мазмунини ўзлаштиришнинг мана шу кўриниши таълим услуби ҳисобланади.

Таълим методининг икки жихати мавжуд; Биринчи жихати-бевосита кузатиладиган ташқи томони. Иккинчи жихати кузатиш ва таҳлил қилиш учун қийин бўлган ички томони бўлади. Таълим услублари ўқитишнинг умумий ва аниқ мақсадларига боғлиқ. Ўқув вазифаси қанчалик аниқ бўлса, ўқитиш усулининг белгилари шунча кўп бўлади. Шу сабабли ўқитувчи методларнинг умумий белгиларинигина эмас, балки аниқ мавзу ўрганиш вақтида вужудга келадиган қўшимча белгиларни ҳам билиши лозим. Таълим усулининг умумий ва аниқ белгилари ўртасидаги ўзаро алоқа таълимнинг турли шароитларида унинг маҳсулдорлигини таъминлайди. Таълим методлари ўқитишнинг умумий ва аниқ мақсадларига боғлиқ. Шу билан бир қаторда таълим методлари умумий таълимнинг мазмунига ҳам боғлиқдир. Таълим методларини ўзаро алоқаси гармоник камолот барча томонларнинг ўзаро алоқаси ва бирлигини таъминлайди. Таълим услублари кўп жихатдан ўқувчиларнинг психологик ва ёш хусусиятларига боғлиқ.

**Масалан:** бошланғич синфларда айниқса 1-синфда, таълим методларини танлаш ўқувчининг хиссий тажрибаси асосида тафаккурнинг абстракт формаларини ривожлантириш имкониятлари билан белгиланади.

Таълим методлари ўқувчилар организмнинг анатомик-физиологик хусусиятларига боғлиқ бўлиб, уларнинг ушбу қобилиятларини яни; чарчашни, организмнинг нерв томир системалари фаолиятининг ўзига хослигини, суяк, мушак, жинсий системалар хусусиятларига боғлиқ ходиса эканлигини хисобга олган ҳолда амалий дарс машғулотлари олиб борилади. Таълим методларини танлаш мактабнинг моддий техника таъминотиغا ҳам боғлиқ. Ўқитувчи таълим методини танлар экан, мактабда мавжуд бўлган техника воситалари ва улардан фойдаланиш имкониятларини хисобга олади. Таълим усуллари ўқитувчи ёки ўқувчиларнинг алоҳида фаолиятлари, ақлий ёки амалий ҳаракатлари бўлиб, муайян метод такдим этадиган материални ўзлаштириш формасини тўлдиради.

Ўқитиш усулларини қуйидагича тақсимлаш мумкин:

Тафаккур, диққат, хотира ва тасаввурнинг айрим хусусиятларини шакллантириш ва фаоллаштириш усуллари. Ўқувчиларнинг тафаккур фаолиятида муаммоли, изланишни талаб қиладиган вазифаларни вужудга келтирадиган усуллар. Ўқувчиларни ўқув материални ўрганиш билан боғлиқ кечинмалари, ҳистуйғуларини фаоллаштирувчи усуллари. Ўқувчиларни назорат қилиш, ўз-ўзини назорат қилиш, ўзини-ўзи баҳолаш усуллари. Ўқув жараёнида ўқувчиларнинг гуруҳларда ва шахсий ўзаро муносабатларини бошқариш усуллари. Ўқитишнинг муайян ташкилий формаларини амалга ошириш деганда; дарс ўтиш, экскурсия, амалий лаборатория машғулотлари, семинар, лекция, ишлаб чиқариш ва педагогик амалиёт, уй иши ва бошқа машғулотлар тарзини тушунамиз. Гурӯҳ усулида ва индивидуал тарзда ўқитиш усуллари кўп йиллардан буён бизга маълум усуллардан бири сифатида ҳозирда чет тилларини ўқитишда самарали натижалар бермоқда ва ривожланмоқда. Индивидуал тарзда ўқитиш деганда ўқитувчи ёки мураббий ҳар бир ўқувчини унинг ўқув материални ўзлаштиришда шахсий суръатига ва қобилиятига қараб алоҳида ўқитиш тушунилади. Индивидуал тарзда ўқитиш ўқувчи шахсининг хусусиятини ва унинг билиш хусусиятларини чуқурроқ ўрганишга ёрдам беради.

Мактабда ўқув машғулотларини ташкил этишни дарсдан ташқари бошқа усуллари ҳам мавжуд: амалий ва лаборатория машғулотлари, мустақил уй иши, экскурсиялар, ўқув устахоналар ва цехларда ишлаш кабилар. Машғулотларни бундай турлари синф дарс системасини тўлдиради ва такомиллаштиради. Сўнги йилларда олимлар томонидан наشر қилинган педагогик адабиётларда дидактик принциплар турлича гурӯҳлаштирилмоқда. Ана шуларга асосланган ҳолда қуйидагича таълим принципларини кўрсатиб ўтиш мумкин:

1. Таълимнинг илмий бўлиши принципи.
2. Таълим ва тарбиянинг бирлиги принципи.
3. Таълимнинг системали ва изчил бўлиши принципи.
4. Таълимда назариянинг амалиёт билан боғлиқ бўлиши принципи.
5. Таълимда онглилик, фаоллик ва мустақиллик принципи.
6. Таълимда кўрсатмалилик принципи.
7. Таълимда ўқувчиларга мос бўлиш принципи.

8. Таълимда билим, кўникма ва малакаларини пухталаштириш ва мустахкамлаш принципи.

9. Ўқувчиларга таълим бериш жараёнида хар каландай ўқувчига хос хусусиятларни хисобга олиб ўқитиш принципи.

#### АДАБИЁТЛАР:

- 1 .С.Р.Ражакбов. "Педагогика". Тошкент. " ўқитувчи"1981й.
2. В.В.Виноградов "Система и уровни языка" Москва 1969 г
- 3.М.А.Баранов "Мастерство перевода" Москва 1974 г.
4. <http://es.altavista.com>
5. [http:// www. sobre españa.ru](http://www.sobre.españa.ru)



**ЧЕТ ТИЛЛАРИНИ ЎҚИТИШДА ТУШУНТИРИШ МЕТОДИДАН  
Фойдаланишнинг ўзига хос хусусиялари.****Ачилова Мадина Шерзод қизи***Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети**2-босқич (бакалавр) талабаси*

Тушунтириш методи таълим жараёнида энг кенг қўлланиладиган методлардан бири ҳисобланиб, ўқувчи ўқув дастурида белгиланган фонетик, лексик, грамматик материални оғзаки усулда ўқувчиларга тақдим қилади. Ўқитувчи хилма-хил кўргазмаларни қўлдан келтириб, таълимнинг техника воситаларидан фойдаланган ҳолда ўқув материалнинг мазмунини баён қилади, бу орқали ўқувчиларда дастлабки фонетик, лексик, грамматик қўникмаларни шакллантиради ва бу қўникмаларни амалда қўллаш йулларини кўрсатади.

Бу метод ўқув материални мантикий изчилликда баён қилиш, турли маълумотлардан фойдаланиш, фанлараро боғлиқликни таъминлаш, ўзбек ва бошқа тилларини қиёслаб тушунтириш имкониятини беради. Бу методнинг самарадор бўлиши ўқитувчининг методик маҳоратига, яъни ўқув материални қизиқарли баён қила олишига, нутқининг жозибадорлигига ва ўзига жалб қила олишига, ифода усулининг мавжудлигига, мантикийлигига ва образлигига боғлиқ,

Тушунтириш методи ўқитувчидан ўқувчиларнинг доимий равишда барқарор диққатларини сақлаб туришни, ўқув материалга нисбатан муносабат уйғота олишни ва шу жараёнда уни идрок қилиш ва тушуниш, хотирада сақлаш йўлларида, усулларида фойдаланишни талаб қилади. Бу жуда ҳам мураккаб жараён бўлиб, унда ўқувчиларнинг фикрлаш қобилиятларини фаоллаштирадиган, хотираларини ривожлантирадиган усуллардан фойдаланиш орқалигина эришиш мумкин. Тушунтиришга ажратиладиган вақт ўқув материалнинг осон ёки қийинлигига, ўқувчиларнинг ёш ва индивидуал хусусиятларига, таълим босқичига кўра турлича бўлиши мумкин.

Маълумот олиш тинглаб тушуниш ва ўқиш орқали амалга ошса, маълумот бериш гапириш ва фикрни ёзма баён қилиш орқали амалга ошади. Нутқ фаолияти шакли 2 та: оғзаки ва ёзма нутқ.

Оғзаки нутқни ўргатиш – тинглаб тушуниш ва гапиришни ўрганишни ўз ичига олади. Улар ажралмас қисмлардир. Уларни бир – биридан ажратиб ўргатиш қийин, ҳатто мумкин эмас десак ҳам бўлади. Оғзаки нутқнинг нутқ фаолиятимизда муҳимлиги ҳаммамизга аён. Оғзаки нутқ, нутқни тинглаб тушуниш ва гапириш шаклларида бўлиши мумкин. Ёзма нутқни ўргатишга эса ўқиш ва ёзувни ўргатиш киради.

Тинглаб тушуниш ҳам нутқ фаолиятининг туридир. У рецептив нутқ фаолиятига киради. Тинглаб тушунишни сўзловчининг нутқини радиодан, магнитофондан, пластинкадан ва мулоқат пайтида тинглаб – тушуниб, маълумот олишдир. Уни баъзи адабиётларда “адирование” деб ҳам юритилади. У мураккаб нутқ фаолиятидир, чунки

тингловчи тезда шаклни қабул қила олиши, тезда мазмунни тушуна олиши, хотирада сақлаб қолиши зарур, акс ҳолда уни қайтадан кўриб, ўқиб тушуна олиши учун манба, шароит восита йўқ.

Текширишлар шуни кўрсатдики, ўқувчилар ва талабаларда тинглаб тушуниш гапиришга қараганда кам тараққий этган. Ўқувчи ўқиганда, кўрганда тинглаб тушунишга қараганда олти марта кўп маълумот оларкан, сабаби уни устида кам ишлаганидир, мураккаблигидир. Тинглаб тушуниш бошқа нутқ фаолиятларига ҳам ёрдам беради. У гапиришни ажралмас қисмидир. Тажрибалар кўрсатадики, тинглаб тушунишни ривожланганига қараб, гапириш ҳам ривожланади, ўқувчи, айниқса, диалогда яхши қатнаша олади.

Ўқувчилар тинглаб тушуниш орқали ҳам, ўқиш орқали ҳам маълумот қабул қилинади, шу сабабдан иккаласи ҳам рецептив нутқлардир. Ўқувчи тўғри ўқиган, талаффуз қилган сўзларни тезда қабул қилиб танийди ва тушуна олади. У ўзи тўғри ўқий олмаса, талаффуз қила олмаса, сўзларни тинглаганда таний олмайди, мазмунни тушунмайди. Ўқувчи ва талаба ёзганда ҳам сўзларни, гапларни тўғри ўқий олса, талаффуз қила олса, ёза олади, бу ҳам тинглаб тушунишга ёрдам беради. Ҳамма ўқув юртларида тинглаб тушунишни ўргатиш ҳам воситадан ҳам материални оғзаки ўргатиш, тушунишда бошқа нутқ фаолиятларини ўргатишда воситачилик қилади. Тинглаб тушунишнинг энг асосий мақсади, вазифаси, таниш тил материаллари асосида тузилган нотаниш мазмунли матнни, нутқни тинглаб тушунишдир.

Чет тили ўргатишнинг муҳам методларидан бири кўзатиш методи бўлиб, у ўқувчиларда тилдаги фонетик, лексик, грамматик ходисалар ҳақида онгли тасаввур ва малакалар хосил қилишни, уларни амалда куллай олишни кўзда тутди. Кўзатиш ўқувчилар томонидан янги мавзу тушунтириляётганда, синфда, уйда, мустақил ишларни бажараётганида амалга оширилади. Кўзатиш ўқувчидан фаол фаолият талаб қилади. Ўқувчилар тил материали тушунтириляётганида ёки мустақил ишлаётганларида уни таҳлил қилишлари, мантиқий хулосаларга келишлари, фикрлашлари, она тили билан қиёслашлари лозим. қиёслаш, таҳлил қилиш, фикрлаш дастлабки кўникмалар шаклланишига олиб келади. Фикрлаш, муносабат билдириш ўқув материални англашга ёрдам бериб, ўқувчини фаолликка йуналтиради. Кўзатиш ва фикрлаш орқали шакллантирилган дастлабки кўникмалар мустақил ишлар жараёнида, малакаларни амалда қўллаш орқали мустаҳкамланади.

Малакаларни амалда қўллаш табиий ёки сунъий нутқ, вазиятларида ташкил қилинади. Маълумки, сунъий равишда яратилган нутқ, ўқувчини ураб турган атроф-муҳидга, вазиятга мос келмаслиги туфайли ўқувчида уни ўрганиб олиш учун етарли диражада рағбат уйғотмайди. Масалан, ўқитувчи бир ўқувчига: «Сен дуқондасан. Сотувчидан битта дафтар ва иккита ручка неча сўм турганлигини сўра!» қабилида коммуникатив топширик, берса, иккинчи ўқувчига «сотувчи» сифатида унга тегишли жавоб беришни топширса, бу сунъий равишда яратилган нутқ, вазияти хисобланади. Агар ўқувчи турмуш эҳтиёжлари туфайли сотувчидан чет тилида юқоридаги гапларни сўрашга мажбур бўлса, бу табиий равишда яратилган нутқ, вазияти хисобланади.

Буни хисобга олиб ўқувчилар ўзларининг турмуш шароитида мактабда, кўчада, дўконда, учрашув ва ҳақозоларда дуч келадиган танишув, фикр билдириш, фикрни рад қилиш, фикрни қўллаб қувватлаш савол бериш, саволга жавоб беришга оид турли мавзулардаги нутқ, вазиятларига мос келадиган нутқ намуналарини ҳақиқий нутқ, вазиятларида амалда қўллашга ўрганадилар. Кейинги йилларда илгари сурилган муаммоли ўқитиш, проект тузиш орқали нутқ вазиятлари яратиш, компьютер ва интернет маълумотларидан фойдаланиш каби иш усуллари ўқувчиларга табиий яратилган нутқ, вазиятлари орқали чет тили ўргатишга кенг имкониятлар очмоқда.

Хулоса қилиб айтганда ўқувчи ўқув материални тушунтиради, кўрсатади, турли усул ва воситалардан фойдаланиб ўқувчиларда кўникма ва малакаларни шакллантиради, уларни амалда, оғзаки нутқда қўллаш йулларини ўргатади ўқитувчининг бундай фаолияти ўргатувчи ёки таълим берувчи фаолият деб юритилади. Бундан ташқари ўқитувчининг ўқувчиларнинг ўқув фаолиятини ташкил қилишга йуналтирадиган, уни рағбатлантирадиган, назорат қиладиган фаолияти ҳам мавжудки, уни ўқитувчининг бошқарувчи фаолияти деб аташ мумкин. Ўқитувчининг бундай аввалдан режалаштирилган фаолияти турли метод, усул ва воситалардан фойдаланишда уз ифодасини топади.

#### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Б. Фарберман. “Илғор педагогик технологиялар” Тошкент 2000 йил“
2. Кадрлар тайёрлаш бўйича миллий дастур” махсус курс Тошкент 1997 йил
2. Ж. Жалолов “Чет тили ўқитиш методикаси” Тошкент 1996 йил
3. Халқ Таълими 2000 йил
4. Халқ Таълими 2004 йил
5. Т. Сатаров “Бўлажак инглиз тили ўқитувчисини услубий технологияси” Тошкент 2003 йил

**МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ЁШИДАГИ БОЛАЛАРНИНГ ТОВУШ  
МАДАНИЯТИНИ ТАРБИЯЛАШДА МТТ ВА ОИЛА ҲАМКОРЛИГИ****Тошболтаева Гулнора Нумонжонова***Андижон вилояти Пахтаобод тумани**2-ДМТТ тарбиячиси*

Мактабгача таълим, бола шахсини мактабгача ёшдаги болалар таълим ва тарбиясига қўйиладиган Давлат талабларига мувофиқ соғлом ва етук, мактабга ўқишга тайёрланган тарзида шакллантириш мақсадини кўзлайди. Мактабгача таълим узлуксиз таълимнинг биринчи бўғини ҳисобланиб, у мактабда ўқиш учун тайёр, соғлом болани тарбиялашни кўзда тутди. Болани мактабда муваффақиятли таълим олишга тайёрлашда, унга она тилининг барча бойликларини эгаллаб олиш учун тегишли шартшароитлар яратиш зарур.

Мактабгача таълим, бола шахсини мактабгача ёшдаги болалар таълим-тарбиясига қўйиладиган Давлат талабларига мувофиқ соғлом ва етук, мактабга ўқишга тайёрланган тарзида шакллантириш мақсадини кўзлайди. Бу мавзуда болаларни мактабга тайёрлашда халқнинг бой миллий, маданий-тарихий мероси ва умумбашарий кадрятлар асосида ақлий ва маънавий-ахлоқий жиҳатдан тарбиялаш миллий ғурур, ватанпарварликни шакллантириш, билим олишга, ўқишга эҳтиёжни, майлларни шакллантириш ва жисмоний, руҳий соғлигини таъминлаш мақсадини вазифа қилиб қўйган. Мактабгача таълим узлуксиз таълимнинг биринчи бўғини ҳисобланиб, у боланинг кейинги таълими учун тайёр, соғлом болани тарбиялашни кўзда тутди. Болани мактабда муваффақиятли таълим олишга тайёрлашда, унга она тилининг барча бойликларини эгаллаб олиш учун тегишли шарт-шароитлар яратиш зарур. Мактабгача ёшдаги болалар ривожланишига қўйиладиган Давлат талабларининг асосий йўналишларидан бири нутқ, ўқиш ва саводга тайёргарликдан иборат. Бу умумий вазифа – “Нутқ, ўқиш ва саводга тайёргарлик” қўйидаги махсус вазифалардан иборат: нутқнинг товуш маданиятини тарбиялаш, луғатни бойитиш, мустаҳкамлаш ва фаоллаштириш, нутқнинг грамматик тўғрилигини такомиллаштириш, оғзаки (диалогик) нутқни шакллантириш, равон нутқни ривожлантириш, бадий сўзга қизиқишни тарбиялаш, саводга тайёргарликдан иборат бўлиб, бу борада оилада бола нутқини ўстиришда ота-оналарнинг роли ва вазифаларини ўрганиш ҳамда мактабгача ёшдаги боланинг нутқ маданиятини ўстиришда МТМ ва оила ҳамкорлигини янада ошириш каби масалаларни ҳал этиш ишнинг долзарблигидан далолат беради. Бола нутқининг рисоладагидек бўлиши унинг атрофидаги воқеа-ҳодисалар асосида тилининг таъсири остида ривожланиб боради. Бола нутқни эгаллаган ҳолда туғилмайди. Боланинг атрофидаги катта одамлар (онаси, отаси, акаси, опаси каби) қайси тилда гаплашсалар, бола ҳам шу тилни ўрганади. Нутқни эгаллашдек жуда ҳам қийин жараённи бола қисқа муддат давомида уддасидан чиқа олади. Янги туғилган болаларда нутқ бўлмаса-да, уларда қандайдир овоз чиқариш, яъни йиғлаш хусусияти бўлиб, бу- хусусият ташқи ёки ички

муҳитдан келадиган сигналларга (очлик, ташналик, совуқ ёки иссиқ каби) боғлиқ бўлади. Бола 2—3 ҳафталик бўлгач, унда товушларга нисбатан жуда элементар тарзда бўлса ҳам реакция юзага кела бошлайди. Масалан, чақалоқ бола атрофида баланд овоз билан ғовур-ғувур қилиб гаплашилса, у барча ҳаракатларини тўхтатиб, гапга кулоқ сола бошлайди. Ундан кейинги даврда эса, яъни бола 2—3 ойлик бўлгач, товуш билан товуш чиқараётган манба ўртасида ассоциация майдонга келади. Бунда бола товуш эшитилаётган томонга қараб бошини бурадиган бўлади. Ясли ёшидаги болалар нутқининг ривожланишига катта таъсир қилувчи моментлардан бири атрофидаги катталарнинг нутқ орқали қиладиган муносабатларига ижобий қарашларидир. Болалар борган сари катта одамлар билан кўпроқ муносабатда бўлишга интила бошлайди. Катта одамларнинг гапларига таҳлид қиладиган бўлади. Ана шу тариқа, секин-асталик билан боланинг тили чиқа бошлайди. Бола 6 ойлик бўлгач айрим товушларни бирлаштириб, масалан «ая», «а-йя», «да-да», «а-на» каби сўзларни қайта-қайта айтадиган бўлади. Ўтказилган текширишларнинг кўрсатишича, болаларнинг сўзларни тушунишлари ҳар бир сўзни ифодалаб берувчи товушларнинг аниқ идрок қила олишларига эмас, балки товушларнинг интонацияларини пайқаб ола билишларига асосланади. Масалан, кичик ёшдаги болага «чапагига ҳо-ҳо чапагига» деб, чапак чалишга ўргатилади. Ана шу сўз айтилиши билан бола чапак чалаверади. Борди-ю, ана шу сўзни бошқа сўз билан алмаштириб қўйсақ бола пайқамайди. Болалар сўзларни ифодаловчи товушларни секин-асталик билан фарқлайдилар. Болалар биладиган сўзларнинг миқдори турли болаларда турлича бўлади. Бу ўринда шунини ҳам айтиб ўтиш лозимки, Ўзбекистондаги жуда кўп оилаларда катта одамлар икки тилда (рус ва ўзбек) гаплашадилар. Бу икки тиллик муҳит, албатта, боланинг тили чиқишига салбий таъсир кўрсатади. Бола ҳар иккала тилни ҳам баробар эгаллай бошлайди ва қайси тилда гапиришни билмайди. Ана шунинг учун бола ёшлик чоғида ўз она тилини эгаллаши керак. Бундан ташқари, боғча ёшидаги болалар ўз она тилларининг грамматик тузилишини ҳам амалий тарзда ўзлаштира бошлайдилар. Сўз запаслари миқдор жиҳатидан боғча ёшидаги болаларнинг ҳаммасида бир хил бўлмайди. Боғча ёшидаги болалар сўз бойлигининг миқдори асосан бола тарбияланиб ўсаётган оиланинг ҳолатига боғлиқдир. Бир хил оилаларда бола нутқининг ўсиши билан махсус равишда шуғулланилади. Бошқа бир оилаларда эса, бола нутқининг ўсиши билан мутлақо шуғулланилмайди. Ана шунинг натижасида боғча ёшидаги болалар сўз бойлиги ўртасида сезиларли фарқ юзага келади. Мана шу жиҳатдан боланинг товуш маданиятини тарбиялаш, унинг ҳар бир товушнинг ўз артикуляциясини белгилаш, намунали нутқ туза олишида МТТ ва оиланинг ҳамкорлиги алоҳида ўрин тутди.

# PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA

## UMUMTA'LIM MAKTABLARI AMALIYOTCHI PSIXOLOGINING VAZIFALARI VA MAJBURIYATLARI

**Jo'rayeva Ra'no Nosirjonovna**

*Andijon viloyati Asaka tumani*

*3- umumiy o`rta ta`lim maktabi*

*Amaliyotchi psixologi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada umumta'lim maktablari amaliyotchi psixologining vazifalari va majburiyatlari haqida so`z yuritilgan.*

**Kalit so`zlar:** *ta'lim, amaliyotchi psixolog, muassasa, o'quvchi, psixologiya fani, psixologik bilim, bolalarning psixologiyasi.*

Ta'lim sohasida islohotlar boshlanishi barobarida umumta'lim maktablarining amaliyotchi psixolog vazifasiga ham e'tibor qaratildi. Jumladan, maktabdagi o'quvchi soniga qarab shtat birligi oshirilgani va amaliy psixologlar maoshi ko'tarilgani juda yaxshi bo'ldi. Bu umumta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan psixologlardan katta mas'uliyat talab qiladi.

Xo'sh, maktab psixologi o'z faoliyatini qanday tashkil qilishi kerak? Uning vazifalari, majburiyatlari va huquqlari bir qancha me'yoriy hujjatlar asosida mustahkamlab qo'yilgan. Shunday ekan biz bunga javoban o'z ishimizni qanchalik vijdonan va mas'uliyat bilan bajaryapmiz?

Psixolog maktabda sog'lom muhitni shakllantirishi, imkon boricha o'quvchilarning bo'sh vaqtini to'g'ri yo'naltira olishi, mashg'ulotlarning o'z vaqtida o'tilishini nazorat qilishi kerak. U o'qituvchi va o'quvchi, o'quvchi va ota-ona, o'quvchi va o'quvchi o'rtasidagi vositachidir. Munosabatlarni tartibga solish, o'quvchilarning ruhiyati, muammolarini o'rganish va ularga yechim topish borasida muntazam ish olib borishi darkor. O'g'il-qizlarning qobiliyatini kashf qilish va yo'naltirish ham maktab amaliy psixologining zimmasidagi eng mas'uliyatli vazifalardan biridir. Qolaversa, o'quvchilarning kelajakka katta maqsadlar bilan kirib borishlari, o'zlarini jamiyatga kerakli shaxs sifatida his etishlarida amaliy psixologning motivatsion mashg'ulot-treninglari muhim rol o'ynaydi.

Inson ongi va qalbida nima bo'lsa, aynan o'sha narsani nurlantiradi. O'zimizda yo'q narsani birovg'a berishga qodir emasmiz. Vazifamiz ziyo tarqatish ekan, avval ziyoni o'zimizda shakllantirib olaylik, so'ng uni o'quvchilarimizga ulashamiz. Demakki, ta'lim sohasida faoliyat yuritayotgan har bir mutaxassisning vazifasi ta'lim-tarbiya berish, o'quvchini yo'naltirish bilan birga tinimsiz o'z ustida ishlash va izlanish, bilimlarini oshirib borish hamdir.

Ta'lim psixologi - bu yangi paydo bo'lgan kasb. O'tgan asrning saksoninchi yillarida bu mavqe maktablarda mavjud emas edi. Maktab psixologining asosiy vazifasi - bu ham

sinfda, ham individual ravishda ta'lim jarayonini optimallashtirish. O'quvchilar o'rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf etishda ishtirok etish, o'quvchilar oilalaridagi psixologik iqlimni aniqlashtirish, o'quvchilarning ota-onalari bilan ishlash - bu maktab psixologining kundalik tashvishlari.

O'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelgan vaziyat maktabda odatiy hol emas. Bunday holatlarda ko'plab muammolarga duch keladigan, psixologiya bilimiga ega bo'lgan professional "hakamning" ishtirok etishi foydali bo'lishi mumkin. Bolalar va o'smirlarning yosh xususiyatlari, ularning rivojlanishining o'ziga xosligi, tuzatishni talab qiladigan xarakterning individual namoyon bo'lishi - bu maktab psixologining ko'rish sohasida bo'lishi kerak.

Maktab psixologlariga bo'lgan talab o'sib bormoqda, chunki ularning ta'lim jarayonidagi o'rni aniqlangan. Institutdan so'ng darhol maktab jamoasiga keladigan birinchi maktab psixologlari odatda o'qituvchilar va ma'murlarning masxara va ishonchsiz munosabatiga duch kelishdi.

Tajribali tajribaga ega bo'lgan bolalarning psixologiyasini va tajriba orttirgan o'qituvchilarning bir guruhi bilan ishlash tajribasini ko'pincha psixologiya bo'limi bitiruvchilari tajribasiga ega bo'lmagan yoshlardan farqli o'laroq bilishadi. Dastlab, yosh psixologlar sinab ko'rish qobiliyatlari bilan shug'ullanishgan va shu kabi o'yinlarga o'xshash tadbirlar qiziqarli va odatda yosh maktab psixologlariga ishonchni qozonishga imkon bergan.

Maktabda psixolog qanday vazifalarni bajaradi? Maktab psixologi - bu birinchi sinfga bolalarni jalb qilishda qatnashadiganlardan biri, bolaning maktabga tayyorligini aniqlaydi. Maktab psixologi o'qituvchilar kengashlarida qatnashadi, ota-onalar yig'ilishlarida qatnashadi. Psixologning vazifalariga psixologik diagnostika, shuningdek, tuzatish ishlari, bolalar, ota-onalar, o'qituvchilarga psixologik ta'lim berish kiradi.

Maktab psixologi quyidagilarga rioya qilishi shart.

1. Maktab psixologi- pedogogik jamoaning, o'quvchilarning va ota-onalarning ishonchini qozongan hamda qozonishi shart.

2. Psixolog mijozning muamolarini sir saqlashi shart.

3. Psixolog mijozni ko'proq gapirtirishi o'zi esa tinglashi shart.

4. Mijozning so'zlarini diqqat bilan tinglashi shart.

5. Psixolog mijozning ko'ngliga yo'l topa olishi shart.

6. Mijozning ko'nglini ko'tara olishi, hamda unga hamdard bo'la olishi shart.

7. Psixolog mmaktabda o'zini tutishi, hech qanday guruxlarga qo'shilmasligi shart.

8. Psixolog mijozning muamosini hal qilish jarayonida; o'zini mijozning o'rniga qo'yib ko'rishi juda ham zarur.

9. Maktab psixologi ochiq ko'ngil bo'lishi shart.

10. Psixolog hech qachon yolg'on gapirmasligi kerak.

11. Psixolog ma'suliyatli, ya'ni ma'suliyatni his qilishi

Odatda, maktabda o'tiladigan fanlar bilimni oshirishga qaratilgan bo'ladi. Psixologiya fanining joriy etilishi nafaqat o'smirning psixika haqidagi bilimlarini kengaytirishi, balki o'z-o'ziga yordam vositasi bo'lib xizmat qilishi mumkin. Maktab psixologining hamma

o'quvchi bilan ishlashga vaqti yetmasligi, asosan, muammosi og'ir o'quvchilar bilangina ishlashini hisobga olsak, psixologiya fani o'tilishi boshqa o'quvchilarning psixologik bilimlarga bo'lgan chanqog'ini qondiradi.



## MAKTAB PSIXOLOGLARI FAOLIYATI VA UNING MAKTABDAGI MAVQEYI

**Karimova Ra'no Ravshanovna***Andijon viloyati Baliqchi tumani**53-umumiy o`rta ta`lim maktabi**amaliyotchi psixologi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada maktab psixologlari faoliyati va uning maktabdagi mavqeyi haqida so`z yuritilgan. Maktab psixologi o`quvchilarga ustoz emas, do`st bo`lishi kerak. O`quvchilar o`z sirlarini psixologga qo`rqmay ayta olishlari, unga ishonishlari lozim.*

**Kalit so`zlar:** *maktab psixologlari, o`quvchi, ta`lim, tarbiya, bilim.*

Ma'lumki, shaxsning sotsializatsiyasi asosan maktab yillariga to'g'ri keladi. Shuning uchun ham maktab oldiga qo'yilgan asosiy vazifalardan biri bolaning kamoloti uchun barcha sharoitlarni yaratish, uning individual va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim va tarbiyaning eng maqbul shakllarini joriy etishdir.

Oxirgi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ko'rsatmalariga asosan yoshlarning layoqatlarini ilk yoshligidan aniqlash, ular iqtidorini har taraflama o`stirish vazifalari o`quvchiga individual yondashuvning zarurligini, o`qishning differensial bo`lishini talab qilmoqda, shunga yarasha maktab va jamoatchilik oldiga qator muammolarni keltirib chiqarmoqda. Testlar vositasida bilimlarni tekshirish, oliy o`quv yurtlariga va ta'limning barcha tarmoqlariga ham test sinovlari orqali qabulning amalga oshirilishi psixologik xizmatning tezroq yo'lga qo'yilishini talab qilmoqda.

Maktab psixologi – yosh avlodni katta hayotga to'g'ri yo'naltirishda ota-ona va o'qituvchi bilan barobar ahamiyatga ega shaxs. Murakkab davr – o'smirlikka qadam qo'yayotgan bola, shaxs sifatida shakllanayotgan o'smirning o'z olamidagi muammolariga yechim topishi uchun yordam berishda maktab psixologining roli katta.

Bugungi kunda maktablarda psixologning foydasi amalda juda kam. Birinchidan, bu oliy ta'lim tizimida psixolog kadrlarni tayyorlashdagi muammolar bilan bog'liq.

Oliy ta'lim sifatsiz psixologlarni tayyorlayapti, psixologik ta'lim eski manbalarga asoslangan, amaliyot bilan bog'lanmagan. Talaba o'zi mustaqil izlanishga moyil bo'lsagina, nimanidir o'rganib chiqishi mumkin. Hatto o'zimni ham yaxshi malakali kadr deb aytishga xijolat bo'laman.

Ikkinchidan, psixologning maktabdagi mavqeyi achinarli – unga keraksiz shaxs sifatida qaraladi. Jinsiy tarbiya, suitsid, ijtimoiy hayotga moslashuvdagi to'siqlar, kattalar bilan muloqot, kasb tanlashda psixologning o'quvchi hayotidagi roli katta bo'lsa-da, bu amalda ko'rinayotgani yo'q.

Maktabda o'quvchilar bilan ishlash uchun foydalaniladigan testlar zamondan orqada qolgan, deb hisoblayman. Chunki hozirgi o'smirlarning psixologiyasi bu testlar ishlab chiqilgan davrnikidan farqli. Har 20-30-yilda avlod almashadi, bu yangicha qarashlar, yangicha ruh paydo bo'ladi degani. 1996-yildan keyin tug'ilgan avlod – zet avlod, tabiiyki,

o'zidan avvalgi avlodlarga nisbatan boshqacha fikrlaydi, ularda psixika boshqa. Ammo ular bilan ishlashda boshqa avlod vakillari bilan o'tkazilgan tajribalarga asoslangan testlardan foydalanilmoqda. Bu testlar ularning ruhiyatini ochib bera olmaydi, shuning uchun ham qo'llashga yaroqsiz.

Shunday bo'lsa-da, yuqoridan yuborilgani uchun ham shu testlar asosida ishlashga majbur bo'lamiz.

Bitta sinfxonada o'rtacha 30-35 o'quvchi o'tiradi. Savollar soni 50 tagacha boradigan testlar ham bor. Psixolog ularni har bir o'quvchiga ishlatib olgach, bittalab hisoblab chiqishi, tavsiflashi lozim. Bunga juda ko'p vaqt va resurs ketadi. Natijada psixolog nima qiladi? Yoki ishlangan testlarni yolg'ondan «salbiy-ijobiy» qilib belgilaydi, yoki testni o'quvchilarga ko'rsatmasdan, o'zi shunchaki belgilab qo'ya qoladi.

Aslida ilmiy nuqtayi nazardan olganda, psixologiyaning asosiy metodi kuzatish va suhbat hisoblanadi. Bu ikki metod bilan aniqlanmagan jihatlarnigina testdan qo'shimcha metod sifatida foydalangan holda aniqlash mumkin. Shu sababli testlar sonini qisqartirish, depressiya, suitsidga moyillik kabi eng zarurlarini qoldirib, treninglarga ko'proq vaqt ajratish maqsadga muvofiq.

Shuningdek, psixologiya mashg'ulotlari davomida o'quvchilarni kasbga tayyorlash degan metodika bor. Bu borada testlar Yevropa modelidan ko'chirilgan holda bizga modifikatsiya qilingan, lekin bu modifikatsiya noto'g'ri qilingan. Testlarni ko'rsangiz, bizda uchramaydigan, Yevropadagina bor bo'lgan kasblardan kelib chiqib berilgan savollar bor. O'quvchilar tugul, psixologlarning o'zi ham ularning mohiyatini tushunmaydi.

Psixologik mashg'ulotlarni o'tkazish uchun alohida soat ajratilmagani psixolog-o'quvchi munosabatlarini tashkillashtirish uchun imkon qoldirmaydi.

Deylik, psixolog o'quvchilardan ruhiy holatni aniqlashda test olishi kerak bo'lsa, qaysidir o'qituvchining darsini buzishiga to'g'ri keladi. Ham dars buziladi, ham test o'ldajo'lda o'tkaziladi. Yoki 20 daqiqaga mo'ljallangan (undan ham yuqorilari bor) testlarni 5 daqiqada nomigagina belgilatib oladi. Bu, albatta, testlarning ishonchligiga, natijaviyligiga ta'sir etadi. Ya'ni o'quvchidagi real ruhiy holatni bilishga to'siq bo'ladi. Alohida soat ajratilmagan bo'lsa, psixolog o'quvchi bilan qaysi paytda shug'ullansin? Olti soat darsdan so'ng ham ruhan, ham jismonan charchagan o'quvchiga psixolog treningi yoqarmidi? Shu nuqtayi nazardan, psixologning o'quvchilar bilan shug'ullanishi uchun dars soatlari jadvalga kiritilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Umuman olganda, maktablarda psixologning mavqeyini oshirish, uning o'z faoliyatini samarali tashkil qila olishi uchun muhit yaratish masalasi, ayniqsa, e'tibor kamroq bo'lgan tuman hududlarida tubdan qayta ko'rib chiqilishi kerak. Chunki psixolog o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni chindan ham uddalay olsa, keyinchalik kattalashib ketishi mumkin bo'lgan ko'plab ijtimoiy muammolarni birinchi bosqichlardayoq profilaktika qilish mumkin bo'ladi.

## KIMYO TA'LIMNING MAQSAD VA VAZIFALARI

**Madusmanova Shahnoza Olimjonovna***Toshkent viloyati Angren shahar**34- sonli tayanch-harakat a'zolari shikastlangan  
bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internati  
kimyo fani o'qituvchisi*

Kimyo ta'limi pedagogik jarayonining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, ta'limning umumiy maqsadlariga muvofiq o'quvchi shaxsini tarbiyalashga xizmat qiladi. Respublikamiz mustaqilligining dastlabki yillarida ta'lim- tarbiya sohasini isloh qilish natijasida to'plangan tajribalar, chiqarilgan bir qator xulosalar asosida amaldagi ta'lim-tarbiya tizimini hozirgi taraqqiyot va kelgusidagi talablar darajasiga ko'tarishga, uni takomillashtirishga jiddiy e'tibor berish zarurligi ta'lim-tarbiyaning uzluksizligini ta'minlashdan kelib chiqib, «Kadrlar tayyorlashning Milliy dasturi» va «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining IX sessiyasida muhokama qilindi va tasdiqlandi. Shu munosabat bilan barcha o'quv predmetlari qatori kimyo ta'limi oldiga ham aniq vazifalar qo'yildi.

Kimyo ta'limi standarti kimyo o'quv predmetining majburiy mazmunini belgilab beradi.

Kimyo ta'limi standarti, kimyo ta'limi tizimidagi barcha komponentlarni: ta'limning mazmuni, maqsadi, ta'limning uzluksizligi, tashkiliy shakllari, usullari, vositalari va boshqalarni qayta ko'rib chiqish mezonini hisoblanadi.

Kimyo ta'limi konsepsiyasiga muvofiq kimyo ta'limining yo'nalishi va maqsadi yosh avlodning kimyo fani asoslarini chuqur egallashi, o'quvchilarning siyosiy - g'oyaviy, estetik, ekologik tarbiyasi, tabiatga va jamiyatga bo'lgan ijobiy munosabat, qadimgi yashab ijod etib o'tgan buyuk mutafakkirlar, keyingi yillarda olimlarimizning kimyo sohasidagi erishgan yutuqlariga oid o'quv materiallari bilan tanishtirib borish orqali vatanga bo'lgan e'tiqodni shakllantirish, kasbga yo'naltirish ko'zda tutiladi. Kimyo ta'limi standarti-kimyo o'qitishda o'quvchilarga beriladigan ta'lim va tarbiyaning mazmuni negizini belgilovchi ko'rsatkichlar, shuningdek o'quvchilarning tayyorgarlik darajasidagi bilim va amaliy faoliyatlari darajasi me'yorini belgilaydigan mezon bo'lib hisoblanadi.

Kimyo ta'limi standarti – umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun tuziladigan kimyo ta'limi dasturi va o'quv materiallarining hajmini belgilab beruvchi mezon bo'lib xizmat qiladi.

Kimyo ta'limi standarti–kimyo ta'limida o'qituvchilarning davlat va jamiyat oldidagi vazifalari, burchi va javobgarligini qay darajada his qilishlari mezonini bo'lib ham hisoblanadi.

Kimyo ta'limi standartining tuzilishi uzluksizlikni ta'minlash asosida, kimyo ta'limi sohasi mazmunining asosiy yunalishlari: «Kimyoviy tushunchalar», «Modda», «Moddaning tuzilishi va xossalari», moddalarning olinishi, kimyoviy til, eng muhim kimyoviy tushunchalar va qonunlar, nazariyalar, kimyoviy ishlab chiqarishning

texnologiyasi, respublikamizda kimyo sanoatining erishgan yutuqlari, organik moddalarning ayrim vakillari, polimerlar, tabiat va jamiyatga kimyoviy ishlab chiqarishning ekologik ta`siri haqidagi bilimlarni berishga va amaliy malakalar hosil qilishga qaratiladi.

Bunda, o`quvchilarning bilishi, anglashi, amaliy ishlarni bajara oladigan ko`nikma va malakalariga ega bo`lishlarini ta`minlash va uning sifatini aniqlashga imkon beradi.

Kimyo ta`limi standarti quyidagi uchta bo`limdan iborat.

- 1) Kimyo ta`limi mazmuni negizini belgilovchi ko`rsatkichlar.
- 2) Kimyo ta`limida o`quvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo`yiladigan standartning minimal talablari.
- 3) Kimyo ta`limida o`quvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo`yilgan standartning maksimal talablari.

«Kimyo ta`limi mazmuni negizining belgilovchi ko`rsatkichlar» bo`limi o`quvchilarga kimyodan beriladigan bilimlar, ekologik ta`lim-tarbiya va o`quvchilarda hosil qilinadigan amaliy ko`nikma va malakalarni o`zida mujassamlashtiradi.

Ikkinchi va uchinchi bo`limda esa o`quvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo`yilgan talablar yoritiladi.

O`quvchilarga maksimal ball yoki baho qo`yishda har ikkala, ya`ni minimal va maksimal tayyorgarlik darajasiga bo`lgan talablar hisobga olinishi zarur. Bu esa, kimyo ta`limi standarti o`quvchilar tomonidan o`zlashtirish ko`rsatkichlarni ifodalashga kimyo ta`limi sifatini baholashda o`lchov mezoni bo`lib xizmat qilishiga imkon beradi.

**O'QUVCHILARGA FIZIKA FANINI O'QITISHDA INNOVATSION  
TEKNOLOGIYALARDAN UNUMLI FOYDALANISH****Aliyeva Oydin Axrarovna**

Navoiy shahar 10-maktab 1-toifali

fizika fanio'qituvchisi

NavDPI2-kurs magistri

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada fizika fanini o'qitishda pedagogik texnologiyalardan, boshqotirmalardan foydalanish va ulardan fizika darslarida qo'llash masalalari xususida mulohazalar yuritilgan.

**Kalitso'zlar:** metodika, innovatsiya, "Keyvord", "Chaynvord".

*"Iqtidorli o'g'il qizlarni yuqori texnologiyalar va zamonaviy bilimlarni chuqur o'zgartirishiga keng sharoit yaratish hamda raqobat bardosh milliy kadrlarning yangi avlodini tayyorlash maqsadida Toshkent shahridayangi universitet tashkil etamiz", dedi Prezident. "Haqiqatan ham, jahondagi rivojlangan davlatlar tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ularda jamiyat hayotini o'zgartirishga qaratilgan islohotlar avvalo ta'lim tizimidan, bog'cha, maktab, tarbiya masalasidan boshlanganini ko'ramiz. Chunki maktabni o'zgartirmasdan turib, odamni, jamiyatni o'zgartirib bo'lmaydi. Ta'lim va tarbiyaning asosi, poydevoribu – maktab. Maktabni maktab qiladigan kuchesa o'qituvchilardir."*

**ShavkatMirziyoyev**

Hozirgi tez o'zgarayotgan dunyoda o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, o'quv-tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish asosiy maqsadimizdir. Shuningdek, uzluksiz ta'lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash va ta'lim samaradorligini oshirishda quyidagilarga e'tibor qaratish zarur.

**Fizika fanini o'qitishda innovatsion metodikalar:**

**Metodika** ta'lim-tarbiyaning turli xususiy masalalarini hal qilish zarur atinatijasida kelib chiqqan va ta'lim-tarbiya metodikasi asosida ijodkor o'qituvchilarning ilg'or tajribalariga asoslanib rivojlanadi.

**Innovatsiya** esa yangilik yaratib, zamonaviy texnologiyalar asosida fanni o'qitish va rivojlantirish tushuniladi. Fizikafanianiq fan vaaniqhisob-kitoblarga asoslangan, isbot talab qilinadigan fan bo'lganligi sababli ilg'or pedagogik texnologiyaning yaratilgan ba'zi metodlarini qo'llash biroz qiyinchilik tug'diradi. Shundaybo'lsa-da, "Aqliyhujum", "Kichikguruhlardaishlash", BBB metodi, "Klaster", "Baliqskaleti", "To'pcha" metodikabilar darslarning qiziqarli o'tishiga yordam bermoqda. Bulardan tashqari, o'quvchilar bilimini mustahkamlashda masalalar yechish metodi asosiy rol ni o'ynaydi.

Keyvord. Fizika fanida qo'llaniladigan atama va terminlarni yodda saqlash uchun bu boshqotirma qo'l keladi. Bu metodda yana bir jihati shundan iboratki o'quvchilar bir vaqtda

ham sonlar, ham fizik so'zlardan foydalanib ishlashadi. Tezkor fikrlash, jonli raqobatni yuzaga keltiradi.

**KEYWORD**

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15

		6			8		1 B		9
	10	7	8		3	13	2 R	7	14
		11			10		3 O		3
		7			10		4 U		8
		2	13		9		5 N		
15	3	9	14						
	11								
10	7	6	6	4	11	7	12	9	
	12								

Bu keyvordda 15 ta harf qatnashgan bo'lib, 5 ta harf ochilgan, qolgan 10 tasi esa yopiq turibdi. O'quvchilar keyvorddagi sonlardan foydalanib, ochiq harflarni qo'yib chiqadi va fizik atamalarni topib, qolgan sonlarda qaysi harflar yashiringanligini topadi. Masalan: 3 raqami qayerda bo'lsa shunga "O" harfini yozadi, qayerga 4 raqami yozilgan bo'lsa "U" harfini yozadi, shundan fizik so'zlar topilib qolgan sonlar qaysi harf ekanligi ochiladi.

Bu boshqotirmadan foydalanish o'quvchilarda fanga qiziqishi ortib borishiga, tushuncha va atamalarni esda tutishga xizmat qiladi, 6-sinfdan 11-sinfgacha bo'lgan o'quvchilar yoshiga mos qilib tuzilsa maqsadga muvofiq, bo'lmasa o'quvchi zerikib qoladi.

**Chaynvord.** Bu boshqotimali metodda fanda oid so'zlar chaqqonlik bilan topilib, ziyraklikni oshiradi.

<b>CHAYNVORD</b>												
<del>H</del>	<del>I</del>	<del>S</del>	<del>O</del>	<del>B</del>	<del>L</del>	<del>A</del>	<del>G</del>	<del>I</del>	<del>CH</del>	L	A	M
O	V	Y	I	F	N	A	M	A	K	CH	O	P
L	E	L	E	K	T	R	R	T	E	M	T	L
T	I	Z	O	L	A	T	O	R	E	L	E	O
A	P	R	O	T	O	N	N	O	R	T	K	V
M	P	E	M	E	T	R	M	U	S	B	A	T

Chaynvordda fizikaga oid so'zlar yashiringan, bo'yiga, eniga, o'ngga, chapga qarab ketish mumkin faqat diaganaliga ketish mumkin emas degan shart bajarilishi kerak. Bu so'z o'yiniga qiziqmagan yoshni o'zi bo'lmasa kerak, har qaysi o'quvchi yoki o'qituvchi chaynvordni ichiga kirib ketganini o'zi ham bilmay qoladi buni amalda sinab ko'rganman.

Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, hozirga o'sib kelayotgan yosh avlodni oddiy dars qoniqtirmaydi, o'qituvchi ham o'z maqsadiga erisholmaydi. Qachonki davr bilan hamnafas ham o'quvchi ham o'qituvchi rivojlansagina ta'lim va tarbiyada yuksakliklarga erishamiz.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:**

- 1 N.Sh. Turdiyev. Fizika. Umum ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik.T.: 2017
- 2.P Habibullayev, A Boydedayev, A Bahromov, J Usarov, K Suyarov, M Yuldasheva. Fizika. Umumta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik.T.:2019
- 3.Fizikao'qitishmetodikasi. Ma'ruzamatni
- 4.O'zbekiston milliy ensiklopediyasi - T. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2004.

**BOLALARNI MAKTABGA PSIXOLOGIK TAYYORLASH****Quvandiqova Mohira Abdukarimovna***Samarqand davlat universiteti  
maktabgacha ta'lim fakulteti magistiri*

**Annontatsiya:** *Ushbu maqolada bolalarni maktabga psixologik tayyorlash va bolalarni ruhan kuchli bo'lishi, bu bilan birga psixologiyaning bolaga ahamiyati haqida fikr yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Psixologiya, bolalar, kitob, maktab, qobilyat.*

Bolalarni maktabga tayyorlashda psixologik yordam kerak. Bolarni maktabga tayyorlash davomida ruxiy va jismoniy kuchi katta ahamiyatga ega bo'lib ota ona va pedagoglarni tavsiyalari muhim. Har qanday pedagog hech qanday vositalardan foydalanmay, bolani maktabga tayyorgarligini aniqlay oladi. Ba'zi ota-onalar ham bola qanchalik sog'lom, chaqqon, mustaqil, aqli, o'qishga tayyor ekanligini taxminan bilishadi. MTM tarbiyachilari har bir bolaning maktabga tayyorgarligini to'g'ri aniqlashda yetarli pedagogik, texnologik bilim va tajribalarga ega bo'lishlari kerak, bunda ular MTMda ta'lim va tarbiya dasturi talablariga tayanishlari kerak. Agar maktabgacha davrda bola normal rivojlangan bo'lsa, uning jismoniy va aqliy rivojlanishiga hech qanday kuchli ta'sirlar bo'lmagan bo'lsa, unda bola yetti yoshda ta'lim olish darajasiga yetadi. Ammo ba'zi oilalar va bog'chada maktabga tayyor bo'lmagan bolalar ham uchraydi. Bunday bolalar mutaxassis nazoratida maxsus tekshiruvdan o'tishadi va o'qishga tayyorgarligi darajasi haqida mutaxassis xulosa chiqaradi. Bolaning o'qishga tayyorgarligi, mustaqil bo'la olmasligi, his-tuyg'u va ijtimoiy rivojlanishining juda past darajaliligi uning maktabga tayyor bo'lishiga to'siq bo'ladi. Bunday bolalar o'rtoqlari va tengdoshlari orasida o'z o'rnini topa olmaydilar. Maktabda uzoq muddat ota-ona g'amxo'rlikisiz bolgani sababli, bola o'z yoshiga mos his-tuyg'u va iroda mustahkamligiga ega bolishi, o'z xulqini nazorat qila olishi kerak. Agar o'quvchi o'qishga ijobiy yondashsa, o'qishni xohlab, intilsa, ta'limdagi bosh-lang'ich qiyinchiliklarni tezroq va osonroq bartaraf etadi. Irodali bolish bolaga barcha maktab vazifalarini doimiy va muvaffaqiyatli bajarishida muhim ahamiyatga ega. Bilim va ijtimoiy hayot qonun-qoidalariga rioya qilish, harakter ijobiy jihatlarining shakllanganligi bolaga boshqa bolalar bilan muloqotda, sinfdoshlar bilan do'stona munosabato'rnatishda va jamoada faol ishtirok etishida juda katta yordam beradi. Bolaning maktabga umumiy tayyorgarligi deganda uning har tomonlama rivojlanganligi tushuniladi.

Biror tomonining rivojlanmagani, zaifligi (aqliy, his-tuyg'uli, irodaviy yoki amaliy) maktabda o'zlashtirmaslikning sabablaridan bo'lishi mumkin. Shu bilan birgalikda, bolalar birinchi sinfda o'quv fanlarning (o'qish, yozuv, matematika) mazmunini o'zlashtirish uchun maxsus bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak. Masalan, matematikani o'qitishda o'qituvchi bola narsalarning rangi, shakli, katta-kichikligi, sonini ajrata biladi deb hisoblaydi, yozuvni o'rganishda esa bola yozuv va rasm qurollarini to'g'ri ishlata olishiga, grafik mashqlarni bajara olishiga tayanadi. Shu kabi bilim, malaka va



ko'nikmalar maktabga maxsus tayyor-garlikni tashkil etadi. Umumiy va maxsus tayyorgarlik bir-biriga zid kelmaydi. Maktab fanlarini o'zlashtirishda bolaning maxsus tayyorgarligi umumiy tayyorgarlikdan kelib chiqadi, unga mos keladi, tayanadi.

Bola shaxsini rivojlantirishda ma'lum bir tomoniga asosan, aqliy kuchli yo'naltirish berishga alohida e'tibor berish kerak. Kattalar har doim shuni esda tutishlari kerakki, bolani tezlash-tirilgan, jadal o'qitish zarur hisoblanadi. Maktabgacha davr inson shaxsini shakllantirishda juda katta ahamiyatga ega. Agar shaxsni har taraflama shakllantirishda aynan shu yoshdagi qulay sharoitlar muhim rol o'ynaydi. Maktabga tayyor bo'lgan bola jismoniy chiniqqan, har qanday ob-havoda uzoq vaqt yura oladi, asosiy harakat malakalariga ega, uo'zining harakatlarini nazorat qila oladi, tozalikka rioya qiladi. Bola bilimining rivojlanganligi uning jamiyat va tabiatdagi voqeahodisalarni tushunib yetishi, kuzatish qobiliyati, hodisalarni to'g'ri nomlashi bilan aniqlanadi. Bola o'z fikrlarini ifoda eta bilishi kerak, ijodiy va mustaqil fikrlay olishi, aniq ko'rgazma materialga tayanib, masalalarni yecha bilishi kerak. 6-7 yoshli bola oiladan tashqarida ham o'zini dadil tutishi kerak. Shakllangan madaniy ko'nikmalari o'z tengdoshlari bilan munosabatlar o'rnatishiga yordam beradi. Bola mustaqil kiyinishni, ovqat yeyishni, narsalarini toza va tartibli saqlashni o'rganishi kerak. Bola kattalar mehnatining muhimligini tushunishi va hurmat qilishi kerak. Har qanday ishga ijobiy yondashib, uni diqqat, e'tibor bilan vaqtida bajarishi lozim.

Bolada estetik idrokni shakllantirish, o'zining yoshiga mos badiiy asarlarga qiziqish uyg'otish, yon-atrofni estetik jihatdan bezatishiga intilishini rivojlantirish kerak. Bola musiqa, adabiy so'z, rasmlarning chiroyini sezishni o'rganishi, ashula aytish, rasm chizish, yasash, topishmoqlar, laparlar, tez aytishlar, maqollar, ertaklarni bilishi va aytib berishi, kitoblarni avaylashni bilishi kerak. Maktabga tayyor bo'lmagan bolaning qabul qilishi bola shaxsining rivojlanishiga har tomonlama yomon ta'sir etadi. o'qish-O'zidagi o'zlashtira olmasliklar bolada o'qishga nisbatan salbiy munosabat tug'diradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. //monster-evo.ru/uz
2. s://windsc.ru
3. /fayllar.org/
4. /uz.inditics.com

**MAKTAB O'QUVCHILARI BILAN O'TKAZILADIGAN PSIXOLOGIK  
TRENINGLARNING AHAMIYATI****Xamidullayeva Sarbinaz Baxadirovna***Qoraqalpog'iston Respublikasi Taxtakol'pir tumani**3-sonli IDUM ning amaliyotchi psixologi*

**Annotatsiya:** *Keltirilgan ushbu maqolada trening haqida, treninglarning o'quvchilarga ta'siri, bilish jarayonlarini, stress, depressiya kabi salbiy jarayonlarning oldini olishda, korreksiya qilishda qanchalik muhim ekanliklari haqida so'z yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Trening, profilaktika, diagnostika, o'quvchilar, aylanma o'tirish, musiqa.*

O'zbekistonda psixologiya sohasi fan sifatida keyingi o'n yilliklar mobaynida anchagina rivojlandi. Shuningdek, psixologiya sohasining alohida yo'nalishlaridan biri bo'lgan psixologik va ijtimoiy psixologik trening sohasi ham anchagina rivojlandi.

**Trening**-shaxsda mavjud bo'lgan yoki vujudga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni hal qilish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va malakalarni hosil qilish maqsadida turli xil o'yin va mashqlar orqali o'tkaziladigan mashg'ulotdir.

Har qanday trening maqsad qo'yishdan boshlanadi. Trenerning amalga oshiradigan ishlari, guruhni treningga tayyorlash va trening mashg'ulotni o'tkazish-ularning hammasi dastlabgi qo'yilgan maqsad atrofida shakllanadi va rivojlanadi. Shuning uchun dastlabgi maqsad qanchalik aniq shakllantirilgan bo'lsa, qanchalik aniq tarzda yetkazib berilsa va barcha ishtirokchilar tomonidan qabul qilinsa mana shu narsa treningda erishilgan yutuqning nechog'lik yuqori darajada ekanligini belgilab beradi. Trening o'tkazish jarayoni **4 bosqichda** olib boriladi. Bular:

1. Tashkiliy bosqich
2. Boshlang'ich bosqich
3. Asosiy bosqich
4. Yakuniy bosqich

Trening mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish jarayonida trener quyidagi muhim jihatlarni hisobga olishi maqsadga muvofiq:

**-trening mashg'ulotlarining davomiyligiga:**

1. Haftasiga 4-5 kun, 1 kunda 8 soatdan mashg'ulot o'tiladi. Orada 30 yoki 60 daqiqa tanaffus beriladi. Bu eng samarali natija beradigan trening mashg'uloti hisoblanadi.

2. Haftasiga 2-3 kun, 1 kunda 4-5 soat mashg'ulot o'tiladi. O'rtacha samarali natija beradi.

3. Haftasiga 1 kun, 3-4 soatdan mashg'ulot o'tkaziladi. Kamroq samara beradi.

**-trening o'tkaziladiga xona:** bunday xonalar shinam, keng, erkin harakatlanishga mo'ljallangan, kerakli anjomlar bilan jihozlangan bo'lishi tavsiya etiladi. Xonada dumaloq stollar, stullar, devorda 1-2 dona manzarali suratlar, magnitafon, videopleer, proektor, komputer jihozlari ham bo'lishi lozim.

**-ishtirokchilar soni:** 8-10 kishidan 19-20 nafargacha bo'lishi ma'qul.

Maktab o'quvchilariga trening mashg'ulotlari o'tkazilib turadi. Bundan maqsad shuki, o'quvchilar bir-biriga moslashishi, guruhdagi o'quvchilarning xulq-atvorini bilish, ularning bilish jarayonlarini rivojlantirish yoki qandaydir muammoli vaziyatlari bo'lsa, stressli holatlarda bo'lsa uni yengish maqsadida ham trening o'tkaziladi. Hozirgi kunda maktab psixologlari o'quvchilar bilan juda yaqin munosabatda bo'lishi talab qilinadi. Ya'ni ular bilan suhbatlar o'tkazib turishi, psixodiagnostik metodlar olishi, uning natijalarini chiqarib ular bilan ishlashishi, ishlashish jarayonida har xil mashg'ulotlardan, musiqiy terapiyalardan foydalanishi talab qilinadi. Shunda o'quvchilar ham o'zlarini erkin, yaxshi tutadi. Ham o'zidagi muammolarini psixologga ishonib ayta olishadi va natijada esa qandaydir salbiy oqibatlarining oldi olinadi desak ham bo'ladi.

Maktab o'quvchilariga quyidagi trening turlarini o'tkazish mumkin:

**Ijtimoiy-psixologik treninglar-** bu trening ishtirokchilariga o'zining atrofida oilasi, yaqinlari va o'z-o'zi bilan muloqot san'atiga o'rgatuvchi treninglardir.

**Kommunikativ treninglar-** guruhda va undan tashqaridagi samarali muloqot ko'nikmalarini egallashga qaratilgan treninglardir.

Metodikalar bu bolalarni diagnostika qilishda yordam beradi. Ya'ni biz ularning qaysidir psixologik jarayonini o'rganmoqchi bo'lsak, metodikani olib uni analiz sintez qilamiz, interpretatsiyasini chiqaramiz. Keyin shu chiqqan natijalar asosida qo'shimcha metodikalar olib, ularni korrektsiya qilishga kirishamiz. Metodikalarning o'quvchilarga ta'sirini aytadigan bo'lsak, ular o'zlarining qiziqishlarini, ichki yashirin qobiliyatlarini bilib olishlari mumkin bo'ladi. Misol tariqasida rasm chizdiradigan bo'lsak, biz o'quvchilardagi xavotirlik darajasini, stressga bardoshlilik darajasini, qobiliyatlarini bilib olishimiz mumkin bo'ladi. Psixologik treninglar bu o'quvchilarning eng sevimli mashg'ulotlari bo'lib, bunda ular aylana bo'lib o'tirib olishadi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, o'quvchilarning turli xil tushkunliklarini yo'qotishda, motivatsiya olishida, bilish jarayonlarini rivojlantirishda, kasb tanlashida turli xil treninglar, mashg'ulotlar o'quvchilarga motivatsiya beribgina qolmasdan ularga to'g'ri yo'l ko'rsatadi va oldilariga maqsadlar qo'yib harakat qilishini ta'minlab ham beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ergash G'oziyev „Umumiy psixologiya” Toshkent 2010. { 417-419-b}
2. Z. T. Nishanova, Z.Q.Urbanova S.Abdiyev „Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya” Toshkent-2011. {113-122 b}
3. Z. T. Nishanova. Bolalar psixodiagnostikasi. Toshkent 1998-yil.
4. Internet saytlari: [www.ziyo.uz](http://www.ziyo.uz)

## O'QITUVCHI MULOQOTIDA MUOMALA MADANIYATINING SHAKLLANISHI

**Xojimatova Gulshanoy Najmiddin qizi***Andijon viloyati Baliqchi tumani**37-umumiy o`rta ta`lim maktabi**amaliyotchi psixologi*

Yoshlarning ongini o`stirishda o`qituvchi pedagoglarning roli juda muhim. Ayniqsa, ijtimoiy-pedagogik sharoitga moslashgan ta`lim texnologiyalarini yaratish va ularni ta`lim-tarbiya amaliyotida qo`llash dolzarb masala. Bu o`rinda o`qituvchi pedagoglarning o`zlari qay darajada imkoniyatga ega ekanligi, har qanday yangilikni tez o`zlashtirib oluvchi yoshlar oldida bir qadam oldinda yurish har bir pedagogning oldida turgan muhim vazifalardan biri bo`lib kelgan va bundan keyin ham shunday bo`lishi kerak. Chunki o`qituvchi pedagoglar ta`lim-tarbiya jarayonining eng mas`ul shaxslari hisoblanadi. Shuning uchun ham bu jarayonda raqobat bo`lishi tabiiy. Buning shartlari esa tinimsiz mehnat, malakasini oshirish, o`z ustida ishlash va o`z tafakkurini kengaytirib borishdir.

O`quv jarayonini yaxshi bo`lishi o`qituvchi muomala madaniyatida namoyon bo`ladi. Muomalaning eng muhim tarkibi muloqot sanalib, motivatsiyada motiv qanday ahamiyat kasb etsa, u ham xuddi shunday muhim rol o`ynaydi.

**Muomala** - hamkorlik faoliyatining ehtiyojidan vujudga kelib chiquvchi, shaxslararo muloqot rivojlanishining ko`p qirrali jarayonidir. Muomala quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil topgan:

-**Kommunikativ** (bir tomonlama axborot o`zlash). Muomala o`z ichiga hamkorlik faoliyatining qatnashchilari bilan o`zaro axborot almashuvni qamrab olgan bo`lib, kommunikativ jabha sifatida tavsiflanishi mumkin. Odamlar bir-birlari bilan muloqotda kirishishi jarayonida muomalaning muhim vositalaridan biri tilga va nutq faolyaitiga bevosita murojaat qiladilar.

- **Interaktiv** (ikki tomonlama ta'sir) - muloqotga kirishuvchilarni o`zaro ta'siri, ularning nutq faoliyatida nafaqat so`z orqali fikr almashinuvi, balki hatti-harakat va hulq atvori bilan o`zaro ta'sir o`tkazishi tushuniladi.

- **Perseptiv** (o`zaro bir-birini idrok qilishi, anglashi) bunda muloqotga kirishuvchilar o`zaro bir-birlarini idrok qilish jarayoni namoyon bo`ladi, ya'ni ulardan biri ikkinchisining ishonchiga loyiq, aqlli, farosatli, tajribali, yuksak tayyorgarlikka ega inson sifatida idrok qilinadi.

Muomalaning har uchala tomonini birlikda yaxlit olib qarash, u hamkorlik faoliyatini tashkil qilishning usuli va unda ishtirok etuvchilarning munosabatlari tariqasida namoyon bo`ladi.

Kasbiy muammoni muvaffaqiyatli yechish mumkinki, qachonki o`qituvchi bilan o`quvchilar (talaba) hamkorlik faoliyatiga kirisha olsa, shaxsni shakllantirishning maqsad va vazifalariga o`zaro ta'sir va tushunuvchi yo`lga qo`ya olsa shundagina pedagogik muomala amalga oshadi.

Pedagogik muomala - bu o'qituvchining talabalarga ta'sir o'tkazish usullarining muayyan tizimidir.

- hamkorlik ishtirokchilarning o'zaro axborot almashuvi;
- turlicha kommunikativ vositalar yordamida o'qituvchi tomonidan talabalar bilan o'zaro ta'sir va o'zaro munosabatni tashkil qilish;
- muayyan maqsadni dasturiy asosda amalga oshirishning rejalashtirish va o'tkazish funksiyasini bajaradi.

Pedagogik faoliyatda muomala birinchidan, o'quv faoliyatini yakkahol bajarishning vositasi, ikkinchidan tarbiya jarayonini ta'minlashning ijtimoiy-psixologik tizimi, uchinchidan ta'lim va tarbiyaning muvaffaqiyatini ta'minlovchi o'qituvchi bilan talabalarning o'zaro munosabatining muayyan tizimini tashkil qilishning usuli, turtinchidan talaba individualligini takomillashtirish, iste'dodini qaror toptirish imkonini beruvchi jarayon ekanligi, beshinchidan yakkahol faoliyatning sub'ekti sifatida ro'yobga chiqarish asoslidir.

Psixologiyada rahbarlarning o'z jamoasi a'zolari bilan munosabat texnikasi tahlil etilib, turli tipdagi ijtimoiy-psixologik portretlari ishlab chiqilgan. Pedagoglarning muloqotni boqarish uslublari: avtoritar, demokratik, liberal uslub tarzida berilgan. Mana shu uslublarni pedagogik muloqotda o'qituvchi rahbarligi uslubi tarzida kurish mumkin.

Avtoritar uslub. O'qituvchi guruhning faoliyat yo'nalishini shaxsan o'zi belgilaydi, kim-kim bilan o'tiradi, kim bilan ishlaydi o'qituvchi o'zi hal qiladi. Bunday uslubda ish yurituvchi o'qituvchi o'quvchilar tashabbusiga yo'l bermaydi. Hamkorlikning asosiy shakli-buyruq, ko'rsatma, instrUksiya, ogohlantirish. Hatto kamdan-kam bildiriladigan minnatdorchilik ham kamsitish shaklida bo'ladi. "Sen bugun yaxshi javob berding. Sendan buni kutmovdim" kabi.

Demokratik uslub. O'qituvchi faoliyat maqsadini har bir o'quvchi ongiga yetkazishga, ish borishini hal etishga hammani faol ishtirok etishga undaydi. o'zining vazifasini faqat nazorat va muvofiqlashtirishda emas balki tarbiyalashda deb biladi, har bir o'quvchi rag\_batlantiriladi, unda o'ziga ishonch paydo bo'ladi, o'z- o'zini boshqarish rivojlanadi. Demokratik uslubda boshqaruvchi o'qituvchi bolalarning individual qobiliyat va qiziqishlarini hicobga olib vazifalarni optimal tarzda taqsimlashga undaydi. Faollikni rag\_batlantiradi, tashabbusin quvvatlaydi. Muloqotning asosiy shakli - iltimos, maslahat, axborot tarzida bo'ladi.

Liberal uslub. o'qituvchi jamoa faoliyatiga aralashmaslikka harakat qiladi, faollik ko'rsatmaydi, maslahatlarga formal qaraydi, turli ta'sirlarga tez beriladi. Javobgarlikdan o'zini olib qochadi.

Eng yaxshi uslub - demokratik uslub. Miqdoriy ko'rsatkichlar avtoritar uslubdan kam bo'lishi mumkin, lekin ishlash ijtiyoqi rahbar yo'g\_ida ham davom etadi. Ijodkorlik yuqori bo'ladi, javobgarlik hissi, o'z jamoasi uchun faxrlanish rivojlanadi. Eng yomon uslub - liberal uslub bo'lib, bunda ham ish kam bajariladi, ham sifat yomon bo'ladi.

Avtoritarizm o'qituvchi yetukmasligini, uning axloqiy va siyosiy tarbiyasizligini, pedagogik madaniyati pastligi bilan xarakterlanadi.

O'qituvchilar maktab amaliyotida axloq tarbiyasida qo'llashi mumkin bo'lgan quyidagi asosiy pedagogik uslub turlari mavjud:

- Tarbiyaviy maqsadni amalga oshirishga demokratik yondoshish, tarbiyaviy ishlar natijasini oshkora muhokama qilish va uni o'quvchilar bilan birgalikda baholab, kelgusi rejalarni to'zishni taqozo etadi. Bu uslub pedagog - o'qituvchi - o'quvchilar kollektivi shaxslararo munosabatlarni erkinlik, demokratik talablar asosida shakllantirib, o'quvchilarning tashabbuskorligi, o'z-o'zini tarbiyalash ishiga ijodiy yondashish orqali barcha psixologik- individual imkoniyatlarini, qobiliyatini ruyobga chiqarishga zamin yaratadi.

- O'quvchilar bilan do'stona munosabat - pedagogik uslub. U o'quvchi shaxsini hurmat qilish va talbchanlik mezonini asosida qurilgan. Ushbu uslub asosida o'z faoliyatini tashkil etgan pedagog har o'quvchining kelajagiga umid bilan qarashi, unga individual yondoshishga harakat qilishi, jazo usullarini tartibsiz qo'llamasligi, o'quvchilar kollektivi oldiga istiqbolli tarbiyaviy maqsad qo'yishga intilishi lozim. Aslida bu uslub biz ko'rib o'tgan birinchi uslubga utishga zamin tayyorlashi, unga muqaddima bo'lishi mumkin. Aksincha, o'qituvchi ma'lum pedagogik mohiyatga ega bo'lishga intilmasa, o'z fanidan bilimi sayoz bo'lsa, shaxslararo munosabatlarga ijodiy yondoshmasa, kommuniaktiv qobiliyatini takomillashtirib bormasa o'quvchilar uni "katta birodar", "konsultant" sifatida asta-sekin tan olmay qo'yishadi. Pedagog o'zining tarbiyaviy ishlarini amalga oshirishdagi yetakchilik rolini yukotib, o'quvchilar hurmatini yengil yo'l bilan qozonmoqchi bo'lgan bachkana shaxsga aylanib qolishi mumkin.

- Pedagogik muomala – masofa uslubi. Bundan tajribali pedagoglar ham, faoliyatini endi boshlagan yosh o'qituvchilar ham foydalanishiga harakat qilishlari mumkin. o'qituvchilar asosan pedagogik talabga tayanadilar: o'quvchilar oldiga ma'lum tarbiyaviy maqsadlarni qo'yib, uni bajarilish jarayonini ko'zatish, xatolarini to'zish, baholash bilan mashg'ul bo'ladilar. Bunday pedagoglar o'qitayotgan sinflarda tarbiyaviy maqsadlar nomigagina amalga oshiriladi, tarbiyaviy tadbirlar o'quvchilarda hatti-harakat motivlari, rivojlanish ehtiyojlarini shakllantirmaydi. Nari borsa, sinf o'quvchilari ahloqiy bilimlarni o'zlashtirib olishlari mumkin. Lekin bu xil bilimlar amaliyotda kam qo'llaniladi.

- qo'rquvga asoslangan uslub. Bundan odatda yosh, tajribasiz o'qituvchilar foydalanishiga harakat qiladilar. Ushbu uslub asosan taqiqlashga tayanadi. Bolalar faolligi, tashabbuskorligi inkor etiladi. Bu uslub maktab islohoti manfaatlariga mutlaqo mos emas.

Muomala jarayonida va hamkorlik faoliyatida o'qituvchining talabalarga ta'sir o'tkazish natijasida ularda:

- o'z-o'zini va o'zgalarni hurmat qilish;
- o'z-o'zini va boshqalar faoliyati, xulqini baholash;
- o'z-o'zini nazorat va o'zgalarni nazorat qilish;
- o'z-o'zini boshqarish (ham bilish faolyaitida, ham xulq atvorda);
- o'z-o'zini takomillashtirish va yangi fazilatlarini egallash shakllanadi.

Do'stona muomala talaba bilan o'qituvchi o'rtasidagi bilimlarni puxta o'zlashtirishni ta'minlaydi va mukammal shaxsiy fazilatlarini tarkib toptirishga xizmat qiladi. Pedagogik jarayonda sodir bo'ladigan muomala odobi muallimning ahloqiy madaniyati,

tarbiyalanganlik darajasi aks etadi. Muallimning pedagogik kasb egasi sifatida o'ziga o'z kasbiga, o'quvchilarga bo'lgan munosabati uning muloqotida yaqqol namoyon bo'lishi mumkin.

Pedagogik jarayondagi aloqalar tizimida o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi muomala - munosabatlar katta o'rin egallaydi. Bu jarayonda bola insoniyat asrlar davomida to'plangan bilimlarni axloqiy tajribani egallab oladi. Muallimlik pedagogik jarayonda yetakchi kishidir. Unga yosh avlodni ukitish va tarbiyalash vazifasi yuklatilgan. Shuning uchun ham o'qituvchiga, uning axloqiy sifatlari xulqiga, o'quvchilar bilan muomalasiga nisbatan alohida, yuksak talablar qo'yiladi. Muallim hayotga endigina kirib kelayotgan barkamol shaxs sifatida shakllanayotgan insonlar yosh bolalar bilan muloqotda bo'ladi.

**O'QUVCHILARDA AQLIY TARBIYANI SHAKLLANTIRISHNING MAZMUN-MOHIYATI****Yusupjanova Zuhraxon Yuldashevna***Andijon viloyati Qo`rg`ontepa tumani**44-umumiy o`rta ta`lim maktabi**boshlang`ich sinf o`qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Maqolada yosh avlodni barkamol shaxs qilib shakllantirishda aqliy tarbiyaning o`rni va roli, uni shaxs kamolotining asosiy tayanchi ekanligi ochib berilgan. Bunda tarbiyaning bu turi o`quvchi uchun nechog`li zarur ekanligi ilmiy jihatdan asooslangan.*

**Kalit so`zlar:** *aqliy tarbiya, aqliy ta`lim, malaka, ko`nikma, ilmiy qarash, idea, g`oya, ilmiy tafakkur.*

Yosh avlodni jamiyatga yetuk shaxs qilib shakllantirishda aqliy tarbiya eng muhim omillardan sanaadi. Aqliy tarbiya shaxsga tabiat va jamiyat taraqqiyoti to`g`risidagi bilimlarni berish, uning aqliy (bilish) qobiliyati, tafakkurini shakllantirishga yo`naltirilgan pedagogik faoliyat bo`lib, uni samarali yo`lga qo`yish asosida dunyoqarash shakllanadi.

Bugungi kunda, O`zbekiston Respublikasida yoshlarga aqliy tarbiyani berishga alohida e`tibor qaratilmoqda. 1997- yilda O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida qabul qilingan O`zbekiston Respublikasining «Ta`lim to`g`risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» mazmunida ham yuksak ma`naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo`nalishlaridan biri ekanligiga urg`u beriladi. Yuksak ma`naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadr bo`lib yetishish mavjud ilmiy, shuningdek, kasbiy bilimlarni puxta egallash demakdir. Binobarin, chuqur bilimlarga ega bo`lish tabiiy hamda ijtimoiy jarayonlarning mohiyatini anglash, ularning ijobiy va salbiy jihatlarini ko`ra va baholay olishga imkon beradi.

Aqliy tarbiya o`quvchilarni ilm-fan, texnika, texnologiya hamda ishlab chiqarish sohalarida qo`lga kiritilayotgan yutuqlar bilan tanishtirish, ularda ijodiy, erkin, mustaqil fikrlash ko`nikmalarini hosil qilishga zamin yaratadi.

**Aqliy tarbiya jarayonida quyidagi vazifalar hal etiladi:**

Tarbiyalanuvchilarga ilmiy bilimlarni berish.

1. Ularda ilmiy bilimlarni o`zlashtirishga nisbatan ongli munosabatni qaror toptirish.
2. Mavjud bilimlardan amaliyotda foydalanish ko`nikma va malakalarini tarkib toptirish.
3. Bilimlarini doimiy ravishda boyitib borishga intilish tuyg`usini shakllantirish.
4. Bilimlarni o`zlashtirishga yordam beradigan psixologik qobiliyatlar (nutq, diqqat, xotira, tafakkur, ijodiy xayol) va xususiyatlar (aniq maqsadga intilish,



qiziquvchanlik, kuzatuvchanlik, mustaqil fikrlash, ijodiy tafakur yuritish, o'z fikrini asoslash, mavjud ma'lumotlarni umumlashtirish, guruhlashtirish, mantiqiy xulosalar chiqarish va hokazolar)ni rivojlantirish.

Aqliy ta'lim va tarbiya birligi asosida tafakkur (ijtimoiy voqea-hodisalarning ongda to'laqonli aks etishi, inson aqliy faoliyatining yuksak shakli) rivojlanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mavlonova R., To'raeva O., Holiqberdiev K. Pedagogika. -T.: O'qituvchi, 2001.
2. Pedagogika A.Q.Munavvarovning tahriri ostida. -T.: O'qituvchi, 1996.-200b.
3. Pedagogika tarixidan xrestomatiya. Tuzuvchi: O.Hasanboeva, T.: O'qituvchi, 1990.
4. Pedagogika. O'quv qo'llanma. A.Munavvarov tahririda. T., «O'qituvchi», 1996, 86-102-b

**МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ЁШИДАГИ БОЛАЛАРНИ ИЖОДИЙ ФАОЛИЯТГА  
ЎРГАТИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ****Абдуназарова Обидахон Абдулҳаким қизи****Рисқулова Гулноза Содиқовна***Андижон вилояти Хонобод шаҳри**7-ДММТ тарбиячилари*

Ижодий фаолиятга ўргатиш фанининг асосий мақсади мактабгача таълим муассасаларида болалар ижодига раҳбарлик қилиш учун амалий билим ва кўникмалар бериш. Ўзбекистон Республикасининг «Таълим тўғрисидаги Қонуни» ва «Мактабгача таълим концепцияси» асосида МТМ да ижодий меҳнат тарбиясини тўғри йўлга қўйиш, болаларни кул меҳнати фаолиятига раҳбарлик қилишдан иборатдир. Ижодий фаолиятга ўргатиш фанининг вазифаси МТМда болаларни қўл меҳнатига бадий меҳнатга қизиқишларини уйғотиш, меҳнат орқали ҳосил бўлган кўникма ва малакаларини шакллантириш; мактабгача ёшдаги болаларда меҳнатга нисбатан муҳаббатни тарбиялаш ва касбга йўналтириш; болаларда ижодий кўргазмалар, ўйинлар учун атрибутлар ясашга хоҳишларини уйғотиш; қоғоз, картон каби материалларнинг хусусиятлари билан таништириш; меҳнат қилиш маданияти малака ва кўникмаларини тарбиялаш; буюмларни тайёрлаш жараёнини режалаштириш, тайёрлаш технологиясини ўргатиш, маҳсулотни тежаш, буюмлари қораламасининг эскизини ва суратини чизишга иш жойларини тартибли сақлашга ўргатиш; болаларни буюмлар ясаш жараёнида оддий асбоблардан фойдаланишга ўргатиш ҳамда бадий дидларини шакллантиришга, вақтни тежай олишга, мақсадга мувофиқ ишлашга одатлантиришдир. Ижодий қобилият боланинг онгини, тафаккурини ўстиришга хизмат қилувчи омилдар. Бу қобилият инсонга нафақат ҳаёти давомида қўл келиши ва ундан фойдаланиши мумкин, балки унинг кўринишини ўзгартириши ҳам мумкин. Болалар ижодиёти ва унинг ўзига хос томонларини тушуниш педагоглардан кўпгина билимларга эга бўлишни талаб этади. Педагог санъатда бу фаолият қандай характерга эга, расом бадий образни яратиши учун қандай воситалардан фойдаланаяпти, унинг ижодий фаолиятининг босқичлари қандай деган саволларга жавоб бера олиши керак. Болалар атроф-олам билан таниша бориш жараёнида уларни ўз фаолиятларида яъни ўйинларида, чизган расмларида, лой ишларида, ҳикояларда ва ҳоказоларда акс эттирадилар. Болалар тасвирий фаолиятда атроф-оламдан олган тасвурларини, тасаввурларидаги тимсолларни турли-туман материаллардан ва аниқ шакллар ёрдамида тасвирлашга ҳаракат қиладилар. Болалар ижодиётида ижодий фаолиятнинг бошланғич босқичида ўзига хос характер хусусиятлари мавжуд. Буларга аввал ўзлаштирилган иш усулларини янгича мазмунда қўллашда, олдинда турган вазифаларни янги усуллар орқали ечишни, ўз хис-туйғуларини турли воситалар ёрдамида ифода этишларида фаол ва мустақил иштирок этишлари киради. Атроф-оламни болалар тасвирий фаолиятида тушуниш ижодий кўринишлар билан боғлиқ эмас, балки бола ишлаётган, кўрсатаётган материалнинг таркибини аниқлаш орқали

намоён бўлади. Масалан: қалам ва бўёқалар қоғозда из қолдирадилар, лой юмшоқ ундан нарсалар яшаш мумкин. Кейинчалик тасвирий фаолият ва изланишларни ривожлантириш учун бу босқич кичик аҳамият касб этади, чунки бола бунда тасаввурларидаги тимсолни яратиш учун ёрдам берадиган материал билан танишади. Қаламдан қоладиган из ниманидир ифодалашини тушунадиган бола ўз хоҳиши ва катталарнинг таклифига кўра қандайдир предметни тасвирлашга ҳаракат қилса, унда боланинг фаолияти тасвирий характер тусини олган бўлади. Болада фикр, мақсад бўлиб, уларни намоён этишга ҳаракат қилади. Шу тариқа ижодий жараённинг биринчи босқичи фикрнинг пайдо бўлишибола фаолиятида ҳам ҳосил бўлади. Рассомда фикрнинг пайдо бўлиши билан одатда мазмунини ва бажариш воситаларини ўйлаб боради, иш учун одатда узоқ вақт керак бўлади, болада эса кўпинча бу босқичнинг ҳосил бўлиши кузатилмайди. Бола қанчалик кичик бўлса, у шунчалик ўйлаган нарсасини тез тасвирлашга ҳаракат қилади. У ҳали ўз ишининг натижасини ва уни бажариш йўлини олдиндан кўра олмайди. Аввалдан ўйлаб кўриш ва ишни режалаштириш тасвирлаш жараёни билан биргаликда амалга оширилади. Шунинг учун ҳам болалар ижодиётида фаолиятлар жараёнида иш мазмунини ўзгартириш ҳоллари тез-тез учраб туради. Бола тасвирлаётган расмдаги тимсолларга умуман тааллуқли бўлмаган деталларни киритиши мумкин. Болаларнинг тасвирий ижодиётининг ўзига хос томонларини ўрганиш учун педагогика тарихида бир қатор педагогик ва психологик тадқиқот ишлари олиб борилган. Болаларда ижодий қобилиятларнинг ривожланишида тасвирий фаолият туркумига кирувчи машғулотларнинг ўрни беқиёс эканлигини эътироф этган ҳолда бундай машғулотлар уларда тасвирий саводхонлик элементларини шакллантирилишига ҳам тамал тошини қўйиши шубҳасидир.

**МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ЁШИДАГИ БОЛАЛАРНИ МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТЛАР  
АСОСИДА ТАРБИЯЛАШ****Мамасолиева Гулсумой Акбаржон қизи***Андижон вилояти Қўрғонтепа тумани**7-ДМТТ тарбиячиси***Содиқова Иродаҳон Фозилжон қизи***Андижон вилояти Қўрғонтепа тумани**2- ДМТТ тарбиячиси*

Бугунги кунда мактабгача таълим тизимини янада такомиллаштириш, моддий-техника базасини мустаҳкамлаш, малакали педагог кадрлар билан таъминлаш, болаларни мактаб таълимига тайёрлаш даражасини тубдан яхшилаш, таълим тарбия жараёнига замонавий таълим дастурлари ва технологияларини тадбиқ этиш, болаларни ҳар томонлама интеллектуал, ахлоқий, эстетик жисмоний ривожлантириш учун шарт-шароитлар яратилмоқда. Мактабгача таълим ёшидаги болалар психологиясида жуда тез сифат ўзгаришлар бўлади. Бола ривожланиш жараёнида ўз аждодлари томонидан яратилган ижтимоий тажрибани ўзлаштиради, атроф-муҳитдаги нарса ва ҳодисалар билан мулоқотга киришади. Бу болада фаолият майлларининг ривожланиши ёрдамида амалга ошириладиган хатти-ҳаракатлар, тил одамлар орасидаги муносабатларни эгаллаб олиш, қобилиятларнинг ўсишида намоён бўлади. Мактабгача таълим ташкилотларида таълим-тарбия жараёнларини ташкил этишда миллий қадриятларга таяниш орқали биз тарбияланувчиларда ўз ватанлари тўғрисидаги билимларини ва ватанпарварлик туйғуларини шакллантираемиз. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 31-декабрдаги “Узлуксиз маънавий тарбия концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 1059-сон Қарорида ҳам маънавий тарбияни узлуксиз равишда олиб бориш белгиланган бўлиб, ёш авлодда мустақил ва бахтли ҳаёт учун зарур ижтимоий малака ҳамда фазилатларни ёшига мос, босқичма-босқич шакллантириш кўрсатилган. Узлуксиз маънавий тарбия концепциясида мактабгача таълим ёшидаги болаларда куйидаги фазилатларни шакллантириш белгиланди: ўз туйғуларини бошқариш кўникмаларини ривожлантириш, ўз хатти-ҳаракатларини ахлоқий бошқариш кўникмаларининг юзага келиши, шахсий фазилатлар асосларини пайдо бўлиши, ижтимоий мотивлар ва миллий анъаналарга қизиқишнинг пайдо бўлиши, ўзини намоён қилишга интилиш, муваффақиятга эришиш эҳтиёжларининг туғилиши, ўзига ўзи баҳо бериш, теварак-атрофдагиларга маънавий-ахлоқий муносабатнинг пайдо бўлиши, нутқ асосида маънавият асосларининг ривожланиши инobatга олиниши келтирилган. Шу билан бирга концепцияда бола тарбиясида миллий тарбия усуллари ва замонавий педагогларнинг илғор ютуқларидан самарали фойдаланиш орқали миллий ва умуминсоний қадриятларни ўргатиш берилган. Мактабгача таълим ёшидаги болаларнинг эҳтиёжлари ва қизиқишлари жадал равишда ортиб боради. Бу, аввало, кенг доирага чиқиш, муносабатда бўлиш, ўйнаш

эҳтиёжларининг мавжудлигидир. Шуларни инобатга олган ҳолда мактабгача таълим ташкилоти тарбияланувчиларини миллий қадриятлари камол топтирилади. Абу Наср Форобий ўзининг “Фозил одамлар шахри” асарида инсон ҳаётида таълим тарбиянинг ўрнига тўхталар экан “Таълим сўз ва ўргатиш билан бўлади. Тарбия эса амалий иш ва ўрганиш билан бўлади” деб таъкидлайди. Демак, мактабгача таълим ташкилотларида биз тарбияланувчиларга миллий қадриятларга содиқлик руҳида тарбиялашда амалий фаолият ўрнатиб бўлиш, кўрсатиб бериш каби воситалардан кенг фойдаланишимиз керак. Мактабгача ёшдаги бола тор доирадан кенгроқ доирадаги муносабатларга интила бошлайди. У энди кўни-кўшнилари билан болалари билан ҳам жамао бўлиб ўйнашга ҳаракат қилади, ҳамма нарсани билиб олгиси келади, ҳар нарсани янгилик сифатида кўриб, буни ҳар томонлама билиб олишга интилади.

Мактабгача таълим ташкилотларида тарбияланувчиларнинг миллий қадриятлар асосида тарбиялашда қуйидагиларни инобатга олиш лозим:

- тарбиячилар амалга оширадиган машғулотларида миллий қадриятларимиз намуналари (халқ эртаклари, дostonлар, миллий урф-одатлар) кенг фойдаланиш;

- мактабгача таълим ташкилотида буюк алломаларимиз, саркардалар, ва миллий эртақ қаҳрамонларининг суратларини билан безатиш;

- мактабгача таълим ташкилотларида мунтазам равишда миллий қадриятларимизни тараннум этадиган маънавий-маърифий тадбирларни ташкил этиш;

- тарбияланувчиларни музейларга ва тарихий меъморий обидаларга саёҳатга олиб бориш.

Хорижий давлатлар илғор тажрибасининг таҳлили замонавий мактабгача таълим ташкилотларида мактабгача ёшдаги болаларни ривожлантириш учун шароитларни яратишга йўналтирилганлиги билан тавсифланиб, боланинг ижобий ижтимоийлашуви имкониятларини намоён қилиш, унинг ҳар томонлама шахсга оид маънавий-ахлоқий, онгли ривожланиши, мактабгача ёшга оид тегишли фаолият турлари асосида ташаббускорлиги ва ижодий қобилиятларини ривожлантиришга, мулоқот доирасида катта ёшдагилар, тенгдошлари билан ҳамкорлик қилиш имкониятларини ўзида кўрсатиши исботланган.

Демак, мактабгача ёшдаги болаларга миллий тарбияни сингдириш, келажакда унинг ҳар томонлама вояга етишида асос, дастури амал бўлиб хизмат қилади.

**ZAMONAVIY AXBOROT TEXNLOGIYALARINING QO'LLANILISHI VA  
TA'LIMDA SIFAT DARAJASINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI****Mavlanova Oydin Taxirovna***Samarqand viloyati Paxtachi tumani**Ziyovuddin shaharchasi Toshko 'prik MFY*

**Annotatsiya:** *Ta'lim soxasida pedagogik va axborot – kommunikatsiya texnologiyalardan, internet axborot ta'lim resurslaridan hamda konferensiya usulidan foydalanish o'quvchilarining olayotgan bilimlarni yuqori saviyada bo'lishida samarali yordam beradi va ularning kelgusida malakali mutaxassislar bo'lib chiqishiga imkoniyat yaratadi.*

**Kalit so'zlar:** *Zamonaviy axborot texnologiyalari, mustaqil ta'lim, texnologiyalar.*

Zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari o'qitishning yangi shakl va metodlarini ishlab chiqish uchun keng imkoniyat yaratildi. SHu bilan birga, axborot kommunikatsiya texnologiyalarini chuqur o'rgatish, o'quvchilarni katta xajmdagi ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash va mustaqil ishlash muammosi yuzaga kelmoqda. Maktabdan kasb-xunar kollejiga o'qishga kelgan ko'po'quvchilar mustaqil fikrlash va ishlash bo'yicha yetarlicha ko'nikmaga ega emas. Ayrımlari bilim olishga qiziqishlari juda past. Qobiliyatli, izlanuvchan hamda ijodkorlikka ishtiyoqi bor farzandlarimizni o'zi qiziqqan axborotkommunikatsiya texnologiyalari yo'nalishida chuqurlashtirilgan saboq olishi, ularni kelajakda albatta yuksak malakali mutaxassislar bo'lib yetishshishlarida asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Ma'lumki, Respublikamizning barcha ta'lim muassasalari o'quv jarayonida o'qitishning zamonaviy shakllari va usullarini qo'llash, ta'lim tizimida axborot texnologiyalardan unumli foydalanish, ular yordamida ta'lim tizimini talab darajasiga etkazish ustida bir qancha ishlar olib borilmoqda. O'quv jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning quydagi imkoniyatlarini keltirish mumkin:

O'qituvchiga o'quv materiallarini ta'lim oluvchilarga etkazib berishda birmuncha engillashtirilishi;

Dars jarayonida berilayotgan o'quv materiallarning takroriy holda namoyish qilish imkoniyatining mavjudligi;

Ta'lim oluvchilar o'zlashtirish darajasining yuqori bo'lishiga erishish;

Multimediali elektron darsliklar tarkibida ko'rgazmali virtualstendlar tashkil qilish imkoniyati;

Amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini video, audio va animatsiyali vositalar orqali qiziqarli tashkil qilish imkoniyati;

Tavsiya qilingan o'quv materiallaridan ommaviy tarzda foydalanish, ya'ni tarmoq texnologiyalari yordamida bir yoki bir nechta auditoriyada va guruhlarda foydalanish imkoniyatining mavjudligi;

O'quv materiallari ma'lumotlar bazasini tezkor ravishda o'zgartirib, yangi axborot zaxiralarini kiritish imkoniyatining mavjudligi;

Amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari mobaynida ma'ruza materiallariga o'tish imkoniyatining yaratilishi;

Masofadan o'qitish uchun asosiy vositalardan biri sifatida foydalanish imkoniyati;

Bunday imkoniyatlarga ega bo'lgan o'quv materiallarini o'quv jarayoniga tadbiiq etish, bir vaqtning o'zida ta'lim oluvchilarga o'quv materiallarini ko'rish, o'qish, eshitish, mulohaza qilish va qayta-qayta takrorlab o'z bilimlarini oshirish imkoniyatlarini yaratadi. Axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llanilishi, ayniqsa multimediali vositalardan foydalanish o'quv jarayoninig didaktiv ko'rinishda tasvirlash uchun juda katta imkoniyatlar yaratadi. O'quv jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishda elektron darsliklarning alohida o'rni mavjud. Elektron darslik - kompyuter va axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan o'quv uslubini qo'llashga, mustaqil ta'lim olishga hamda fanga oid o'quv materiallar, ilmiy ma'lumotlarning har tomonlama samarador o'zlashtirilishiga mo'ljallangan elektron o'quv adabiyoti hisoblanadi. Ta'lim tizimida o'quv jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilsa ta'lim-tarbiya jarayoni jadallashtiriladi Ta'lim sifatini oshirishda amalga oshirilayotgan ishlar xaqida gap ketganda, ta'lim berish jarayonini ezgulik ko'prigiga o'xshatamiz, bu ko'prikdan o'quvchilarimizni bilimli, dunyoqarashi keng qilib olib o'tish ustozni, ya'ni o'qituvchilarni vazifasi deb bilamiz. Darslarning nazariy va amaliy qismida o'quvchilarning qiziqishini oshirish uchun pedagogik texnologiyaning samarali usullaridan foydalanib, kichik guruhlarga bo'lingan xolda olib boriladi. Mashg'ulotlarni olib borish jarayonini kuzatib borish va kerakli maslaxatlar berish kichik guruhlarda darslarni samarali o'tilishiga yordam beradi. O'z kasbini ustasi bo'lgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasining yetuk mutaxassislari bilan uchrashuvlar tashkil etish, ular xaqida o'quvchilarga so'zlab, savollarga xayotiy misollar keltirish bilan javob beriladi. Buning uchun faqat o'qish, o'rganish kerakligi xaqida maslaxat beradi. Bunday malakali mutaxassislar bilan uchrashuvlar, baxs- munozaralar tashkil etish ham o'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishlarini orttiradi. Ota-onalarda farzandini yuksak ma'naviyatli, bilimli, komil inson etib voyaga yetkazish istagini yanada kuchaytirish zarur.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <http://library.ziyonet.uz/>
2. <https://sputniknews-uz.com/>

THE SECRETS OF SUCCESS

Ibraimova Go'zal

Termez State University foreign language and  
literature student

**Annotation:** *In this article There are people who have had a lot of success in their lives.*

**Introduction:** *This article is about some of the most important secrets to success in life, It should be noted that our ancestor Amir Temur conquered the whole world.*

Assalamualaikum dear peers.

This article is about some of the most important secrets to success in life.

There are people who have had a lot of success in their lives.

To give you an example, they make up the majority.

It should be noted that our ancestor Amir Temur conquered the whole world, you know, saints, he was a man like us and achieved such success due to his hard work. We have heard not only about our grandfather Amir Temur, but also about the success of hundreds of thousands of people. The question is, how did they do it? Many researchers have done research on this topic. For example, one such researcher, ROBINSHARMA, a personality development specialist, has achieved a lot due to his research on this topic.

I would like to summarize the most important rules of success in Roben Sharma's work below, and I believe that this information will be of some benefit to you on your path to success.

Rule 1: Sleep less.

We know that 6 hours of sleep is enough for human health, you should try to wake up earlier every day for 21 days and gradually it will become your regular habit. Getting less sleep can make your life more productive and meaningful.

Rule 2: Write down your thoughts.

During the day, we come up with great ideas. We definitely need to carry a side notebook to write them down. Keep a side notebook with your thoughts in a visible place and review them from time to time As Oliver Wendel puts it, the human brain, expanded by new ideas, never returns to its previous size.

Rule 3: A method of self-assurance.

This method has been used by great statesmen, athletes and people who have achieved total success. You can also use this method. For example, if you want to be enthusiastic and courageous, repeat "I am zealous and courageous" many times, if necessary, write it 500 times, do these exercises for 3 weeks and change the changes in yourself. don't worry if the expected result doesn't happen quickly, it will happen soon. Because your brain starts to do your homework.

Rule 4: Communicate with helpful people.



Stay in touch with people who can help you learn something that doesn't overwhelm your energy with nonsense. By constantly interacting with people who are working on their development, you will be able to reach the peak you want to conquer.

As the American writer Richard Box put it, if you want to have something you never had, start doing something you never did. That's the way to become successful. I'm just happy to contribute a little bit to your success with this article.

Take a step now towards a successful life.

**REFERENCES:**

1. Abdulla Sher “Axloqshunoslik” Toshkent 2008
2. Fox K(2014) Watching the English, The Hidden Rules of English Behaviour , UK.
3. Mahmudov N.Speech standart of techers Toshkent National Library of O'zbekistan named after Alisher Navoiy (2006) P-25
4. Rustamov A. Word about a word – Tashkent: Extremum Press (2010)P-4

**INTERNET PUBLICATIONS:**

1. Ziyonet.uz
2. Arem.uz
3. Terdu.uz

## TA'LIM TIZMIDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA

**Qosimova Dilbarxon Ro'ziboyevna***Farg'ona Politexnika institute**O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi*

**Annatsiya:** *Yangilangan ta'limda o'quvchining yuragidagi cho'g'ni alanga oldirish, uni xar tomonlama rivojlantirish, bilimdan – bilimga yetaklab olib chiqish uchun ananaviy darslar va pedagogik texnologiyalar.*

**Kalit so'zlar:** *yangilangan ta'lim, pedagogik texnologiya, zamonaviy ta'limga oid ensiklopediyalar, Vatanga mehr – muhabbat, insonparvarlik.*

Hozirgi ta'lim tizimida pedagogik texnologiyalar, ta'lim texnologiyasi, o'qitish texnologiyasi kabi iboralar tez-tez tilga olinmoqda. Bugungi kungacha pedagogik adabiyotlarda, ta'lim muammolariga oid ma'ruzalar, rasmiy xujjatlarda <<yangi pedagogik texnologiya>>, <<ilg'or pedagogik texnologiya>>, <<zamonaviy ta'lim pedagogikasi>>ga oid tushunchalari hali ham bir qolipga tushirilmagan, ensiklopediyalarda izoxlanganicha yo'q, uning mazmunini yagona talqini ishlab chiqilmagan va shuning uchun bu iboraning bir – biridan farqlanuvchi ko'pgina ta'riflari mavjud.

Pedagogik texnologiyalarda didaktik o'yinlar texnologiyalari bolalar faoliyatini faollashtirish va jaallashtirishga asoslangan. Ular bolalar shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish va rivojlantirishning amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega. Didaktik o'yinlarning asosiy turlari: intellektual (aqliy) va harakatli hamda aralash o'yinlardan iborat. Bu o'yinlar ishtiroklarida aqliy, jismoniy, axloqiy, psixologik, estetik, badiiy, tadbirkorlik, mehnat va boshqa ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Pedagogik texnologiya – shunday bilimlar sohasiki, ular vositasida uchinchi ming yillikda davlatning ta'lim soxasidagi siyosatida tib burilish yuz beradi, o'qituvchi faoliyati yangilanadi, o'quvchi va talaba yoshlarda hurfikirlik, bilimga chanqoqlik, Vatanga mehr-muhabbat, insonparvarlik tuyg'ulari shakillantiriladi.

Dastlab **“texnologiya”** tushunchasiga oydinlik kiritaylik. Bu so'z texnikaviy taraqqiyot bilan bog'liq xolda fanga 1872-yilda keldi va yunoncha ikki so'zdan **“texnos”** - san'at, mahorat, hunar va **“logos”** – fan so'zlaridan tashkil topib **“hunar fani”** ma'nosini anglatadi.

Pedagogik texnologiya – bu o'qituvchining ta'lim – tarbiya vositalari yordamida o'quvchilarga muayyan sharoitda ta'sir ko'rsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxsiy sifatlarni shakillantirish jarayonidir.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol uslublar ( innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanib, ta'limning samaradorligini ko'tarishga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundand- kunga kuchayib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar qo'llanilganda pedagoglar egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgan. Pedagog bu

jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi. Shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchi vazifasini bajaradi. Bunday o'quv jarayonida pedagog asosiy figuraga aylanadi.

O'zbekistonda 1997-yili kadrlar tayyorlash Milliy dasturi qabul qilingandan boshlab ta'lim tizimida, pedagogik nashrlarda pedagogik texnologiyalar muammolari dolzarb tadqiqotchilik ob'ektlari sifatida ko'tarila boshlandi.

Bugungi kunda axborot texnologiyalari jamiyatimiz rivojlanishiga ta'sir etuvchi eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Axborot texnologiyalari insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida ham mavjud bo'lib, hozirgi zamon axborotlashgan jamiyatning o'ziga xos xususiyati shundaki, axborot texnologiyalari barcha mavjud texnologiyalar, xususan yangi texnologiyalar orasida yetakchi o'rin egallamoqda.

Axborot texnologiyasi va texnik vositalar samarasini belgilaydigan didaktik materiallardan keng foydalanish Pedagogik texnologiyalar larning asosiy belgilaridan biridir. Milliy dasturda ta'lim-tarbiya jarayonini boshqarishning bu muhim vositasiga alohida urg'u berilgan.

Axborotli vositalar (kompyuter, elektron aloqa, radio, televideniye) dan foydalanish darajasi ikki omil bilan aniqlanadi:

1. O'quv jarayoni uchun axborotli vositalar samara beradigan mavzular yuzasidan didaktik materiallarni ishlab chiqish.

2. Pedagoglarning o'z amaliy faoliyatlarida texnik vositalar va didaktik materiallardan metodik jihatdan to'g'ri foydalana olish tayyorgarligini tekshirish.

Pedagogik texnologiyaning asosiy elementlari quyidagilardan iborat:

1. Pedagogik muloqot texnologiyasida o'qituvchi (pedagog)ning o'quvchi-talabalar bilan muloqoti.

Muloqotning vazifalari:

- shaxsni tanish, axborot almashish;
- kelgusi pedagogik muloqotni modellashtirish va tahlil etish;
- muloqotdan olgan tasavvurlari;
- muloqot yuzasidan fikrlashi;
- pedagogik muloqotni tashkil etish texnikasi;
- ishga ijodiy yondashishi.

2. Pedagogik talab texnologiyasi.

- «pedagogik talab» tushunchasi, uning o'ziga xos xususiyatlari;
- xulq-atvor va ijtimoiy madaniy qoidalarning namoyon bo'lishi;
- o'quvchi-talabaga bo'lgan hurmat va talab;
- pedagogik talabning psixologik tamoyillari va mezonlari.

3. Baholash texnologiyasi, pedagogik baho va belgilash.

- xatti-harakatlardan olgan taassurot, voqelikni, obyekt va subyektni qabul qilish;  
 - baho berish usullarini tanlash o'qituvchi (pedagog) o'z imkoniyatini tahlil etishi, ta'sir samaradorligini oshirishi);

- pedagogik baholash texnologiyasi.

4. Axborotning ta'sir ko'rsatish texnologiyasi.

- nutqiy-axborot berish, «ratsional axborot berish» tushunchalari, namoyishli va ko'rgazmali axborot olish vositalaridan biri sifatida;

- nutqiy ta'sir etish, suhbat, hamkorlik, tezis, argument, ko'rgazma obrazi;

- nutqiy ta'sir etish texnologiyasi;

- namoyish va ko'rgazmali vosita, iqtisodiy, etik, estetik, gigiyenik materiallar;

- qabul qilishning fiziologik va psixologik xususiyatlarini namoyyish qilish texnologiyasi.

5. Pedagogik materiallarni yaratish va uni yechish texnologiyasi.

- pedagogik konflikt tushunchasi – konflikt pedagogik texnologiya elementi sifatida, konflikt subyektlari orasida qarama-qarshiliklar tavsifi sifatida, bo'sh va mazmunli konflikt;

- holat tahlili (voqeani aniqlash);

- konflikt;

- konfliktning xilma-xilligi (norozilik, qarshi chiqish);

- konfliktni yechish shakllari (yumor, hazil, toifa).

Pedagogik texnologiyalar ning qo'shimcha elementlari:

1. Psixologik muhit yaratish texnologiyasi.

2. Guruh faoliyatini tashkil etish texnologiyasi.

3. Muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsiz holatlarni tashkil etish texnologiyasi.

4. O'quvchining xatti-harakatiga pedagogik reaksiya qilish texnologiyasi.

5. Xulqi va odobi yomon o'quvchi-talabalar bilan ishlash texnologiyasi.

6. Etik himoya texnologiyasi.

7. Muammoli vaziyatlar yaratish texnologiyasi.

8. Pedagogik vosita texnologiyasi.

9. Pedagogik improvizatsiya texnologiyasi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. J.Yo'ldoshev, S.Usmonov, "Pedagogik texnologiya asoslari", T., 2004.

2. J.Yo'ldoshev, "Ta'lim yangilanish yo'lida", T., 2000.

3. Ptuyukov V.Yu., "Osnov pedagogicheskoy texnologii", M., 1999.

4. [www.tests-tests.com](http://www.tests-tests.com)

5. [www.psiholog1.ru](http://www.psiholog1.ru)

**МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ЁШИДАГИ БОЛАЛАРНИ ҚАЙТА ҲИКОЯ  
ҚИЛИШНИ ЎРГАТИШ МЕТОДИКАСИ**

**Болтабоева Дилафруз Рустамовна  
Олимова Саломатхон Ибрагимовна**

*Пахтаобод тумани педагогика  
коллежи ўқитувчилари*

Қайта ҳикоя қилиш — ҳикоя қилишнинг биринчи тури ҳисобланади. Қайта ҳикоя қилиш тингланган бадиий асарларни маъноли оғзаки нутқда такрорий айтишдир. Қайта ҳикоя қилиш болалар бадиий нутқининг ривқжланишига, эмоционал ва образли сўзларни танлашига ўргатади, жонли сўзни егаллашга ёрдам беради, асарни тинглай билиш, унинг мазмунини тушуниш кўникмасини ўстиради, уларни баён қилишдаги изчилликни, муаллифнинг ифода усулини еслаб қолишга, асарни тушуниб, жамоа олдида оғзаки айтиб бера олиш малакасини шакллантиради.

Қайта ҳикоя қилишга ўргатиш самарали бўлиши учун, энг аввало, қайта ҳикоя қилиш учун матнларни тўғри танлаш лозим.

Ҳар битта асар болаларда жамиятимиз учун зарур бўлган сифатларни тарбиялаши ва ривожлантириши керак. Қайта ҳикоя қилиш учун асар танланганда куйидаги талабларга амал қилиш керак: юқори бадиий қимматга, ғоявий-манتيкий йўналишга ега бўлиши, жўшқинлиги, фикрнинг янгилиги ва баённинг образлилиги, воқеаларнинг кетма-кетлилиги, мазмунининг қизиқарлилиги. Шу билан бир қаторда, бадиий асарнинг ҳажми ва унинг бола ёшига мос келишини ҳам ҳисобга олиш муҳим аҳамиятга ега.

Қайта ҳикоя қилиб бериш ва ҳикоя тўқиш монологга ўргатиш методи ҳисобланади. Болалар монологик матнларни қайта ҳикоя қилиб берадилар, реал ва хаёлий воқеалар ҳақида ҳикоя қиладилар, ҳикоя тўқийдилар.

Монологик нутққа ўргатиш методини ўзлаштириб олиш педагог учун куйидагиларни англади: болаларга тинглашни ўрганиш; қайта ҳикоя қилиш ва ҳикоя қилиш, шунингдек ҳикоя тўқишда болаларга ёрдамлашишни ўрганиш.

Монологик нутқ бўйича ишлар ҳар бир ёш гуруҳида энг аввало матн ҳажми ва унинг мазмунининг мураккаблиги билан фарқланади (ҳар иккаласи ҳам «Учинчи мингйилликнинг боласи» таячн дастури билан белгиланади).

Сўзли образларга таяниш барча ёш гуруҳларида монологни ўргатишнинг асосий усули ҳисобланади. Реал нарсалар ва суратларга таяниш кўшимча усулидир.

Ҳикоя қилишни ўргатишнинг вазифаси болаларнинг оғзаки монологик нутқни қайта ҳикоя қилиш, ҳикоя қилиш, ҳикоя тўқиш каби турларини ўзлаштиришларини таъминлашдан иборатдир.

Қайта ҳикоя қилиш — ешитилган бадиий асарни равон, ифодали айтиб бериш.

Қайта ҳикоя қилиш нисбатан осон нутқий фаолиятдир, чунки, бола тайёр мазмунни қайта айтиб беради, бунда у муаллифнинг тайёр нутқий шаклларида (луғат, сўз оборотлари, тузилиш), уни ўқиётган тарбиячининг нутқ ифодалилиги

усулларидан фойдаланади. Аммо бу механик равишдаги такрорлаш эмас, балки матнни тушунгани ҳолда еркин ва емотсионал айтиб беришдир. Қайта ҳикоя қилиб беришни ўргатиш вазифаси илк ёш гуруҳларида аста-секин қийинлаштирилиб борилади — яхши таниш ертаклар, ҳикояларни айтиб бериш, янги ўқиб чиқилган асарларни айтиб бериш, ҳикоячи шахсини ўзгартирган ҳолда (биринчи шахс номидан эмас, балки учинчи шахс номидан ва аксинча) айтиб бериш, тарбиячи режаси асосида айтиб бериш, болалар билан биргаликда тузилган режа асосида айтиб бериш, ўхшашлик асосида (аналогия бўйича) айтиб бериш (қаҳрамонни, мавсумни ўзгартириш ва ҳ.к.), сахналаштирган ҳолда айтиб бериш, (ўйинчоқлар, силуетлар билан), болалар танлови бўйича айтиб бериш. Ҳикоя қилиб бериш учун қуйидагилар матн сифатида хизмат қилиши мумкин:

Маиший тусдаги ахборот, уни тарбиячи ҳар куни еркин мулоқот чоғида болаларга беради, сўнгра болалар уни бир-бирларига ва оила аъзоларига сўзлаб берадилар;

Бадиий адабиёт матнларини айтиб бериш, уни болалар монологик нутқни ўрганишга оид махсус машғулотларда айтиб берадилар;

Тарбиячи ишга келишида йўлда, дўконда, сайрда юз берган (ёки юз бериши мумкин бўлган) турли хил воқеалар унинг ахбороти учун мавзу бўлиб хизмат қилиши мумкин.

**МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАР НУТҚИНИ ЎСТИРИШДА ЛУҒАТНИНГ  
АҲАМИЯТИ****Киргизова Дилрабохон Бурхонжановна***Пахтаобод педагогика коллежи ўқитувчиси***Ганиева Наргиза Абдусаматовна***Пахтаобод педагогика коллежи ўқитувчиси*

Мактабгача таълим ташкилотларида луғат ишининг бош вазифаси – болажонларнинг луғат заҳирасини бойитиш, кенгайтириш ва фаоллаштиришдан иборатдир.

Болалар луғатини бойитишнинг асосини боланинг тил онгига мавзуга оид сўзлар, синонимик қаторлар, антонимик жуфтликлар, кўп маъноли сўзларни киритиш ташкил қилади.

Болалар билан синонимлар устида ишлаш (мазмунига кўра бир-бирига яқин сўзларни танлаш) уларнинг сўзларнинг мавзуга оид сўзлар гуруҳларини (ҳаракат феъллари: юрмоқ, қадам ташламоқ, судралмоқ ва ҳ.к. ёки нутқни белгиловчи феъллар: айтди, сўради, жавоб берди, қичқирди ва бошқ.) ўзлаштиришларига оид ишлар билан уйғунлаштириб кетиши лозим.

Антонимлар устидаги ишлар (қарама-қарши маънога эга бўлган сўзлар) болалар билан сўз бирикмалари ва гаплар тузишда амалга оширилиши керак. Педагог болаларга мақолларда, маталларда антонимларни топишни ўргатиши зарур. Кўп маъноли сўзларда антонимларни топиш болаларнинг сўз ҳақидаги тасаввурларини кенгайтиради, унинг мазмунини аниқлаштиришга ёрдам беради. Қарама-қарши маънога эга бўлган сўзлардан иборат бўлган сўз бирикмаларини танлар экан, болалар сўзларнинг кўп маънолилигини янада чуқурроқ тушунадилар

Сўзларнинг кўп маънолилигини мактабгача ёшдаги болаларга уларга яхши таниш бўлган аниқ предмет аҳамиятига эга бўлган (ручка, игна, яшин, гавданинг орқа томони, оёқ) сўзларда кўрсатиш даркор. Кўп маъноли сўзлар устидаги ишлар қуйидаги йўналишлар бўйича олиб борилиши мумкин: сўзни айтиш, унга белгилар ва ҳаракатлар танлаш – сўз бирикмасини, сўнгра гапларни тузиш ва охир-оқибатда кўп маъноли сўзлардан равон матнда фойдаланиш.

Луғат иши жараёнида (ва бошқа нутқий вазифаларни ҳал этиш жараёнида) педагог болаларда нутқнинг аниқлик, тўғрилиқ, равонлик, ифодалилик каби сифатлари амалга ошишига эришиши зарур. Болаларда фикр билдириш учун сўзловчининг ниятини аниқ акс еттирувчи лексик воситаларни танлаб олиш қобилиятини шакллантиришга алоҳида эътибор қаратиш лозим.

Болалар билан луғат ишларини ташкил қилар экан, педагог қуйидагиларни ҳисобга олиши лозим:

- лексикани ташкил этишнинг мавзуга асосланган тамойили;
- семантик жиҳати (болани сўз мазмуни билан таништириш);

Лексика ишларининг барча турларини бошқа нутқий вазифалар билан ўзаро боғлиқликда сўзли ўйинлар, машқлар, ижодий вазифалар шаклида ўтказиш тавсия этилади.

Лексик мазмундаги ўйинлар ва машқлар – нутқнинг мазмун жиҳатини ривожлантиришнинг зарур шarti ҳисобланади. Уларда турли предметлар ва объектларни таққослаш, турли умумий хусусиятлар ва функцияларни ажратиш муҳим аҳамиятга эга. Бунда реал объектлар (ўйинчоқлар, расмлар, кийимлар, мебел ва ҳ.к.) ҳам, ҳаёлий вазиятлар (қувноқ ва ғамгин тулқичанинг ҳаракатлари, эрта ва кеч куз об-ҳавоси ва ҳ.к.) ҳам таққосланиши мумкин. Ҳикоя қилишдан олдинги луғат машқлари болаларнинг равон нутқларининг аниқ ва образли сўзлар ҳамда иборалар билан бойитилишига ёрдам беради.

Мактабгача таълим муассасасидаги луғат ишларининг моҳияти — бу тил лексикаси соҳасида болаларнинг уларга таниш ёки нотаниш бўлган, аммо улар учун қийин ҳисобланган сўзларнинг ўзлаштиришларига, нутқ маданиятини оширишга қаратилган таълим-тарбия ишларини бир тизимга келтиришдан иборатдир. Болаларни улар ўз амалиётида қийинчилик билан ўзлаштирадиган, тўсатдан ёки умуман танимайдиган, бузилган шаклда талаффуз қиладиган сўзлар билан қуроллантириш анча педагогик саъй-ҳаракатларни талаб қилади.



**БОЛАЛАР НУТҚИНИ ЎСТИРИШ, ХОТИРАСИНИ МУСТАҲКАМЛАШДА  
ТЕЗ АЙТИШ ВА ТОПИШМОҚЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ****Хожиматова Ойдиной***Пахтаобод педагогика коллежи ўқитувчиси***Ибрагимова Мохира***Пахтаобод туман 24-МТТ тарбиячиси*

Фольклор асарларини тинглаб вояга етаётган болаларнинг ўйинлари, шўхликлари, хаёллари, қизиқишлари, гап-сўзлари... Булар болаларнинг маънавий дунёсини бойитадиган омиллардандир. Агарда катталар бу ўзига хос болалар дунёсини тушуниб, уни тўғри баҳолай олсалар, болаларнинг келажаги учун катта иш қилган бўладилар.

Алла, ертак, топишмоқ, мақолларда кузатганимиздек, одамларга, жониворларга, табиатга бўлган меҳр-муҳаббат, дўстлик ва ўртоқликнинг илк туйғулари, яхшиликка нисбатан уйғонган дастлабки миннатдорчилик ҳисси, ҳар нарсага чанқоклик билан қизиқиб қараш — буларнинг бари боланинг маънавий дунёсини бойитиши, унинг хаёли ва тасаввурини кенгайтириши лозим.

Ҳар бир киши, фольклорда зикр етилганидек, енг бахтиёр ва беташвиш болалик йилларида тахминан қуйидаги қобилиятларни егаллаб олган бўлиши лозим. Яъни ўйнаб ва шўхлик қила туриб, у: нима яхши-ю нима ёмонлигини, нарсалар дунёсини, ҳайвонот дунёсини, одамлар дунёсини англаб боради. Бунинг устига дунёни билиш шунчаки юзаки бир кузатув емас: кеча у ёмғирнинг нималигини билмас еди, бугун еса ерталаб уни кўрди-ю, айти пайтда дунёда тарновлар бўлишини, чумчуқлар совуқда хурпайиб, юм-юмалоқ бўлиб олишини ҳам билиб олди. Бу ерталабки кашфиётлар еди, тушга бориб еса у мушукчани қўрқитиб юборса, юнглари хурпайиб, кўзлари яшил рангда чакнаб кетишини ҳам биринчи бор кўрди.

Дарҳақиқат, болаларнинг ўйинларига, чизган расмларига астойдил разм солинг, гапларини тингланг. Шунда сиз уларнинг оламини нақадар ёрқин, ақлга сиғмас даражада мўжизакор бир тарзда кўра билишларини пайқайсиз. Улар ўзларининг сезгирликлари туфайли, ҳатто кўрқинчли ертакларнинг ҳам қандайдир қизиқ жойларини илиб оладилар, кундалик воқеаларнинг еса катталар сезмай қоладиган муҳим жиҳатларини кўра биладилар.

Мана шу мусаффо туйғулари учун ҳам кишилар болаликни севадилар ва уни бутун умр мамнуният билан хотирлаб юрадилар. Беташвиш бўлгани учун емас, мусаффо туйғулари учун севадилар уни. Шу боисдан катталар болаларни қувончдан маҳрум етмасликлари, уларнинг янгиликка бой бўлган ва доимо ўзгариб турувчи ҳаётдан олган таассуротларини, ҳис-ҳаяжонга тўла ҳайратли туйғуларини топтамасликлари керак.

Ҳар биримиз ҳам болаликда кунларнинг узоклиги, ҳар бир куннинг воқеаларга бой ўтгани, тушда осмонда учиб юриш нақадар ёқимлилиги, оддийгина уйнинг

шифти ҳам нақадар баланд, ҳовли олдидаги боғ жуда катта, ҳув наридаги ўтлоқзор еса, қанчалар сирли туюлганини еслашни истаймиз.

Лекин қуёшдан тараладиган чинакам нур — ёғдуни ҳаммамиз ҳам яхши хотирлай оламизми? Янги ўйинчоқ, янги китобчаларнинг ёқимли ҳидини қай биримиз аниқ еслай- миз? Оддий ҳодисалар ҳам қанчалар тантанавор ва муҳим бўлиб туюлгани ва қачонлардир юз берган олис воқеалар худди кечагидек хотирага маҳкам ўрнашиб қолганини-чи?

Ҳамма ёқдан мойчечак гулининг ўткир иси келадиган оппоқ, тебраниб турувчи далалар-чи? Шунда тўсатдан узоқда кўринган она... Унинг овози... Ҳар томонга гўё узун-узун олтинранг чизиқчаларсимон қувноқ нур таратаётган сахий қуёш-чи?

Уларни катталар сира кўрмайдилар, болалар еса кўрадилар. Негаки улар ўзлари тинглаган ертақларида бундай ажойиб-ғаройиб воқеа-ҳодисаларни кўп бор ешитишган. Ҳатто расмини ҳам чизганлар.

Болалар чизган расмнинг бўёғи жуда тиниқ бўлиши ҳам бежиз емас. Болалик пайтида яхшилик билан ёмонлик ҳам мана шундай аниқ кўринади. Болаликда ё севишади, ёки нафратланишади, болалар хатти-ҳаракатларининг ўртамиёнаси ҳам бўлмай, фақат ё яхши, ёки ёмон бўлиши мумкин.

Уларда ҳаёт тажрибаси, билими ҳали етарли емас-у, аммо чиройли ва хунукни, самимият ва сохталикни ҳис етиш туй-ғулари ниҳоятда ўткир бўлади.

Теварак-оламни мана шундай тийраклик билан ҳис етган одамлар туфайлигина биз мусиқа ешитиб, яхши китобларни ўқиб, чинакам санъат асарларини кўриб, чексиз ҳузур-ҳаловат ола- миз. Улар оҳанглар, сўзлар, ранглар воситасида дунёнинг нафосати-ю, унинг донишмандлигини бизга яққол кўрсатиб берадилар, чунки истеъдоднинг ўзи аслида болалик таъсирчанли-гидан, оддий нарсдан гўзаллик топа билиш ҳислатидан бошланади, бу ҳислат еса ҳаётини тажриба ва маънавий етуклик туфайли бойиб боради.

# TARIX FANLARI

## HAZRAT BASHIR

**Umarova Shoira Usmanovna**

*a history teacher at the Vocational School  
in Karshi city of the Kashkadarya region of the Republic of Uzbekistan.*

**Annotation:** *Hazrat Bashir (1368-1464) was one of the great sheikhs of mysticism. His original name is Sultan Sayyid Ahmad Ali. His mother, Bibi Malokhat, gave birth to Hazrat Beshir in her old age and raised him without breastfeeding. Therefore, his name was called Beshir. He was a follower of the Yassavi sect. Mirzo Ulugbek knew him personally and respected him. At the heart of the teachings of Hazrat Bashir, the master of the inner sciences, is the idea of breaking the stronghold of lust in human education.*

*“Everyone glorifies their history. But nowhere is there such a rich history as our country, great scholars like our ancestors. We must study this heritage in depth and pass it on to our people and the world” - says President of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev.*

**Key words:** *Avliyo (A saint) (Arabic, plural of the word guardian, a person close to God) is a person who knows well the essence and qualities of Allah in mysticism.*

*Bashir - (Arabic), - evangelist, good counselor.*

*Beshir - (Persian) - without milk.*

*Ziyorotgox (Shrine) - (Arabic) - a sacred place.*

*Karomatgo'y (prodigy) - (Arabic) - the knower of the supernatural.*

*Keshkurt - (Arabic) name of the river - Kashkadarya.*

*Tasavvuf (Sufism) - (Arabic, way) - In Islam, a person is spiritually and morally a doctrine that leads to perfection.*

*Xonaqqox (Room) - (Arabic) - a large building, the main room.*

*Hazrat - (Arabic) - to a high degree of respect and esteem worthy, honorable, great man.*

### **Hazrat Bashir**

Holy shrines

The “Qashqa” oasis stands out from other oases of Uzbekistan with its uniquely beautiful nature, vast deserts and picturesque villages, ancient cities, mineral resources and hardworking people.

We, the people of Kashkadarya, should be proud of one more thing. Kashkadarya is an oasis rich in ancient history. For example, in Yerkurgan, Kasan district, there was a big city in ancient times, or the historical sites of Amir Temur, such as the Oksaray in Shakhrisabz, Zanjirsaray in Mubarek, Langar ota in Chirakchi and Kamashi, Khojaipok in Dehkanabad, Hazrati Bashir in Kitab. Let's take a look at Kitab district. Kitab district is located in the

north-east of our region. It is surrounded on the north and east by the glorious “Hisor” mountain ranges.

There are places in this district where Spitamen, Abu Muslim, Muqanna fought. In addition, there are a lot of places where Amir Temur, Mirzo Ulugbek, Ali Kushchi traveled and made great plans for the fate of Movarounnahr and Khorasan. In this sacred land there are shrines named after Hazrat Bashir, Khoja Nemat Vali, Hazrat Sultan Haziq Junaydillo Islam Sheikh ogli, Khoja Abdu Bakir Abdurahman Hisari, who adorn the history of our people. But among these places, Hazrat Bashir has a special place.

The village of Hazrat Bashir is located 30.5 kilometers northeast of the city of Kitab on the banks of the Keshkurt (Kashkadarya) River, which flows rapidly through the mountains, between the Abyssinians and the Kultogs. It is associated with the name of the great place Sheikh Hazrat Sultan Sayyid Ahmad Bashir. The history of the birth of Hazrat Bashir dates back to the time of Amir Temur. Sahibkiran's brothers, Khojamir Baraka and Khojamir Nematillo, were his advisers who were saint and prodigy. But as a result of the slander of the nobles, they left the palace. When they left Samarkand and came to the top of the mountain, a runner came after them and said that Sahibkiran had ordered them to return to the palace.

Khojamir Nematillo did not return because he had come down from the mountain. Khojamir Baraka returned to Samarkand. This man was Sayyid Barak, the peer of Amir Temur. Khojamir Nematillo crossed the mountain and entered a village in Kitab. In this village there was a man named Hodja Hasan, whom Khojamir Nematillo first encountered. According to the narrations, when Khojamir Nematillo came, Khoja Hasan was planting onions.

At that moment, Khojamir Nematillo said that "Weeds, get out of the ditch," and all the weeds disappeared in a miracle way. Hodja Hasan said, "O master, you have done wrong. It would be better if it was cleaned by hand." Khojamir Nematillo was a guest at Hodja Hasan's house for some time and saw that the hosts had no children and prayed for a child for them. After a certain of time by miracle, a child was born in the family of two old childless Muslim. He was named Sultan Sayidahmad Ali. He was born about 1379 in the village of “Qoplatun”. At this time, his father Khoja Hasan was 90 years old and his mother Bibi Malokhat was 80 years old. Sultan Sayidahmad Wali grew up without breastfeeding because his mother was old. He grew up drinking spring water instead of milk. Therefore, he was called Hazrat Beshir, who could not feed his mother. "Beshir" was derived from Persian and means without milk. He was known among the people as Bashir. Hazrat Bashir lived with his parents for about 4-5 years and later lived independently in a place called Ghari Hakim. He lived here until he was 18-19 years old, then at the age of 20-25 he lived in a place called Kyzylkaya, 10 kilometers away from the village of Hazrati Beshir. When Bashir was old, he lived in a place called Sandiktash near the place where he lived before.

It is narrated that Hazrat Bashir shot a spruce stick from the place where his father lived, and the stick was stuck on that hill. In time, a spruce tree sprouted from the stick. Even today, the spruce is green, the lower part is thinner and the upper part is thicker, it has been flourishing since the 6th and 5th centuries. When Hadrat Bashir was 80 years old, Ali

Kushchi from Samarkand came to him and lived there for 6-7 years. One day Hazrat Ali advised Kushchi to leave the village. Because he said he could be attacked for his proximity to Samarkand. Following this advice, Ali Kushchi went to Alexandria and died there. Now there is the village of Ali Kushchi near the village of Hazrat Bashir. There is even information about the Mongol king Jamollidin, who abdicated and came to the village of Hazrat Bashir. He died in the hands of Hadrat Bashir and was buried here.

He made a prodigy in front of Mirzo Ulugbek. Therefore, Mirzo Ulugbek paid a part of Samarkand tribute to him out of respect.

Hazrat Bashir died at the age of 96. The tomb is located on the hill Niyoztepa, where the spruce grew. On the side of the tomb, there are the tomb of his two children and a servant. On the next side of the tomb, there is also the tomb of the Mongol king Mirza Sayidahmad Jamollidin.

Below the hill, there is a small plain, decorated with huge maples, walnuts, pistachios, almonds and similar trees. There is also a mosque built under the leadership of Mulla Ahmad.

Healing water flows under the hill where the shrine of Hazrat Bashir is located. It is said that its healing properties, coolness and sweet taste are not inferior to the water of Macca. According to legend, it is said that milk used to flow from the spring instead of water on Wednesdays and Thursdays. And people were cured of their ailments by drinking this milk and water.

I myself have personally visited this shrine several times and enjoyed the divine light, the picturesque nature and the healing spring water. It is not enough to visit the graves of such great scholars and bless the pure in spirit.





#### REFERENCES:

1. Sh.M.Mirziyoev "Speech on the visit of Uzbekistan to the construction site of the Center of Islamic Civilization". 2018 y. 15 06.
2. A. Choriev. History of Hazrat Bashir.
3. A. Choriev. Hazrat Bashir Manoqibi. 2009 y.
4. M. Raxmon. History of Hazrat Sultan and Hazrat Bashir. 1996 y.
5. Sh. Bozorova. Has the shrine of Hazrat Bashir been fully explored? [http / Mahalladosh.uz /](http://Mahalladosh.uz/)
6. Kitab - Hazrati Bashir [www.Kitobsayyoh.uz](http://www.Kitobsayyoh.uz)

# IJTIMOIIY VA SIYOSIY FANLAR

## OILA, MAHALLA, MAKTAB KONSEPTSIYASINING MOHIYATI

**Abdurasulova Shahnoza Ravshanovna**

*Toshkent viloyati Yangiyo'l shahar*

*10-umumiy o'rta ta'lim maktabi tarbiya va huquq o'qituvchisi*

Har bir millat o'z istiqbolini kamolga yetayotgan yoshlari timsolida ko'radi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasining Prezidenti etib saylangan ilk kunlardagi ma'ruzasida alohida ta'kidlaganidek, "...yurtimizdagi har qaysi inson, har qaysi oilaning eng ezgu orzu-maqсадlari, hayotiy manfaatlari avvalambor uning farzandlari timsolida namoyon bo'ladi, ro'yobga chiqadi". Bundan tashqari, mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning barcha asarlari va chiqishlarida, turli nutq va ma'ruzalari hamda O'zbekiston Respublikasi Parlamentiga qilgan murojaatlarida farzand tarbiyasida oila, mahalla, maktab birdek mas'ul ekanligiga e'tibor qaratib, tahlil etilganligini ko'rish mumkin.

Bunga O'zbekiston Respublikasining 1997 yil 29 avgustdagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", 2013 yil 22 apreldagi "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi qonuni hamda 2013 yil 7 oktabrdagi "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori kabi hujjatlarni misol qilib keltirish mumkin.

Birgina O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 19 iyundagi "Barkamol avlodni tarbiyalashda oila instituti va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining ta'lim muassasalari bilan o'zaro hamkorligini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 175-son qarorida jismonan sog'lom, ma'naviy yetuk va har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalashda oila instituti, ota-onalar va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining ta'lim muassasalari bilan o'zaro hamkorligini mustahkamlash ustuvor vazifa sifatida belgilab qo'yildi va ushbu qarorga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining 2019 yil 7 fevral kungi 46-sonli buyrug'iga asosan Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi "Oila-mahalla-ta'lim muassasasi" hamkorligi Jamoat kengashi to'g'risidagi yangi Nizom tasdiqlangan.

Mazkur qarordan kelib chiqqan holda bola tarbiyasidagi dastlabki tuzilma oilaning vazifa va majburiyatlari aniq belgilab qo'yilgan:

-oilada sog'lom vaziyatni yaratish; bola uchun har tomonlama o'rnak bo'lish, bolada vatanparvarlik ruhini, Vatanga va oilasiga muhabbat tuyg'usini, o'zaro g'amxo'rlikni shakllantirish va tarbiyalash; huquqiy tarbiyani shakllantirish, bolani barcha oila a'zolarining huquq va majburiyatlarini bilish va ularga amal qilishga o'rgatish; bolani dunyoviy bilimlarga qiziqtirish, uning har tomonlama ma'naviy-axloqiy rivojlanishini, ta'lim-tarbiya olishini ta'minlash; bolaga bozor munosabatlari sharoitlariga mos keluvchi kasbni tanlashda yordam ko'rsatish va uni bozor iqtisodiyotining asoslariga o'rgatish;

bolaning har tomonlama ma'naviy va sog'lom jismoniy rivojlanishi uchun ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlarni yaratish; bolani mustaqil fikrlashga o'rgatish va unda mustaqillik hamda milliy qadryatlarga sodiqlik g'oyalarini shakllantirish; bolaning bo'sh vaqtlarini samarali tashkil etish, shuningdek, uni qo'shimcha ta'lim bilan ta'minlash; bolaning iqtidorini rivojlantirish uchun zarur sharoitlarni yaratish; bolalarda maktab, oila, mahalla, davlat va jamiyat oldida mas'uliyat hissini tarbiyalash; bolaning ruhiy va ma'naviy jihatlarini, unda tejamkorlik va mehnatsevarlik ruhini tarbiyalash.

O'z o'rnida bugungi kunda mahalla zimmasiga esa quyidagi vazifalar yuklatilgan:

-nosog'lom muhitga ega bo'lgan oilalarga jamoatchilikning diqqatini tortish va bunday oilalarga nisbatan jamoatchilik tomonidan ijtimoiy choralar ko'rish; ota-onalarga farzandlarini har tomonlama kamol toptirish, milliy vatanparvarlik va milliy qadryatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash, ularda tashabbuskorlik, mehnatsevarlik, odoblilik fazilatlarini rivojlantirishda amaliy yordam ko'rsatish; mahallada bolalar va yoshlarning milliy davlatchilik va milliy g'oya masalalarida mas'uliyatini oshirish yuzasidan tadbirlarni tashkil etish; ijtimoiy tashkilotlarni bolalar va yoshlarni tarbiyalash ishiga hamda ularning muammolarini hal etishga jalb qilish; mahalla hududida joylashgan tashkilotlar va korxonalarining resurslarini ta'lim muassasalarining moddiy bazasini mustahkamlash uchun jalb qilish; mahalla hududida ta'lim muassasalari bilan turli tanlovlar, sport musobaqalar tashkil etishga jalb etish.

O'qituvchilar va ota-onalar o'rtasida samarali hamkorlik o'rnatish tamoyillari katta ahamiyatga ega bo'lib, ular quyidagilardan iborat: o'qituvchi va ota-onalar o'rtasida samimiy hurmat muhitini yaratish; hamkorlikni boshlashda oila va o'qituvchi (maktab, kollej) o'rtasidagi muloqot usullarini kelishib olish; o'zaro kelishilgan doimiy uchrashuvlarni tashkil qilish orqali bolaning oilasi bilan yaqin aloqa o'rnatish; oilalarning madaniy va ijtimoiy turli-tumanligini hurmat qilish va qo'llab-quvvatlash; oila va bolaning kuchli taraflarini e'tiborga olish; ota-onalar tomonidan bola va oila haqida berilayotgan ma'lumotlarning aniqligi va maxfiyligini ta'minlash.

Milliy ma'naviyat, milliy mafkura va milliy g'oya ravnaqi bugungi kunda o'quvchi va talaba-yoshlarga berilayotgan ta'lim-tarbiya ishlariga ko'p jihatdan bog'liq ekanligi barchamizga yaxshi ma'lum. Shunday ekan bu masalaga ya'ni ta'lim-tarbiya ishlariga endilikda yanada chuqurroq yondashishimiz talab etiladi. Chunki o'quvchi va talaba-yoshlarda sog'lom turmush tarzini shakllantirishning, ularning ongida milliy ma'naviyatga nisbatan sog'lom dunyoqarashni, e'tiqodni rivojlantirishda bevosita ularga berilayotgan ta'lim-tarbiya sifatining qay darajada ravnaq topganligini o'z vaqtida aniqlab, tegishli chora-tadbirlarni qo'llay olishimiz lozim. Bunday ishlarni amalga oshirishda ta'lim-tarbiya ishlarida "Oila-mahalla-ta'lim muassasasi" tizimidan keng foydalanishi bizga ko'zlangan pirovard natijalarni beradi.



**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармони. Жамиятда ижтимоий-маънавий муҳитни соғломлаштириш, маҳалла институтини янада қўллаб-қувватлаш ҳамда оила ва хотин-қизлар билан ишлаш тизимини янги даражага олиб чиқиш чоратадбирлари тўғрисида. //Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 19.02.2020 й., 06/20/5938/0187-сон; 03.04.2020 й., 06/20/5978/0393-сон)
2. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Т.1. –Тошкент.: Ўзбекистон, 2017. // Қонун устиворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш юрт тараққиёти ва халқ фаровонлиги гарови.
3. O‘zbekiston Respublikasi Me’yoriy – huquqiy hujjatlari.

**ISHLAB CHIQRISHNI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING  
MUHIM OMILLARI****Usanov Sarvar Anvarovich.***Jizzax davlat pedagogika instituti**Sirtqi (maxsus sirtqi) bo'limi uslubchisi.*

**KIRISH:** Raqamli iqtisod haqida so'z borar ekan avvalo shuni alohida ta'kidlash lozimki, u xo'jalik yuritishning yangi zamonaviy shakli bo'lib, unda ishlab chiqarish va boshqarishning asosiy faktori sifatida raqamli ko'rinishdagi katta ma'lumotlar majmui va ularni qayta ishlash jarayoni xizmat qiladi. Olingan natijalarni amaliyotda ishlatish esa an'anaviy xo'jalik yuritish shakllariga nisbatan ancha katta samaradorlikka erishishga imkon beradi.

Axborot va hisoblash infratuzilmasining yetarli darajada moliyalashtirilmaganligi iqtisodiyotni raqamli o'zgartirish uchun muhim muammo bo'lishi mumkin. Ma'lumotlarni ishlab chiqarish, saqlash va ulardan foydalanishning ishonchli va xavfsiz jarayoni uchun shart-sharoitlar yaratish texnologiyani rivojlantirishda tormoz vazifasini o'tashi mumkin bo'lgan kiberxavfsizlik xavfidan himoya qilish uchun asosdir. Global o'zgarishlardan kelib chiqadigan mineral-xomashyo kompleksi uchun muammolarni sanoatning texnologik o'zgarishlari orqali olish mumkin.

Fikrimcha, xom ashyo, neftni qayta ishlash sanoatidagi texnologik o'zgarishlar bilan bog'liq masalalar to'liq tavsiflangan, minerallarni qayta ishlashning yaxlit va ilg'or tizimlarini rivojlantirish, maishiy va sanoat chiqindilaridan foydalanish lozim. Ilmiy izlanishlar qidiruv va qazib olishni bashorat qilishdan boshlab, moddiy va energiya manbalarini real vaqt ma'lumotlariga asoslangan holda barqaror rejalashtirish va taqsimlashgacha barqaror rivojlanishga yordam beradigan asosiy texnologiyalar keltirilgan. Shuningdek, mineral-xomashyo sohasi uchun raqamli platformalar yaratish imkoniyatlariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

**ASOSIY QISM:** Raqamli integratsiya, tadqiqot yo'nalishlari va ma'lumotlarni birlashtirgan holda, ilmiy va texnik yutuqlar va yutuqlar uchun sharoit yaratadi, tegishli sanoat tarmoqlarida bilan bir qatorda jahon mineral va xom ashyo bozorida ilmiy va iqtisodiy rivojlanishlarni ta'minlaydi. Ilmiy izlanishlar qidiruv va qazib olishni istiqboli yo'llarni yaratishdan boshlab, moddiy va energiya manbalarini real vaqt ma'lumotlariga asoslangan holda barqaror rejalashtirish va taqsimlashgacha barqaror rivojlanishga yordam beradigan asosiy texnologiyalar keltirilgan. Shuningdek, mineral-xomashyo sohasi uchun raqamli platformalar yaratish imkoniyatlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Raqamli integratsiya, tadqiqot yo'nalishlari, xodimlar, jarayonlar, foydalanuvchilar va ma'lumotlarni birlashtirgan holda, ilmiy va texnik yutuqlar va yutuqlar uchun sharoit yaratadi, tegishli sanoat tarmoqlarida va, avvalambor, jahon mineral va xom ashyo bozorida ilmiy va iqtisodiy rivojlanishlarni ta'minlaydi. Raqamli integratsiya, tadqiqot sohalari, kadrlar, foydalanuvchilar va ma'lumotlarni birlashtirgan holda, ilmiy va texnik yutuqlar va yutuqlar uchun sharoit yaratadi, tegishli sanoat tarmoqlarida va eng avvalo, jahon mineral va xom

ashyo bozorida ilmiy va iqtisodiy rivojlanishlarni ta'minlaydi. Shuningdek, mineral-xomashyo sohasi uchun raqamli platformalar yaratish imkoniyatlariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ko'plab mamlakatlarda ishlab chiqarish resurlarini boshqarish texnologiyalarini rivojlantirish, jumladan, ulardan virtual foydalanish manfaatlarida, raqamli iqtisodiyot infratuzilmalarini yaratish va o'zgartirish davlat daturlariga binoan bajariladi: Germaniyada Industrie4.0, AQSHda Advanced Manufacturing Technology, Xitoyda esa asosiy e'tibor ilg'or texnologiyalar joriy qilish, sifat va innovatsiyalarga qaratiladigan ishlab chiqarishni rivojlantirish strategik konsepsiyasi, Buyuk Britaniyada Innovate UK, Avstraliyada National Digital Economy. IoT-platformalar yaratish va joriy qilish bo'yicha loyihalar, amaliy dastur servislari ishlab chiqish Rossiyada ham amalga oshirilmoqda. Internet tashabbuslarni rivojlantirish jamg'armasi internetni rivojlantirish yo'l xaritasini ishlab chiqdi hamda buyumlar interneti Assotsiatsiyasini ta'asis etdi. Rosstandart doirasida faoliyat ko'rsatadigan «Kiberfizicheskiesistemy» standartlashtirish bo'yicha yangi texnik qo'mita faoliyati doirasida buyumlar interneti sohasida standartlar ishlab chiqish va qabul qilish rejalashtirilgan

Raqamli asr hamma narsani o'zgartirmoqda: bozorlar va mahsulotlar tabiati, qanday ishlab chiqarish, yetkazib berish va to'lash, global miqyosda ishlash uchun kapital ko'lami va inson kapitaliga bo'lgan talablar. Shuningdek, bu samaradorlikni oshiradi, kompaniyalarni yangi g'oyalar, texnologiyalar, yangi menejment va biznes modellari bilan tanishtiradi va bozorga kirishning yangi kanallarini yaratadi. Albatta bularning barchasi nisbatan arzon narxlarda. Firmalar asosiy kun tartibida va murakkab vazifalarda tobora ko'proq sun'iy intellektga tayanadi, deb taxmin qilish mubolag'a bo'lmaydi. Raqamli texnologiyalar iqtisodiy rivojlanishga ta'sir qilishi uchun, rivojlanayotgan iqtisodiyotlarning raqamli iqtisodiyotga to'liq jalb qilinishiga to'sqinlik qiladigan to'siqlarni bartaraf etish va foydalarni optimallashtirish, shu bilan birga xatarlarni minimallashtirish kerak lozim deb o'ylayman .

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanayotgan iqtisodiyotlar uchun foydalari potentsial jihatdan katta bo'lib, buning sababi shundaki, u jarayonlar va ishlab chiqarishni optimallashtirishga, tranzaksiyalar xarajatlarini kamaytirishga va ta'minot zanjirlarini o'zgartirishga yordam beradigan raqamli mahsulotlar va xizmatlarga kirish bilan bog'liq muhim raqobatdoshlik va samaradorlikni oshiruvchi imkoniyatlarga ega bo'lishi mumkin. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) narxlarining pasayishi rivojlanayotgan mamlakatlarda investitsiyalarni jalb qilishni va raqamli texnologiyalarni o'zlashtirishni rag'batlantiradi, ularning firmalariga raqobatbardosh narxlarda eng zamonaviy xizmatlarni taqdim etadi. Bularning barchasi firmalarga global qiymat zanjirlarida ishtirok etish va tashqi bozorda xaridorlarga to'g'ridan-to'g'ri ilgari ilgari rivojlangan mamlakatlarning yirik va taniqli kompaniyalari uchun mumkin bo'lgan usullar bilan kirish imkoniyatini beradi.

Iste'molchilar uchun imtiyozlar raqobatbardosh narxlarda tovar va xizmatlarning keng doirasiga kirish bilan bog'liq. Shuningdek, u tadbirkorlik va ish o'rinlarini yaratish uchun yangi imkoniyatlarni taqdim etadi. Hukumatlar, shuningdek, raqamli iqtisodiyotdan ko'proq

va yaxshiroq davlat xizmatlarini ko'rsatishda, boshqaruvni takomillashtirishda, siyosatni baholashda va umuman olganda yaxshi natijalarga erishishda yordam beradigan texnologiyalardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Eng birinchi navbatda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi va qo'l mehnatining texnologiyalar bilan almashtirilishi hisobiga ish o'rinlari ancha miqdorga kamayadi. Ijobiy tomonlar esa qulaylikning vujudga kelishi, ishlab chiqarish unumdorligining oshishi, oldin xayolga ham kelmagan yangi imkoniyatlarning paydo bo'lishidir. Ammo asosiy muammo bunda ham emas, muammo inson bilan bog'liq – inson ham bunday global o'zgarishlarga tayyormi? Ilg'or texnologiyalar katta siyosiy g'alayonlar, to'qnashuvlar, misli ko'rilmagan tabaqalanishlar, millatchilik, tushunmovchiliklar va inqiloblarga olib kelmaydimi? Robotlar va sun'iy intellect tizimlari insonlar o'rnini egallab olib, ularning raqobatchilariga aylanmaydimi? Chunki raqamli transformatsiya insoniyat evolyutsiyasining yana bir bosqichidir. Agar tarixga nazar solsak, bunday o'zgarishlar ko'p martalab sodir bo'lgan. Yangi texnologiyalar hosil bo'lib, ular odatiy mutaxassisliklarning o'rnini egallaganlar.

Jamiyatning mahsulot ishlab chiqarish infratuzilmasini o'rganilganda unda ishlab chiqarilayotgan mahsulot yoki xizmatlarda qanday bilimlar aks etishi va bu bilimlarning pirovard natijalari qanday bo'lishiga ahamiyat beriladi. Bu yerda asosiy diqqat-e'tibor bevosita bilimlar hosil bo'ladigan va uning shart-sharoitlariga bog'liq bo'lgan raqamli iqtisodiyot infratuzilmasi tushunchasiga qaratiladi. Undan so'ng, uning zamonaviy sharoitlarga bog'liq alohida xususiyatlari viloyatlararo miqyosda o'rganiladi. Bilimlarning biror bir moddiy yoki ma'naviy ne'mat yaratadigan tashuvchisi, saqlovchisi va foydalanuvchisi inson bo'lgani tufayli, jamiyat uchun kerakli bo'lgan amaliy bilimlar asosan ta'lim tizimida hosil qilinadi. Shuning uchun ham bilimlarga asoslangan raqamli iqtisodiyotda sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishning asosi - ta'lim muassasalaridagi zamonaviy sifatli ta'lim jarayonida hosil bo'ladi, deyishimiz mumkin. Ishlab chiqarish va ta'lim tizimi orasidagi asosiy bog'liqlik va munosabatlar majmui ham xuddi shu bilan aniqlanadi. Raqamli iqtisodiyotni bilimlardan foydalanish asosida tahlil qilib chiqqanda ishlab chiqarish tizimi, ishlab chiqarish potentsiali, bilimlarga asoslangan iqtisodiyotning ishlab chiqarish jarayoni, bu bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar subyektlari, innovatsion tizim, innovatsion potentsial, innovatsion amaliyot subyektlari va boshqa tushunchalar o'rganiladi.

**XULOSA:** Iqtisodiyotning yalpi industrialashtirishdan oldingi davrida yangi tarmoqlar rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan yangi mahsulotlar va yangiliklar yaratilgan. Bularga misol sifatida kimyo sanoatida sun'iy tola va plastmassa paydo bo'lishini ko'rsatish mumkin. Industrial iqtisodiyot ishlab chiqarish unumdorligining tez sur'atlarda ko'payib ketishi oqibatida tovarlar soni haddan tashqari ko'payib ketishi bilan tavsiflanadi. Informatsion iqtisodiyot davri o'ziga insonlarning yangi talablarini yaratadigan yangi mahsulotlar va yangi texnologiyalarni qamrab oladi. Masalan, kompyuter texnologiyalarining paydo bo'lishi ularni yangi ish quroli sifatida ishlatish talabi tufayli hosil bo'lgan va ular esa o'z navbatida insonning yangi talablarini yuzaga keltirdi, shu jumladan, yangi mahsulotlar va xizmatlar, mehnat sharoitlari va yangi hayot tarsi yuzaga keldi. Raqamli texnologiyalar ijtimoiy muhitga faol ta'sir qiladigan bilimlar ishlab

chiqarishning iqtisodiy rivojlanishning zamonaviy darajasiga ta'sirini o'rganishda evolyutsiyaning eng yangi davrini ajratib olish mumkinki, unda raqamli usulda tavsiflangan ijtimoiy faktorlar katta ahamiyatga ega bo'lib, ular inson jamiyati hayotidagi katta sifat o'zgarishlarga olib keladi. Raqamli integratsiya va ma'lumotlarni birlashtirgan holda, ilmiy va texnik yutuqlar va yutuqlar uchun sharoit yaratadi, tegishli sanoat tarmoqlarida va eng avvalo, jahon mineral va xom ashyo bozorida ilmiy va iqtisodiy rivojlanishlarni ta'minlaydi.

**TA'LIMDA O'QUVCHILARNING IQTISODIY SAVODXONLIGINI  
OSHIRISHNING O'ZIGA XOS AHAMIYATI****Usanov Sarvar Anvarovich.***Jizzax davlat pedagogika instituti,  
Sirtqi (maxsus sirtqi) bo'limi uslubchisi.*

**KIRISH:** Iqtisodiy savodxonlik tizimi o'z ahamiyatiga ko'ra mehnat resurslarini oqilona taqsimlashga, odamlarda xo'jayinlik, tejamkorlik, intizomlilik, ishlab chiqarishni amalda boshqarishda ishtirok etishga ehtiyoj, mehnatga ijodiy munosabatda bo'lish kabi sifatlarni shakllantirishga muhim ta'sir ko'rsatishi zarur. Shu boisdan ham o'quvchilarni iqtisodiy tarbiya tizimi davlat tashkilotlari, maktab, oila, baza korxonalar, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy o'quv yurtlarining faoliyatini muvofiqlashtirish, iqtisodiy tarbiya bilan bog'liq ilmiy va tashkiliy masalalarni uzluksiz va o'z vaqtida hal qilishi, o'quvchi shaxsiga iqtisodiy xarakterga ega bo'lgan ta'sirlarni kompleks loyihalashtirishni ta'minlashi kerak.

Respublikamizning jahon davlatlari hamjamiyatida tobora munosib o'rin egallab borayotgan hozirgi kunda shaxsning mehnat faoliyatini tanlashini, o'sib kelayotgan yosh avlodni ongli ravishda ijodiy mehnatni tanlashi, mustaqilligimizni mustahkamlashga qaratilgan ijodiy-iqtisodiy faollikka tayyorlash kabi ijtimoiy jarayonni boshqarish kabi dolzarb muammo vujudga kelmoqda. Mamlakatimizda bozor infrastrukturasi tobora takomillashib borayotgan hozirgi davrda iqtisodiy tarbiya yangi sifat bosqichiga qo'yilishi kerak. Bu esa shaxsda ishlab chiqarish munosabatlariga kirishishga yanada kengroq imkoniyat yaratadi, jamiyatimiz esa ushbu imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish uchun qulay sharoit yaratadi demakdir; ilmiy-texnika revolyutsiyasi, aholini majburiy o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini joriy qilinishi madaniy, kasbiy va umumta'lim darajasini ko'tarilishi kabi omillarni ta'siri natijasida iqtisodiy savodxonlik murakkablashadi; jamiyatimizning dinamik ravishda rivojlanishi hamda ishlab chiqarishni tobora murakkablashib borishi natijasida iqtisodiy savodxonlik shaxsni boshqarishning zarur va imkon jarayoni sifatida qaraladi.

**ASOSIY QISM:** Insonlarga iqtisodiy ta'lim berish har bir davrning dolzarb vazifalaridan biri bo'lib kelgan. Agar tarixga nazar tashlasak, ajdodlarimiz iqtisod va iqtisodiy ta'lim-tarbiyaga oid ko'plab g'oyalarni ilgari surishgan. Chunki iqtisod har bir kishi, har bir oila, jamoa va jamiyat hayotida muhim o'rinni egallagan. U nafaqat insonning bugungi hayoti, balki kelajagini ham belgilab beradi. Axir, xalqimiz "Oldin iqtisod keyin siyosat" degan hikmatni bejizga aytmagan. Demak, har zamonda jamiyatda iqtisodiy tafakkurni rivojlantirish katta ahamiyatga ega bo'lgan.

Iqtisodiy savodxonlik deganda biz avvalo moliyaviy, kredit va qarzlarni boshqarish bo'yicha bilimlarning birlashishini tushunishimiz lozim xususan, moliyaviy mas'uliyatli qarorlarni qabul qilish uchun iqtisodiy savodxonlik zarurdir - bu bizning kundalik hayotimiz uchun ajralmas bo'lgan tanlovimiz hisoblanadi. Iqtisodiy savodxonlik tekshiruv hisobvarag'ining qanday ishlashini, kredit kartadan foydalanish nimani anglatishini va

qarzlardan qanday qutulishni tushunishni o'z ichiga oladi. Bir so'z bilan aytganda, iqtisodiy savodxonlik oilalarga moddiy ta'sir ko'rsatmoqda, chunki ular byudjetni muvozanatlash, uy sotib olish, farzandlarining o'qishini moliyalashtirish va pensiya uchun daromadni ta'minlashga harakat qilishadi

Iqtisodiy savodxonlikning yetishmasligi rivojlangan yoki rivojlangan iqtisodiyotdagi odamlarga, shuningdek, rivojlanayotgan yoki rivojlanayotgan mamlakatlarda yashovchilarga ta'sir qiladi. Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlardagi iste'molchilar, shuningdek, moliyaviy landshaftni tushunishga va muzokara olib borishga, iqtisodiy xatarlarni samarali boshqarishga va moliyaviy tuzoqlardan qochishga yordam beradigan moliyaviy printsiplarni yaxshi anglay olmaydilar. Koreyadan Avstraliyadan Germaniyaga qadar global miqyosda millatlar moliyaviy asoslarni tushunmaydigan aholi bilan duch kelmoqdalar.

Iqtisodiy savodxonlik darajasi ta'lim va daromad darajalariga qarab farq qilishi mumkin, ammo izlanishlar shuni ko'rsatadiki, yuqori ma'lumotli yuqori iste'molchilar kam ma'lumotli, kam daromadli iste'molchilar singari moliyaviy masalalarda ham bexabar bo'lishi mumkin. Iste'molchilar moliyaviy qarorlarni qabul qilishni va ta'limni qiyin va tashvish tug'diradigan narsa deb bilishadi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, odamlar pensiyani tejash rejasi uchun to'g'ri sarmoyani tanlash stomatologga tashrif buyurishdan ko'ra ancha og'ir bo'lgan .

Iqtisodiy savodsizlik bilan bog'liq muammolarni birlashtirganda, moliyaviy qarorlarni qabul qilish iste'molchilar uchun ham og'irlashayotganga o'xshaydi. Moliya borasida puxta va xabardor qarorlar qabul qilish muhimligini ko'rsatadigan beshta tendentsiya yaqinlashmoqda. Hozirgi yoshlarni juda ko'p sonli murakkab moliyaviy qarorlar kutmoqda. Biroq, ko'pchilik, voyaga yetganida, moliyaviy ma'lumotni tanlashga tayyor emas. Aslida to'rtta yosh o'smirdan uchtasi asosiy moliyaviy savollarga javob bera olmaydi .

Sinfda iqtisodiy savodxonlikni o'qitish hozirgi yoshlar uchun moliyaviy imkoniyatlarni yaxshilashning istiqbolli usullaridan biridir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki , 12 yoshga kelib o'quvchilar iqtisodiy tushunchani o'zlashtira oladilar. Iqtisodiyotga oid darslarni o'zlarining bilimlarini rivojlantirishning dastlabki bosqichlariga qo'shib, o'smir yoshlarni pulni tejashga, oilaviy suhbatlarni qo'llab-quvvatlashga va talabalarga o'zlarining moliyaviy kelajagini boshqaruvchisi bo'lishga undashimiz mumkin. Iqtisodiy ta'lim-tarbiya jarayonida kishilar savdo-sotiq ishlari, ishlab chiqarish munosabatlari, ishlab chiqarish kuchlari va ularning mehnat bozoridagi harakati, turli iqtisodiy tizimlar, mulkchilik shakllari va moddiy mulklarni taqsimlash haqidagi bilimlarga ega bo'ladilar. Yana bir muhim jihati shundaki, iqtisodiy bilimga ega kishilar bugungidek kechayotgan moliyaviy-iqtisodiy inqiroz bo'ronlariga tayyor bo'lib, uning oldini olishga o'z hissalarni qo'shadilar

**XULOSA:** Odamlarning iqtisodiy qarorlar qabul qilish qobiliyatining muhim ko'rsatkichi bu ularning iqtisodiy savodxonlik darajasi. Iqtisodiy Hamkorlik va Rivojlanish Tashkiloti iqtisodiy savodxonlikni nafaqat moliyaviy tushunchalar va xatarlarni bilish va tushunish, balki samarali qarorlar qabul qilish uchun ushbu bilim va tushunchalarni qo'llash qobiliyatlari, motivatsiyasi va ishonchini aniq belgilaydi. Shaxslar va jamiyatning iqtisodiy

farovonligini oshirish va iqtisodiy hayotda ishtirok etishni ta'minlash uchun bir qator moliyaviy kontekstlarning shakllanishiga zamin yaratadi. Shunday qilib, moliyaviy savodxonlik ham bilimga, ham moliyaviy xatti-harakatga aloqador deb hisoblayman.

Shuni ham ta'kidlash joizki moliyaviy bozori yaxshi rivojlangan mamlakatlarda ham moliyaviy savodxonlik past. O'rtacha dunyo aholisining uchdan bir qismi kundalik moliyaviy qarorlar asosida yotadigan asosiy tushunchalar bilan tanish deb o'ylayman. O'rtacha aholi ayrim kichik guruhlarining bo'shliqlarini va ma'lum moliyaviy mavzular bo'yicha hatto past bilimlarni ham sezdirmaydi. .

Bugungi kunda erkin va mustaqil fikrlovchi, ijtimoiy-siyosiy hayotda ongli ravishda va faol ishtirok etishga qodir yosh avlodni shakllantirish oliy ta'lim muassasalari va umumta'lim maktablarining asosiy ustuvor yo'nalishidir. Bu esa mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotiga demokratik asoslarini joriy etishni, fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurishni tezlashtirish imkonini beradi. O'qish, o'qitish – inson faoliyatining boshqa sohalari singari – ijtimoiy foydali faoliyatdir. Iqtisodiy tuzumlar nima ishlab chiqarayotgani bilangina emas, balki qanday ishlab chiqarayotgani va qanaqa mehnat qurollari bilan ishlab chiqarayotganligi bilan biri ikkinchisidan farq qiladi, degan g'oya o'qish-o'qitish faoliyatiga ham taalluqlidir deb o'ylayman.



**AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIVAVIY HISOBNING XALQARO STANDARTLARI BO'YICHA XARAJATLAR HISOBI VA AUDITNI TASHKIL ETISH MASALALARI****Xushvaqtova Nozanin Nurbek qizi***Toshkent Moliya Instituti Buxgalteriya hisobi fakulteti**BH-1 guruh 1-kurs magistranti*

**Annotatsiya:** *Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida xalqaro hisob tizimi taraqqiy ettirilishida moliyaviy hisobning xalqaro standartlari muhim o'rin tutadi. Ushbu standartlar mamlakatlar o'rtasidagi hamkorlikni, jumladan iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish va mamlakatlarda investitsion muhitni yaxshilashda muhim vosita sifatida xizmat qilmoqda. Ushbu maqolada aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy hisobning xalqaro standartlari bo'yicha xarajatlar hisobi va auditni tashkil etish masalalari xususida so'z yuritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *Moliyaviy hisob, audit, MHXS, xarajatlar hisobi.*

Ta'kidlash joizki, mulkchilik va tarmoq shaklidan qat'iy nazar, barcha aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy hisobotlarini milliy standartlardan xalqaro standartlar asosida tuzish muhim hisoblanib, xalqaro standartlar asosida tuzilgan moliyaviy hisobotlarni xorijiy investorlar tomonidan tanishish imkoniyatiga ega bo'lishi va o'zining sarmoyasini kiritish bo'yicha yengilliklar tug'diradi. Buxgalteriya hisobi ma'lum bir xo'jalik yurituvchi subyekt to'g'risida moliyaviy ma'lumotlarni aniqlash, qayta ishlash va moliyaviy hisobot shaklida faoliyat yurituvchi subyektning moliyaviy holatiga qiziquvchi foydalanuvchilarga ma'lumotni yetkazib berishni amalga oshiradigan axborot tizimdir. Moliyaviy hisobotni tayyorlash uchun foydalaniladigan buxgalteriya tamoyillarini xalqaro miqyosida bir shaklga keltirish maqsadida Buxgalteriya hisobning xalqaro standartlari bo'yicha Qo'mitasi tuzilgan. Ushbu Qo'mita tomonidan Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari ishlab chiqilib chop etilgan va hamma joylarda tadbiq etish va rioya qilish uchun tavsiya etilgandir. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tishni jadallashtirish orqali xorijiy investorlarni zarur axborot muhiti bilan ta'minlash va xalqaro moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek hisob va audit sohalari mutaxassislarini xalqaro standartlar bo'yicha tayyorlash tizimini takomillashtirish rivojlanib borayotgan davlatlarning oldida turgan asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarining ahamiyati xususida so'z yuritadigan bo'lsak, investorlar va boshqa moliyaviy axborotdan foydalanuvchilar, masalan, davlat organlari, kasaba uyushmalari, biznes-sheriklar o'zlarini qiziqtirgan tashkilot haqidagi ma'lumotdan manfaatdor bo'lishini, bu manfaat esa ularning iqtisodiy, investitsion va huquqiy qaror chiqarishlari zaruratidan kelib chiqishini ta'kidlash zarur.

Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari – moliyaviy hisobotni tayyorlashga umumiy yondashuvni belgilaydigan, keng doiradagi manfaatdor foydalanuvchilar uchun foydali bo'lgan va moliyaviy va xo'jalik operatsiyalarini tan olish, o'lchash va oshkor qilish uchun

talablarni belgilovchi umumiy qabul qilingan talablar, printsiplar, qoidalar va tartiblar tizimi. Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy hisobning xalqaro standartlari bo'yicha xarajatlar hisobi faoliyatining sof moliyaviy natijasini aniqlash uchun hisobot davrida qilingan barcha sarf va xarajatlar to'g'ri taqsimlanishi lozim. Barcha xarajatlar, ishlab chiqarilgan va sotilgan mahsulotlar tannarxiga kiritiladigan xarajatlarga va tannarxga kiritilmaydigan, ammo davr xarajatlariga kiritiladigan xarajatlarga bo'linishi zarur. Davr xarajatlari, soliq to'laguncha bo'lgan foydani hisoblashda inobatga olinadi. Bundan tashqari moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda moliyaviy faoliyat va favqulodda holat bo'yicha xarajatlar ham alohida ko'rsatiladi. Xarajatlar hisobining maqsadi aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy-xo'jalik faoliyati davomida yuz bergan xarajatlarni amaldagi xalqaro standart talablaridan kelib chiqqan holda to'g'ri hisobga olish, hamda axborot foydalanuvchilariga o'z vaqtida, to'liq hamda aniq axborot yetkazib berishdir. Xarajatlar mahsulotlarning tannarxiga bevosita qo'shiladigan quyidagi moddalarda hisobga olinadi:

1. Moddiy xarajatlar.
2. Mehnat haqi xarajatlari.
3. Ijtimoiy sug'urta ajratmalari uchun xarajatlar.
4. Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning amortizatsiyasi.
5. Boshqa xarajatlar.

Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy hisobning xalqaro standartlari bo'yicha audit masalasiga to'xtalar ekanmiz, uning shu sohada faoliyat yuritish huquqiga ega bo'lgan shaxslar tomonidan korxonada moliyaviy axborotining to'g'ri va to'liqligini, ma'lum qonun-qoidalarga asosan tuzilgan yoki ularga mos tushishini tekshirish va natijani manfaatdor tarafga yetkazishga yo'naltirilgan faoliyat ekanligini ta'kidlab o'tamiz. Tahlillar ko'rsatishicha, retrospektiv xususiyatga ega bo'lgan auditorlik faoliyati moliyaviy va xo'jalik operatsiyalarini me'yoriy hujjatlarga muvofiq to'g'ri aks ettirilganini tekshirishga qaratilgan bo'lib, boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun yetarli emas. Bugungi kunda axborotdan foydalanuvchilar auditorlardan iqtisodiy qarorlar qabul qilish uchun asos bo'la oladigan, aksiyadorlik jamiyatining holatini aks ettiradigan ma'lumot olishga umid qiladilar. Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida audit jarayoni yo'nalishi va usuliga ko'ra ikki turdagi vazifalarni o'zida mujassam etishi lozim. Demak, ichki audit xizmatining faoliyati ikki yo'nalishdan iborat bo'lib, ularning birinchisi, aksiyadorlik jamiyati faoliyati natijalarini, ikkinchisi, faoliyat samaradorligini baholashdan iborat. Ichki auditning asosiy vazifasi, aksiyadorlik jamiyati boshqaruvi taqdim etilgan moliyaviy hisobotlarning haqqoniylik darajasi hamda risklarni daromadlilik darajasi bilan o'zaro bog'liq holda tahlil qilish, aksiyadorlik jamiyati samaradorligini oshirish maqsadida dasturiy mahsulotlar sifatini huquqiy jihatdan tekshirish va uni takomillashtirish yuzasidan takliflarni aksiyadorlik jamiyati boshqaruviga taqdim etishdan iborat. Moliyaviy hisobotlarni tekshirish jarayonida auditor asosiy e'tiborni ushbu hisobotlar Moliyaviy Hisobning Xalqaro Standartlari asosida tuzilganini yoki ushbu standartlardan chetga chiqish hollari ro'y bergan holatlarni tekshiradi. Chetga chiqish hollari qanchalik kam bo'lsa, moliyaviy hisobotlar shunchalik qonuniy tusga ega bo'ladi va tashqi foydalanuvchilar uchun ahamiyatli bo'lib boraveradi. Respublikamizda 2015-2018-yillarda barcha aksiyadorlik

jamiyatlari yillik moliyaviy hisobotni nashr etishi va Xalqaro audit standartlari hamda Xalqaro moliyaviy hisob standartlariga muvofiq tashqi audit o'tkazishi belgilangan. Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati samaradorligini oshirish va korporativ tizimini takomillashtirish maqsadida aksiyadorlik jamiyatlarining yillik moliyaviy hisobotlarini moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarga muvofiq tayyorlash hamda nashr qilish ko'zda tutilgan.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Vahobov A., Ibragimov A., Ishonqulov N. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. T.: «Sharq» 2005
2. Ochilov I. Moliyaviy hisob. T.: – «Moliya» 2008.
3. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida banklarda buxgalteriya hisobi. O'quv qo'llanma. Hammuallif – T.: “MOLIYA”, 2010.
4. M.Bonham. Generally accepted accounting practice under IFRS. Ernst & Young. USA, 2010.
5. Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari. Tarjima. A. Rizaqulov, B.Xasanov, A.Usanov, Z.Mamatov. T.: - 2004.
6. Jalolova D. Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari - T.: 2004.

**THE DEVELOPMENT OF ENTREPRENEURIAL ACTIVITY IN THE FIELD OF PUBLIC CATERING AS A FACTOR IN IMPROVING THE QUALITY OF SERVICES FOR THE POPULATION.**

**Habibullo Ziyavitdinov**

*basic doctoral student (PhD),*

*Department of Economics of the service sphere,*

*Bukhara State University.*

In order to increase customer loyalty, we suggest that catering establishments use an approach based on the idea of a bonus reward for a regular customer. The purpose of such a campaign is to stimulate the consumer to purchase services in this institution. The loyal customer bonus system includes a points accumulation system for subsequent free service of choice.

At the same time, an innovative system of remuneration in kind for a regular customer has a number of advantages. Thus, the client not only spends money on a certain range of services, but at the same time "earns" points, which are transferred to a special account of the participant of the corresponding reward program. For example, a client receives 10 points for every ruble spent on paying a bill.

A purely psychologically intangible service gains an element of tangibility. For each unit spent, the client receives a service in the future, for example, a free breakfast or a free snack for dinner, free use of a local telephone, the Internet, etc. The guest is usually issued a plastic card or certificate. The accumulated points make it possible for the client to feel like the owner of something material, which in the future will be transformed into a certain benefit, good.

The loyalty reward program will help to compile a database and thereby analyze what the guest needs and what he expects from the proposed service. Through the database, the restaurant has the ability to constantly and directly monitor the relationship with the consumer in order to maximize the degree of satisfaction of his needs. As a result, the visitor receives a high-quality service that corresponds precisely to his individual specific needs.

This is due to the fact that in recent years, consumers have become more and more demanding. They search for consumer services adapted to their characteristics, seek completeness of information, strive to expand the range and consumption of environmentally friendly products, which characterizes and confirms the common sense and professionalism of consumers.

Enterprises, to a greater extent this relates to the field of restaurant business, should inform regular customers about any innovations, as well as about the possibility of price variations. Establishing an interactive relationship with the client enables the restaurant to anticipate (anticipate) the decisions that the client desires. This also improves the quality of service.

At the same time, the "frequent guest" program assumes a constant expansion of the range of services provided, which encourages managers to look for partners for cooperation. Relationships are established with firms both in their own segment and with firms operating in other market segments.

Considering the high level of competition in the restaurant business services market, we consider it expedient for these enterprises to expand the system of bonuses for regular customers. In particular, you can use a variety of customer coupons. The role of coupons in identifying the real demand for catering services contributes to motivation and material incentives for repeat customer visits.

In particular, in restaurants, for example, three types of coupons can be used for customers:

1. Coupons "courtesy": - pocket coupons, which are available to all employees of the restaurant; - ordinary checks, giving certain benefits to guests on a second visit. Coupons of this type can also be used as a reward for regular customers in order to further attract them to the restaurant.

2. Cross-marketing coupons - used to attract guests during quiet hours (morning and noon hours).

3. Affiliate Coupons - given to loyal customers and encouraging going to the restaurant with close friends.

In the modern leisure and hospitality industry, the services provided by restaurants are becoming more and more homogeneous, and customers are paying increased attention not only to the professional "exclusives" of the chef, but also to how they are served. At the same time, the role of the personal factor in the struggle for the client increases sharply. Service is becoming an important means of competition, and in some areas of business - one of the most important. It's easier to learn how to cook delicious and original dishes than to serve customers correctly.

In parallel with the development of standards, it is important to pay special attention to improving the professional and personal self-esteem of service personnel, effective interpersonal communication: the aesthetics of accepting an order, the manner in which a waiter walks with a tray, a convenient time for updating an ashtray, repertoire and quality of musical accompaniment, etc. It is also necessary to develop the ability to persuade, to be responsive, informed, self-confident.

It is necessary for all restaurant management structures: administrators, hostesses, waiters, bartenders to clearly and in detail explain the algorithm for improving the quality of service. The introduction of training programs is especially effective, especially for waiters, since the waiter is the most demanded person with whom the client most often communicates, and the client's loyalty to the restaurant depends on his effective work. The professional behavior of such an employee becomes especially important in the event of difficult situations. Possession of methods of working with a "problem" client, as well as the presence of clear standards of service, behavior in conflict situations makes it possible not only to retain the client, but also to make him an adherent of restaurant service where this program is implemented.

**REFERENCES:**

1. Innovative development of public. Belova, S.O. Magic, Minsk. 2011. P.23-27.
2. Methodology for assessing the quality of public catering services . I.V. Otteva  
Management in social and economic systems: VI International Scientific and Practical  
Conference: collection of articles. Penza. 2008. P. 111-114.
3. Innovative encapsulation technology of food systems using a by-product of dairy  
production Zhuravlyov R.A., Tamova V.Yu., Poznyakovskij V.M., Penov N.D., Bugayets  
N.A.Foods and raw materials, 2017. № 1. Vol. 5. P. 81-90

## BOSHLANG'ICH TA'LIMDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING O'RNI

**Adirova Rahima Djumanazarovna**

*Qashqadaryo viloyati, Koson tumani*

*48-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limda o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning ma'lumoti va tarbiyasi haqida ilmiy qarashlar ilgari suriladi.*

**Kalit so'zlar:** *ta'lim, tizim, boshlang'ich ta'lim, o'qituvchi, o'quvchi, taraqqiyot, ma'lumot, qobiliyat.*

Barchamizga ma'lumki, ta'lim tizimida, ayniqsa, boshlang'ich ta'limda aktning roli beqiyosdir. Ta'lim o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bo'lib, shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning ma'lumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi. darslarda o'qituvchi o'z bilimi, ko'nikma va malakalarini mashg'ulotlar vositasida o'quvchilarga yetkazadi, o'quvchilar esa uni o'zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo'ladi. O'rganish jarayonida o'quvchilar o'zlashtirishning turli ko'rinishlaridan foydalanishadi, ya'ni o'zlashtirilayotgan ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash hamda amaliyotga tatbiq etishda o'ziga xos tafovutlarga tayanadi. Ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning dars paytidagi hamkorligi, o'quvchilarning mustaqil ishlashi, sinfdan tashqari ishlar shaklida ta'lim va tarbiya masalalari hal etiladi.

Ta'limning maqsadi jamiyat ehtiyojiga mos ravishda shakllanadi. Shunday ekan, ta'lim-tarbiya maqsadi mos va mutanosib bo'lishi kerak. Ilmiy adabiyotlarda ta'limning maqsadi imkoniyat- laridan to'g'ri, aniq, o'rinli foydalanish ko'nikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, milliy g'oyani singdirish, shar- qona tarbiyani shakllantirish, shaxsni ma'naviy boyitishdan iboratligi ta'kidlangan. Ta'limiy ma-qsad asosida o'quvchilarda mustaqil fikrlash, og'zaki va yozma savodxonlikni oshirish, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish orqali ularning muloqot madaniyati takomillashtiriladi. Tarbiyaviy ma-qsad asosida esa ma'naviy, g'oyaviy, nafosat tarbiyasi beriladi. Til o'rganish jarayonida xalqning madaniy-axloqiy qadriyatlariga yaqinlashtirish imkoni paydo bo'ladi. Ulug' donishmandlardan biri «... kelajak tashvishi bilan yashasang, farzandlaringga yaxshi bilim ber, o'qit», degan ekan. Yurtimizda ta'lim-tarbiya tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar haqiqiy ma'noda bir-ikki yillik yoki qisqa davrda samaraga erishishga qaratilgan ish emas, balki chin ma'noda bir necha yuz yillarga tatiydigan o'zgarish bo'ldi, desak xato bo'lmaydi. bu prezidentimizning kelajagimiz, kelajak avlodimiz haqida qayg'urib, yurtimizning barcha farzandlari – mening farzandlarim, ular bizlardan ko'ra kuchli, bilimli va albatta baxtli bo'lishlari kerak, degan g'oyasi zamirida donish- mandlarcha siyosat yotganini ko'rsatadi.

Ma'lumki, ta'limda ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalarini tatbiq etish o'quv mashg'ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan yutuqlarini

amaliyotda qo'llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. bugungi kunda ta'limda «Aqliy hujum», «Fikrlar hujumi», «Tarmoqlar» metodi, «Sinkveyn», «bbb», «beshinchisi ortiqcha», «6x6x6», «bahs-munozara», «Rolli o'yin», FSMU, «Kichik guruhlarda ishlash», «Yumaloqlangan qor», «Zigzag», «Oxirgi so'zni men aytay» kabi zamonaviy texnologiyalar qo'llanmoqda.

Ta'limda o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgaralar fikrini anglash va shu fikrni og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon eta olishga o'rgatish masalasiga e'tibor qaratilgan bo'lib, mustaqil fikrlaydigan, nutq madaniyati rivojlangan savodxon shaxsni kamol toptirish asosiy o'rin egallaydi.

Millatning turmush tarzi, madaniy yaratuvchanligi uning boy tarixiy merosi asosida o'rganiladi.

Bugungi kun o'qituvchidan ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalaridan o'quv jarayonida foydalanishni talab etmoqda. Yuqoridagilardan kelib chiqib, tajribalarimiz asosida dars mashg'ulotlarida interfaol metodlarni qo'llash orqali ta'lim-tarbiya berish yo'llariga doir fikrlar- imizni bayon etamiz.

Xulosa qilib aytganda, AKTlari o'quv mashg'ulotlari samaradorligini oshirishda hammamizga amaliy yordam beradi. Shuningdek, o'quvchilarni o'z yo'nalishini tanlash va mustaqil hayotga tayyorgarlik ko'nikmalarini shakllantirishdek mas'uliyatli vazifani bajarishda yaqindan yordam beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Xadjayeva A.T., G'ofurova T.h., Boshlang'ich ta'limni o'qitish metodikasi. Pedagogika oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. — T.: Moliya-iqtisod, 2007.
2. M. Ochilov. Yangi pedagogik texnologiyalar. - Qarshi: Nasaf, 2000.



## ШАВКАТ РАҲМОН ШЕЪРИЯТИ.

Абраматова Мохичехра Абдураззоқ қизи

Талаба, Термиз давлат университети

**Аннотация:** 80-йиллар ўзбек шеъриятида рўй берган ўзгаришлар, хусусан, ижтимоий мавзунинг устувор кўриниш олиши поэтик тафаккурнинг босқичма-босқич янгиланиши баробарида воқе бўлди. Бу ҳолатлар шоир Шавкат Раҳмон ижодида янада ёрқинроқ кўринади.

**Калит сўзлар:** Устувор, воқеа, ҳолат, ижтимоий.

80-йиллар ўзбек шеъриятида рўй берган ўзгаришлар, хусусан, ижтимоий мавзунинг устувор кўриниш олиши поэтик тафаккурнинг босқичма-босқич янгиланиши баробарида воқе бўлди. Бу ҳолатлар шоир Шавкат Раҳмон ижодида янада ёрқинроқ кўринади. Шеъриятда мавзу, оҳанг ва сўзнинг бир-бири билан уйғун инъикоси бадий мукаммаликни таъминлайди. Шундай экан, ҳар бир ижодкорнинг бу борадаги маҳоратини тадқиқ этиш, нафақат бир ижодкор, балки маълум бир давр шеъриятини яқиндан ўрганиш имконини беради. Биз бу ўринда 80-йиллар шеъриятида бадий образ, аниқроғи, поэтик сўзнинг маъно қирраларини мавзу кўламида янгиланиш жараёнини шоир Шавкат Раҳмон шеърлари мисолида қараб чиқмоқчимиз. Поэтик матн таркибидаги ҳар бир сўз муайян бадий маънога эга. Адабиётдаги бошқа жанрларга нисбатан сўзнинг поэтик маъно олиши шеърий асарда тўлақонли амалга ошади. Айни пайтда, бутун шеъриятга тегишли анъанавий поэтик сўзлар гуруҳини ажратиш кўрсатиш мумкин. Лекин бу анъанавийлик муайян шоир ижодида индивидуал мазмун касб этади. Айни вақтда у ёки бу ижодкорнинг маълум бир поэтик образни нисбатан фаол қўллаши ойдинлашади. Бу ўринда такрорлар келмайди. Ижодкорнинг индивидуал маҳорати сўзнинг маъно қатламларини янгидан очиб боришида кўринади. Тилдаги ҳар бир сўзнинг чекланмаган даражада поэтик имконияти мавжуд. Фақат бу яширин имкониятни ижодкор таланти, маҳорати юзага чиқаради. Турли авлодга мансуб шоирлар шеърияти ўзаро таққосланса, ҳар бир даврга хос фаол поэтик сўз, образли ифодаларни учратамиз. Шавкат Раҳмон шеърларида бу хил поэтик образлар анча. Уларнинг аксарияти шоир ижодида анъанавийлик касб этган. Мисол учун куёш, юлдуз, ой, тоғ, тош, дарё, йўл, булут, дарахт, шамол, шаббода, сукунат, капалак, юрак, кўз, кўнгил, сўз каби образларни келтириш мумкин. Санаб ўтилган образларнинг кўпчилиги бошқа давр шеъриятида, хусусан, мумтоз адабиётда ҳам қўлланилади. Шавкат Раҳмон шеърларида бу образлар мавзу ва оҳангга мос равишда ўз маъно қамровини кенгайтирган. Шоир сўзни қайта кашф этиб янгиланган. Албатта анъанавий образ замиридаги маънолар қатламлари буткул йўқолиб кетмайди, уларнинг қатида маънолар тадрижи сақланади.

Поэтик матн таркибидаги ҳар бир сўз муайян бадий маънога эга. Адабиётдаги бошқа жанрларга нисбатан сўзнинг поэтик маъно олиши шеърий асарда тўлақонли амалга ошади. Айни пайтда, бутун шеъриятга тегишли анъанавий поэтик сўзлар

гуруҳини ажратиб кўрсатиш мумкин. Лекин бу анъанавийлик муайян шоир ижодида индивидуал мазмун касб этади. Айни вақтда у ёки бу ижодкорнинг маълум бир поэтик образни нисбатан фаол қўллаши ойдинлашади. Бу ўринда такрорлар келмайди. Ижодкорнинг индивидуал маҳорати сўзнинг маъно қатламларини янгидан оча боришида кўринади. Тилдаги ҳар бир сўзнинг чекланмаган даражада поэтик имконияти мавжуд. Фақат бу яширин имкониятни ижодкор таланти, маҳорати юзага чиқаради. Турли авлодга мансуб шоирлар шеърляти ўзаро таққосланса, ҳар бир даврга хос фаол поэтик сўз, образли ифодаларни учратамиз. Шавкат Раҳмон шеърларида бу хил поэтик образлар анча. Уларнинг аксарияти шоир ижодида анъанавийлик касб этган. Мисол учун қуёш, юлдуз, ой, тоғ, тош, дарё, йўл, булут, дарахт, шамол, шаббода, сукунат, капалак, юрак, кўз, кўнгил, сўз каби образларни келтириш мумкин. Санаб ўтилган образларнинг кўпчилиги бошқа давр шеърлятида, хусусан, мумтоз адабиётда ҳам қўлланилади. Шавкат Раҳмон шеърларида бу образлар мавзу ва оҳангга мос равишда ўз маъно қамровини кенгайтирган. Шоир сўзни қайта кашф этиб янгилаган. Албатта анъанавий образ замиридаги маънолар қатламлари буткул йўқолиб кетмайди, уларнинг қатида маънолар тадрижи сақланади. Поэтик образнинг воқе бўлишида нафақат шоир бадиий тафаккури, балки замон руҳи, турли ижтимоий қарашлар, эстетик мезонлар ва муайян адабий жараённинг ҳам муҳим ўрни бор. Ушбу омиллар у ёки бу образнинг ўзгача мазмун олишига сабаб бўлади. Чунки ҳар қандай бадиий асар каби шеърлий асар мазмунини яхлитлаштириб турувчи бош ғоя мавжуд. Бош ғоя шеърлий матндаги барча сўзларни яширин тарзда ўз измига бўйсундиради ва бу сўзлар ушбу ғоянинг ифодаси бўлмиш шеърлий матнга тегишли поэтик мазмун ифодалайди. Сўз ана шу жараёнда товланиб, тусланади. Шоирнинг у ёки бу анъанавий образга қандай поэтик маъно юклаганини ўқувчи асарни бошдан охиригача ўқиб, бош ғояни англаб етгандагина қайта кашф этади. Буни шеърлий матндаги барча сўз – образлар мисолида кузатиш мумкин.

Шоир Шавкат Раҳмон шеърлятида фаол қўлланилувчи қуёш образининг маъно қирралари ҳам шоир яшаган давр ва унинг долзарб муаммолари билан боғлиқ индивидуал мазмун касб этган. Қуёш шоир шеърларида нафақат табиат тасвири учун восита, балки у рамзий маъноларга эга. Шоир “Яхши ният” шеърлятида шундай ёзади:

*Келажак бор ҳали бағрида  
юз мингта қуёши порлаган.  
Ишонма ҳеч қачон, ишонма  
қўлида қуроли борларга .*

Бу ўринда қуёш шоир орзу қилган порлоқ келажакнинг метафорик образига айланган. Қуёш табиатдагидек битта эмас, юз мингта. Ана шу юз мингталикнинг ўзи ўқувчи онгида ўзгача ассоциация уйғотади. Матнда қуёшларнинг порлаши ёруғ кунларнинг поэтик ифодаси бўлиб келмоқда. Қуёш образининг маъно қирралари шеърдан-шеърга очила боради. “Одам узоқ яшар” деб бошланувчи шеърда қуёш образи ташбеҳ бўлиб келади:

*... агар дўсти бўлса ҳар қутлуг саҳар  
баҳайбат қуёшдай уйғонадиган .*

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. [www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)
2. [www.literature.uz](http://www.literature.uz)

**UMUMBASHARIY QADRIYATLAR TARMOG‘IDA MILLIY XARAKTER  
XUSUSIYATLARI****Tursunov Ramziddin Abdixalil o‘g‘li***Namangan davlat universiteti talabasi***Munavvarxonova Mahliyoxon Muzaffarxon qizi***Namangan davlat universiteti talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola umumbashariy qadriyatlar hamda uning tizimida milliy qadriyatlarmizning o‘rni, milliy qadriyatlarimizda insoniy jihatlar va ezgulik g‘oyalarining aks etishi borasidagi fikr-mulohazalardan iborat.*

**Kalit so‘zlar:** *qadriyat, fenomen, funktsiya, strategiya, ma‘naviyat, hashar, tarbiya, ma‘rifat, tarbiya.*

Dunyo miqyosida inson o‘z ongli faoliyatni boshlabdiki juda ko‘plab jarayonlar, voqea va hodisalar, og‘ir va mashaqqatli, erkin va halovatli kunlarni boshidan o‘tkazdi. Ushbu davrlar mobaynida insoniy jamiyat o‘zi uchun hayot qonuniyatlari va tabiiy ehtiyojlar, muhim hayotiy zarurat va imkoniyatlar, maqsad hamda intilishlarni belgilab oldi va o‘z ijtimoiy funksiyasini, strategiyasini belgiladi deyish mumkin. Shuni ham alohida aytib o‘tish kerakki, mazkur davr mobaynida inson o‘zlik, jamiyat hayotining doimiy va zaruriy, o‘ziga xos va umumiy kategoriyalari, umumbashariy qadriyatlar tizimini vujudga keltirdi. Buning asosi esa hayot siklining davomli oqimi edi. Ushbu qadriyatlar insonlar va umuman jamiyatning turmush tarzi, ijtimoiy munosabatlari va jamiyat harakterini belgilab beruvchi fenomen vazifasini o‘tab berdi. Umumbashariy qadriyatlar bu eng avvalo, butun bir insoniy jamiyatga daxldor bo‘lgan, zamon hamda makon ijtimoiy doirasida ham o‘z kuchi va harakterini saqlab qola oladigan, har bir ijtimoiy bosqichlarda ham inson hayoti uchun zarur va uning sha‘ni, qadr-qimmatini muhofaza qiluvchi va inson sifatidagi o‘rnini har qanday mavjud materiyadan ustun ekanligini ifodalovchi muayyan qadriyat va an‘analar tizimidir. Uning tarkibi doirasida va obyektida asosan inson omili yotadi. Insoniylik, adolat, hurmat, ezgulik, o‘zaro beg‘araz yordam va boshqalar.

Azal-azaldan ma‘lumki, bizning yurtimiz dunyo miqosida ham madaniyat va shu bilan bir qatorda, ma‘naviyat, ma‘rifat beshiklaridan biri bo‘lib kelgan. Milliy qadriyatlarimizning deyarli ko‘plab jabhalari umumbashariy qadriyatlar bilan monand desak hech ham xato bo‘lmaydi. Unda ilgari surilgan qarashlar va g‘oyalarning asosi ham bevosita inson kamoloti, uning munosib hayot sharoitida yashashi, tinchligi va farovonligi, qadr-qimmatining oyog osti qilinmasligi, shaxs xususiyatining birinchi galga olib chiqilishi buning yaqqol tasdig‘idir. Insoniyat hayotining uzoq davrlik tajribasi ham shuni ko‘rstadiki qayerdagi inson hayoti va erkinligi, uning jamiyatdagi o‘rni barqaror bo‘lar ekan o‘sha yerda fuqorolik jamiyati va taraqqiyot bo‘laveradi.

O‘zbek milliy qadriyatlarining juda ko‘plab jihatlar ijtimoiy hayotda o‘z funksional o‘rni va ahmiyatiga ega. Xususan, birgina milliy davlatchiligimiz va qadriyatlarimizning durdonasi bo‘lgan mahalla tizimiga qaraydigan bo‘lsak, bir tomondan jamiyatda va aholi

o'rtasida birdamlik, ahillik, mehr-oqibat, insoniylik tamoyillarining o'chog'i, negizi deb qaraydigan bo'lsak, ikkinchi tomondan davlat boshqaruvi sohasida mamlakat ijro hokimiyati tizimining eng quyi va shu bilan bir qatorda eng katta qamrovga ega bo'lgan o'zini o'zi boshqarish organi hisoblanadi. Aholiga mamlakat oily vakillik organlari tomonidan ishlab chiqilayotgan va amaliyotga joriy qilinayotgan qonun hujjatlari va islohotlarning samarali amalga oshirilishini ta'minlashda dastak vazifasini o'tab bermoqda. Mahalla tizimi milliy qadryatlarimiz o'chog'i sifatida, o'zida milliy tarbiya, insoniy fazilatlarni qaror toptirgan, kelajak avlod uchun axloqiy kamolot va insoniy hislatlarni shakllantirishda katta ahmiyatga ega hisoblanadi. Xalqimiz orasida "Bir bolaga yeti mahalla ota-ona" degan ibora ham bejiz emas. Yoshlar tarbiyasi va ma'naviy kamolotida mahallaning, mahalladagi yoshi ulug' nuroniyalar, o'z boshidan og'ir va suronli davrlarni o'tkazgan, ulkan hayot tajribasiga ega bo'lgan, ilmli va dono insonlarning pand-nasihatlari va ibrak ko'zgusi yoshlar hayot yo'lining ijobiy tomonga yo'nalishi uchun asos bo'la oladi.

Xalqimiz uchun odatiy holat va jarayonga aylanib qolgan yana bir jihat borki, u alohida taxsin va e'tiborga loyiq hisoblanadi. Bu ham bo'lsa milliy hasharlarimiz tizimidir. Hasharlar tizimi ikki bosqichni o'z ichiga oladi deyish mumkin. Birinchi qismi, umumxalq hayriya hasharlaridir. Umumxalq hayriya hasharlari muayyan bayramlar oldidan butun bir mamlakat miqyosida olib boriladigan jarayon bo'lib, unda e'tiborga loyiq va muqaddas, aholi uchun qadrlil va jamoat joylari obodonlashtiriladi. Navro'z, Ramazan va Qurbon hayitlarda uyushtiriladigan hasharlar shular jumlasidandir. Ikkinchisi esa bu bevosita mahallada mavjud, yangi uyga ko'chib chiqayotgan, o'z uyida imorat qurilayotgan va yoki qurishni boshlayotgan inson xonadonida ushbu ishlarni mahalla a'zolari uyshgan holda o'z hohishlari bilan beg'araz tarzda ijtimoiy yordam berishdir. Ushbu holatlar asosan hozirgi kunda ham millat qalbi bo'lgan qishloq hududlari va shunday mahallalarda an'ana tarzda shakllangan deyish mumkin.

Milliy va diniy bayramimiz bo'lgan Hayit ayyomlaridan bir kun avval, ya'ni Arafa kunlari yaqin atrofdagi qo'ni qo'shni va mahalladagi yoshi ulug' insonlar xonadoniga milliy taom bo'lgan palov olib borish va shu bilan birga ular holidan xabar olish, ular og'irin yengil qilish, ishlariga yordam berish an'anasi ham yuksak insoniy vaq milliy karakter, millatimizga xos qadryat va umumbashariy qadryatlarning eng oily ko'rinishi hamda kategoriyasi hisoblanadi.

Xulosa o'rnida shuna aytish mumkinki, hozirgi kunda har qaysi millatning va umuman butun bir jamiyatning asosini umumbashariy va milliy qadryatlar tashkil etadi va inson turmush tarzi va hayotiy faoliyatini belgilab beradi. O'zbek milliy qadryatlarida esa eng yuksak insoniy fazilat va hislatlar mujassam bo'lgan. Ushbu holat butun insoniyat uchun ibrat olsa arzigulik holatdir. Uni asrab avaylash va kelgusi avlodlarga borligicha yetkazib berish va millatimizning yuksak insoniy qadryatlarini asrab avaylash shu millatning har bir a'zosining insoniy burchi hisoblanadi. Shu o'rindi ulug' jadid bobomizning so'zlari fikrlarimizning yaqqol tasdig'i bo'la oladi:

Millatim nasli bashatdur, Vatanim kurrayi arz!

Ikkisin xizmati farzdur, Ikkisidin jon qarz!

**Hamza Hakimzoda Niyoziy**

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. B.Isoqov. Ma'naviyat – taraqqiyot me'zoni. Namangan 2018
2. I.Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent 2008
3. Internet ma'lumotlari: xabar.uz, xalq so'zi.uz

**TARBIYA JARAYONINING SAMARADORLIGINI OSHIRUVCHI  
PSIXOLOGIK MEXANIZMLAR****Ilashev Qurbonali Qayumjon o'g'li***Samarqand davlat universiteti talabasi***No'monov Otabek O'rmonjon o'g'li***Namangan muhandislik texnologiya instituti talabasi*

**Anotatsiya:** *Bugungi shiddatli zamonda kelajak avlodni ma'naviy yuksak fazilatlar egasi qilib tarbiyalash, ko'zlangan ezgu maqsadga erishish, haqiqiy vatanparvar, haqiqiy fuqaro etib yetishtirish tarbiyachining bosh maqsadidir.*

**Kalit so'zlar:** *Tarbiya, axloq, psixologik mexanizmlar, ijtimoiylashuv, egotsentrik, texnologiya, funksiya, ierarxiya, sfera.*

Adabiyot shaxs tarbiyasida bosh omil, inson ruhi va qalbining tarjimoni va ayni chog'da tarbiyachisi hisoblanadi. Shu bois ham adabiyotning inson kamolotidagi o'rni beqiyos. Unda har bir xalqqa xos milliy g'oyalar, milliy ruh aks etadi. Biz adabiyotning sehrli va sirli dunyosiga yozuvchi va shoirlar tomonidan yaratilgan asarlar orqali kirib boramiz. Bu olamda biz o'tmishga sayohat qilamiz. Ba'zan bolalikning jo'shqin, ba'zan esa keksalikning horg'in damlarini, muhabbatning totli lahzalarini his qilamiz, qaro qismlarga guvoh bo'lgan holda baxtli hayotimizga shukrona aytishni o'rganamiz. Turli xil insonlar qismati bilan yashaymiz, ularning ruhiy kechinmalarini birgalikda his etamiz. Bularning barchasi badiiy adabiyotdagi obrazlar sistemasi orqali asarlarga singadi va o'z o'quvchisini topadi. Yozuvchi personajlarni tasvirlashda portretlarini psixik holat orqali yanada yorqin tasvirlaydi.

Yozuvchi yoki san'atning istalgan soha vakili badiiy obraz vositasida dunyoni anglaydi va ana shu hodisalarga o'zining hissiy munosabatini bildiradi. Shu sababdan kelib chiqib adabiyot va san'at obrazlar vositasida fikrlaydi.

Tarbiyali bo'lish - bu xulq-atvorini nazorat qilishdan iboratdir. Bunday nazorat insonga yomon hatti-harakatlarni bajarmaslik imkoniyatini beradi. Agar shaxs xulq-atvorini axloqiyligi haqida qayg'ursa, u ijtimoiylashuvga erishgan bo'ladi.

Tarbiyalanganlik ijtimoiylashuvni o'rganish jarayoni sifatida qaraladigan yosh psixologiyasida olingan natijalarga asoslanadi. Bola o'zini egotsentrik emas, balki tarbiyali tutishi uchun tarbiyalanganlik qanday rag'batlantirilishi kerak? Tarbiya o'z mohiyatiga ko'ra ijtimoiy jihatdan ijobiy ehtiyojlarni hosil qilishidir. Agar ta'lim shaxsning ongini shakllantirish bo'lsa, tarbiya uning ongsizlik sferasiga ta'sir etishdir. Bolalarga ularni tarbiyalaydiganlarga hissiy yaqinlik xos. Odatda 6 oylik bolalar unga g'amxo'rlik qiladigan ota-onasiga bog'lanib qoladilar. Ota-onaning oldida, ular bilan muloqotda bo'lish bolalarga juda yoqadi, ularning yo'qligi bolaga yoqmaydi. Ota-onaning g'amxo'rligini bildiradigan so'zlar, hatti-harakatlar bola uchun juda katta ahamiyatga ega, uni erkalamaslik, suymaslik salbiy ahamiyatga ega bo'ladi. Xulq-atvorning dastlabki ijtimoiylashuvi xuddi shu o'rganish jarayoni orqali sodir bo'lishi mumkin: xulq-atvorning istalgan shakllari g'amxo'rlik va

e'tibor bilan taqdirlanadi, kutilmagan shakllari esa qo'llab-quvvatlanmaydi. Lekin, yaxshi xulq-atvorni rag'batlantirish va yomon xulq-atvor uchun jazolash axloqiy ijtimoiylashuvning kichik bir qismidir. Biz ko'rib chiqqan xulq-atvor hamma bolalarga ham taalluqli emas. Bolalarni tarbiyalash samaradorligini oshirishda an'ana va urf-odatlarining roli katta. Xalq urf-odatlari, an'analari va marosimlari katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Ular odamlarni bir-biriga yaqinlashtiradi, do'stlik-birodarlik his-tuyg'ularini rivojlantiradi. Bular o'z navbatida yoshlar uchun ibrat namunasini o'taydi.

Mustaqil jamiyatning baxt-saodati yo'lida halol mehnat qilish, jamiyat boyligini saqlash va ko'paytirish yo'lida har bir kishining tinmay g'amxo'rlik qilishi, ijtimoiy burchni yaxshi anglash, jamiyat hayotida va shaxsiy hayotda halollik va rostgo'ylik, axloqiy sofdillik, odamiylik va kamtarlik, milliy va irqiy adovatlariga aslo yo'l qo'ymaslik va shu kabilar tarbiya jarayonining muhim xislatlaridir.

Tarbiya jarayonida g'amxo'rlikning funksiyasi kattadir. Bolalar befarq ota-onalarga nisbatan g'amxo'r ota-onaga ko'proq taqlid qiladilar. G'amxo'r ota-onalar bolaning salbiy xulq-atvorini qo'llab-quvvatlamaganda, bola o'z hatti-harakatlarining oqibatini ertaroq anglaydi. Tarbiyaviy jarayonni amalga oshirishda g'amxo'rlik bilan bir qatorda yaxshi ko'rishga asoslangan intizomga rioya qilish zarurdir. Bu bola bilan doimiy muloqotni tushuntirishni, muhokama qilishni, agar bolaning xulq-atvori shuni talab qilsa, og'zaki tanbeh berishni, yaxshi xulq-atvor uchun taqdirlashni nazarda tutadi.

Tarbiya jarayonining texnologiyasini quyidagicha sharhlash mumkin:

1. Tarbiyalanuvchini alohida takrorlanmas, individuallik sifatida tushunmoq lozim. Unint ehtiyojlari strukturasi aniqlash kerak.

2. Ijobiy emotsiyalar vositasida ijobiy xulq-atvor odatlarini shakllantirmoq kerak. Ong ham, iroda ham motivlar ierarxiyasini shakllantira olmaydi. Zotan, bir ehtiyojning o\_rnini faqat boshqa ehtiyojgina egallashi mumkin.

3. Shu ehtiyojlarni qondirish vositalari bilan bolani qurollantirish tarbiya va tarbiyachidan muloqotni ham, hamdardlikni ham emas, aynan shu vositalar bilan qurollantirishni kutadi.

Arastu aytganidek: «Tarbiya uch narsaga ehtiyoj sezadi: iste'dodga, ilmga, mashqqa»

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mavlonova R., Rahmonqulova N, Normurodova B, — Tarbiyaviy ishlar metodikasill- 2010

2. Ishmuhammedov R, Abduqodirov A, Pardayev A — Tarbiyada innoovatsion texnologiyalarl- Fan va texnologiyasi 2010

3.Egamberdiyeva N.M —Tarbiya pedagogikasi va psixologiyasill. A. Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxona nashriyoti.

4. Abdullayeva Sh va Muxsiyeva A larning —Tarbiyaviy ishlar metodikasill 2010



## JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR

**Abdusalomova Go'zaloy Baxodirjon qizi**

*Andijon viloyati, Shahrixon tumani*

*64-umumiy o'rta ta'lim maktabi*

*jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada jismoniy tarbiya darslarida innovatsion texnologiyalar qo'llash va ularning ahamiyati haqida bo'lib, maqolada ba'zi metodlar tahlil etilgan.*

**Kalit so'zlar:** *jismoniy tarbiya, ta'lim, interaktiv metod, innovatsion texnologiya.*

Hozirgi kunda ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalar va interaktiv metodlarni qo'llashga qiziqish tobora keng tus olmoqda. bunday metodlarni qo'llash ta'lim samaradorligi va ta'sirchanligini oshiradi, o'quvchilarning o'qish motivlarini o'stiradi. Innovatsiya (inglizcha innovation) yangilik yaratish, yangilikdir. demak, an'anaviy ta'limdagi kabi bir xil shablonlar asosida emas, balki yangiliklar asosida ta'lim jarayonining ta'sirchanligini oshirishga qaratilgan ish shaklidan foydalanish innovatsiya demakdir. Ta'limda pedagogik texnologiyalarga asoslanish va innovatsiyaga intilish, o'quvchilarni faollashtirishga qaratilgan turli interaktiv metodlardan foydalanish ta'lim maqsadini samarali amalga oshirishga yordam beradi.

Bu texnologiyada kommunikativ metodlardan keng foydalaniladi, ularningn ayrim asosiy belgilarini ko'rib chiqamiz. Interfaol ta'lim usuli – har bir o,,qituvchi tomonidan mavjud vositalar va o'z imkoniyatlari darajasida amalga oshiriladi. bunda har bir o,,quvchi o,,z motivlari va intellektual darajasiga muvofiq ravishda turli darajada o'zlashtiradi. Interfaol ta'lim texnologiyasi

– har bir o'qituvchi barcha o'quvchilar ko'zda tutilgandek o'zlashtiradigan mashg'ulot olib borishni ta'minlaydi. bunda har bir o'quvchi o'z motivlari va intellektual darajasiga ega holda mashg,,ulotni oldindan ko'zda tutilgan darajada o'zlashtiradi. Interaktiv usullarning barchasida ham o'qituvchi va o'quvchi faoliyati o'rtasidagi hamkorlik, o'quvchining ta'lim jarayonidagi faol harakati ko,,zda tutiladi. Masalan, biror bir mavzuni o,,rgatishda uni **modellash** qismida o,,qituvchi o,,quvchilarga modelni namoyish qilish oldida “Aqliy hujum” metodidan foydalanishi mumkin. Ya'ni o'quvchilar qo'yilgan muammoni qanday tushunishlari va ko'nikmani qanday egallashlari mumkinligi ulardan so'ralib, ularning fikrlari umumlashtiriladi. bunda o'quvchilar fikri mutlaqo tanqid qilinmaydi. **Amaliy boshqaruv** qismida o'qituvchi “**Hamrohingga o'rgat**” metodidan foydalanishi mumkin. bu metod darsni optimal tashkil etishga imkoniyat yaratib, o'quvchilarning o'z faoliyatini tanqidiy nazorat qilish va xatolarni bartaraf etishga o'rgatadi. Tushunchalarni tekshirishda o'qituvchi turli interaktiv metodlar (“Bumerang”, “Charxpalak”, “Aql charxi” va boshqalar)dan foydalanishi mumkin. Masalan, “charxpalak metodi”. O'quvchilar guruhlariga bo,,linib, ularga topshiriqlar yozilgan varaqa tarqatiladi. O'quvchilar topshiriqni bajarganlaridan keyin ularning ishlari guruhdagi boshqa o'quvchilarga tarqatildi. Ular tegishli o'zgartishlar kiritganlaridan keyin yana boshqa o'quvchilarga beriladi va shu tarzda

o‘quvchilarning har birining ishi guruhdagi barcha o‘quvchilar qo‘lidan o‘tadi va oxiri o‘ziga qaytadi. har birlari o‘zlari nuqtai nazaridan ishga o‘zgartirishlar kiritishlari mumkin. keyin o‘qituvchi to‘g‘ri javobni ko‘rsatadi. bu usulda o‘quvchilar ijodiy fikrlashga, o‘z fikrlarini erkin bayon etishga va o‘z kamchilik larini bilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. “Aql charxi” usulida o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi, nutq ravonlashadi, tez va to‘g‘ri javob berish malakasi shakllanadi. bu o‘yinda ikki yoki uchta o‘quvchidan iborat guruhchalar ishtirok etiladi. birinchi o‘quvchi mavzuga doir terminlardan birini aytadi. Ikkinchi o‘quvchi birinchi o‘quvchi aytgan terminni qaytaradi va o‘zi ham bitta termin aytadi. Uchinchi o‘quvchi avvalgi ikkita terminni qaytaradi va bitta termin qo‘shib aytadi. Yana birinchi o‘quvchiga navbat keladi, u ham avvalgi uchta terminni qaytaradi va o‘zi bitta termin qo‘shib aytadi. Qaysi o‘quvchi adashib ketsa yoki aytilgan terminlardan qaytarib aytsa o‘yindan chiqadi. Shu tariqa o‘quvchilar guruhi davom etadi. bu o‘yinni tashkil etishda maqsad aniq bo‘lishi va o‘quvchilarning qaysi bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashlariga e‘tibor qaratilishi muhim. Masalan: sport turlarini ayting: 1-o‘quvchi: futbol; 2-o‘quvchi: futbol

– voleybol ; 3- o‘quvchi: futbol – voleybol – boks 4-o‘quvchi: : futbol – voleybol – boks–tennis; 5-o‘quvchi : futbol – voleybol – boks–tennis – karate; 6-O‘quvchi: futbol – voleybol – boks– tennis – karate va boshqalar. O‘quvchi so‘zlarni ketma-ket aytishda xatoga yo‘l qo‘ysa o‘yindan chiqadi. Xuddi shu taxlitda “Sport turlari” va boshqa mavzularini o‘rganishda ham bu o‘yindan foydalanish mumkin. Ayniqsa bu o‘yin darslarni umumlashtirish va takrorlash darslarida qo‘l keladi. Jismoniy tarbiya darslari jarayonida o‘quvchilarning o‘qish motivini rivojlantirish katta ahamiyatga ega. chunki motiv o‘quvchilarni ta‘lim jarayoniga qiziqtiradi, o‘quvchilarning darsga faol qatnashishga, bilimlarni egallashga undaydi. Interaktiv metodlar o‘qish motivini rivojlantirishga katta yordam beradi. Masalan, **“Baxtli tasodif” usuli.** “Baxtli tasodif” usuli orqali mavzu yuzasidan uyga berilgan topshiriqlarni nechog‘lik o‘rganilganligini aniqlash oson bo‘ladi. buning uchun qog‘ozdan kartochkalar tayyorlanadi va har bir kartochkaga 2-3 tadan savollar qo‘yiladi. faqat bitta kartochkaga “Yutuq “5” baho” deb yoziladi. Shu yutuqli kartochka kimga tushsa “baxtli tasodif” sohibi hisoblanadi va bugungi darsda eng yuqori ballni oladi. Savolli kartochkalar olgan o‘quvchilar ham savollarga bergan javoblari asosida baholanadilar. Masalan, jismoniy tarbiya darsida “baxtli tasodif” o‘yini quyidagicha tashkil etilishi mumkin: “Baxtli tasodif” o‘yini uchun tuzilgan kartochkalar:

Baxtli tasodif – 1. Jismoniy tarbiya prinsiplari qaysilar? Jismoniy tarbiya sistemasining asosini nimalar tashkil qiladi?

Baxtli tasodif – 2 Jismoniy tarbiyaning xarakterli belgilari? Voleybol qanday sport turi?

Baxtli tasodif – 3 Jismoniy mashqlar ta’sirini aniqlaydigan omillar? basketbol qanday o‘ynaladi?

Baxtli tasodif – 4 Yutuq «5» baho. Bunday usullar o‘quvchida bilimga ishtiyok uyg‘otadi. O‘quvchi darslarga puxta hozirlik ko‘rishga intiladi.

Xulosa qilib aytganda interaktiv usullar darsning qiziqarliligi va ta’sirchanligini oshiradi, o‘quvchilarni ta‘lim jarayonining faol subyektlariga aylantiradi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. 1. A.D.Novikov “Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi” O‘qituvchi nashriyoti, 1975.
2. 2. P.N. Kazakov “Futbol” Toshkent, “O‘qituvchi” nashriyoti, 1981.

**FIZIKA KURSINI O'QITISHDA INNOVATSION FAOLIYATNI TASHKIL ETISHNING METODIK SHART-SHAROITLARI****Dilshod Hojiyev Dilmurodjon o'g'li***Buxoro viloyati, Shofirkon tumani,**21-sonli maktabning o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari.*

**Annotatsiya :** *Ushbu maqolada yurtimizda innovatsion faoliyatni yaxshilashga qaratilgan shart - sharoitlar, ularni amaliyotga tatbiq e'tilishi, qolaversa aynan maktablarda, litseylarda va oliy ta'lim muassasalarida fizika kursini oqitishda innovatsion texnologiyalarni roli va ularning ba'zilar haqida ma'lumotlar keltirilgan. Hususan yangi O'zbekistonimizni qurishda, yoshlarni bilimni oshirish uchun ham innovatsion faoliyatni ro'li.*

**Kalit so'zlar :** *innovatsiya, innovatsion faoliyat, ish, kuch, energiya, molekula, massa, elektrik maydon, dinamika qonuni, o'zgarmas to'k, munozara metodi, klaster usuli.*

**Eng katta boylik – ilm, ma'rifat,****Eng katta me'ros – yaxshi tarbiya,****Eng katta qashshoqlik – bilimsizlikdir.***Sh.M. Mirziyoyev*

**Kirish .** O'zbekiston maktablarida fizika kursi ikki bosqichda o'rganiladi. Kursning bunday tuzilishi o'rta maxsus ma'lumot berishga mos keladi va fizika asoslarining o'quv fani sifatida o'ziga xos xususiyatlari bilan bo'lib ?. Fizik tushunchalarning shakllanishi uzundan uzoq jarayon hisoblanadi. Kuch, massa, Ish, energiya, molekula, elektr zaryad, maydon to'g'risidagi tushunchalar; fizikaning asosiy qonunlari energiya ning saqlanish va bir turdan boshqa turga aylanish qonuni, dinamika qonunlari, o'zgarmas tok qonunlari; moddalarning elementlik, platsiklik, murtlik, mustahkamlik, qovushqoqlik (yopishqoqlik), siqiluvchanlik, Issiqlik o'tkazuvchanlik, elektr o'tkazuvchanlik kabi va boshqa xossalari to'g'risidagi tasavvurlar kursning ayni bir joyda tarkib topshi va puxta o'zlashtirilishi mumkin emas. Bu tushuncha, qonun va xossalari o'quv materialining murakkablashib borgan sari, fizik kursining har xil jismlarida bir necha marta takrorlashda, hodisa va munosabatlarni o'rganish natijasida, uzoq muddat ichida sekinatsa o'zlashtiriladi. Buning hammasi fizikani takror o'rganishni talab qiladi. Shularni hisobga olgan holda, fizikaning o'rganishni umumiy o'rta ta'limda to'g'ri, bir tekis, ketma-ketlikda hajmi jismlarini o'lish mo'ljallangan bo'lib, (kursning tugallangan formasi), akademik-litsey va kasb-hunar kollejlarda fizika kursining murakkab materiallarini takror o'qitish mo'ljallangan.

Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda fizika kursi ancha yuqori saviyada o'rganiladi. Ta'lim oluvchilarning o'rta umumta'lim maktablarida olgan bilim va malakalari yanada rivojlantiriladi, kengaytiriladi va cho'qurlashtiriladi.

Fizika kursi anchagina murakkab kurs , fan hisoblanadi. Bu shu paytgacha o'rganib , yagiliklarlar yaratildi. Endilikda kelajak avlodlarimizni , yoshlarimizga ham fizikani barcha jihatlarini to'lig'icha yetkazish bizning , pedagoglarning muhim fazifasi hisoblanadi.

Endilikda yoshlarning saviyasi anchagina baland bo'lib bormoqda. Chunki biz ommaviy axborotlar rivojlangan mamlakatda yashamoqdamiz . Yoshlarni ilmi , bilimi oshgani sayin biz pedagoglar ham yangicha metodlar va yangicha innovatsiyalar yaratishimiz zarur bo'ladi.

**Dolzarbli.** Bilishimiz kerakki , har bir pedagog o'z doirasida bilim saviyasiga ega. Maktablarda innovatsion metodlardan foydalanish uchun ham o'qituvchilarda shunga yarasha malaka va bilim , tashabbuskorlik talab e'tiladi. Har bir pedagogni o'z o'qitish uslubi , metodikasi bo'ladi. Pedagog o'quvchilarni tilini topa bilishi kerak bo'ladi. Innovatsion metodlardan foydalanish o'quvchilarni bilimini oshirishga ancha yordam berdi. Hususan hozirda Fizika fanini o'qitishda qo'llash mumkin bo'lgan bazi metodlar bilan tanishamiz.

**Asosiy qism.** Munozara metodi : Dars jarayonini yanada qiziqarliligini ta'minlovchi metod. Odatda dars jarayonida asosan o'qituvchi dars otadi, o'quvchilar esa tinglab otiradi, vaholangki bu paytda ba'zi o'quvchilar orasida zerikish hissi paydo bo'ladi. Shu zerikishni keltirib chiqarmaslik uchun pedagog darsni munozara holatida otsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Misol uchun : ustoz dars o'tishni boshladi. O'quvchilar ham bugungi mavzu haqida ozgina bilimga ega bo'lib kelishlari talab etiladi. Uyda faqatgina o'tgan mavzuni emas bugungi mavzuni ham o'qib kelishsa , bu yerda shu bugungi mavzu bo'yicha tushunmagan narsalari haqida ustoz bilan munozara shaklida dars o'tilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu metod jarayonida o'quvchilarni darsga qiziqishi ortadi , qolversa bilim saviyasi ham sezilarli darajada o'zgaradi.

*Tanqidiy tafakkur. Tanqidiy tafakkur usuli o'qituvchi qo'ygan masala yoki muammoni o'quvchi o'z fikrini bayon qilish, o'zgalarning fikrlarini tanqidiy qayta idrok etish, o'z nuqtai nazarini asoslab berish va saqlab qolish imkoniyatiga ega bo'lishiga asoslanishidir.*

*Debatlar. O'z nuqtai nazarini asoslashda guruhdagi barcha o'quvchilar (yoki asosiy qismi) ning bahslashuvda faol ishtirok etishni ta'minlovchi o'qitish usulidir. Bu usuldan foydalanish tanqidiy tafakkurni rivojlantiradi. O'quvchilar o'z nuqtai nazarini ishlab chiqishi, uni taqdim etishi, himoya etishi, so'ngra raqib nuqtai nazarini rad etishi kerak. Bahs haqiqatni yuzaga keltirgani bois, o'qituvchi guruhni ikki guruhga bo'lgan holda munozarani atayin avj oldiradi.*

*Aqliy hujum. Bu usul ijodiy hamkorlik, birga fikrlash, hamjihatlik darsi, har kim o'z fikrini ayta oladigan va aytishi zarur bo'lgan erkinlik darsidir. Darsga qancha ko'p va yaxshi tayyorlansang, shunchalar o'zingni eshitishga, do'stlaringa gapirishga istak tug'iladi. Aqliy hujum usuli o'quvchilarning o'zlari oldingi o'tilgan mavzulardagi formulalardan foydalangan holda formulalarni chiqarib isbotlab beradi.*

*Masalan, «Tekis tezlanuvchan harakatda ko'chish», «Tezlik bilan ko'chish orasidagi bog'lanish», «Kinetik va potensial energiya» va boshqa formulalarni chiqarib beradi.*

*Tekis tezlanuvchan harakatda ko'chishda doskaga quyidagi formulalarni*

*yozib  $S = v_0 t + at^2 / 2$  formulani „Aqliy hujum“ usulida chuqarish tavsiya qilamiz* 1 )  $v_{ypm} = S / t$  2 )  $S = V_{ypm} t$  3 )  $V_{ypm} = v_0 + v / 2$  4 )  $v = v_0 + at$

*O'quvchilar 2 , 3 , 4-formulalardan foydalanib  $S = v_0 t + at^2 / 2$*

*chiqarib, tushuntirib beradilar. Mana shunday dars kashfiyotdir. O'quvchi ham o'qituvchi ham darsga xuddi shu narsa uchun ikki tomonlama ijod, hamkorlik sevinchi uchun, o'quv faoliyatida darsdan xuddi yozuvchi darajasida foydalanish quvonchi uchun kelishadi. Formula qanday shaklda bo'lmasin, u mohiyatni ochishga, to'plash, saralash, aniqlash va quyushtirishga, o'quvchidagi oqilona ruhni va shu asosidagi estetik ruhni va mavzuni tushunishga o'rgatadi. Hamma formulalarni bir yerga to'plab va ana shu formulalardan boshqa formulani topishga yordam beradi. Aqliy hujum usuli bu oddiy formulalardan tortib murakkab formulalarning topishning oqilona yo'lidir. Masalalari yechishda ham xuddi shu usullarni qo'llash yaxshi natijalar beradi.*

**Xulosa.**

*Bitiruv malakaviy ishning mazkur bobida fizika faniga pedagogik va innovatsion texnologiyalarni joriy qilish usullari hamda akademik litseylarida fizikani o'qitishda axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati tahlil qilindi. Shuningdek, dars jarayonida pedagogik va innovatsion texnologiyalardan foydalanish namunalari keltirildi. Biz pedagoglar doimo izlanishda bo'lib yangicha metodikalar ishlab chiqishga harakatdamiz.*

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :**

1. B.B.Mo'minov, N.I.Kamolova. Flash texnologiyasi & Action Script. Buxoro 2010. 38-42-b.
2. Qarshi davlat universiteti Fizika va uni o'qitish metodikasi kafedrasida „Fizika o'qitish metodikasi“ fanidan majmua Qarshi 2010 y
3. M.T.Hojiyev, K.T.Olimov. Elektron darsliklarni yaratish texnologiyasi va sifatini baholash metodikasi. – T. “Fan nashriyoti” 2005 y. 72-b.
4. K.T.Olimov. Kasb hunar ta'limi tizimida maxsus fanlardan elektron darsliklarga qo'yiladigan talablar, ularni yaratish texnologiyasi va uslubiy ta'minoti, kasb mahorati. O'zbekiston Respublikasi o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi axborotnomasi. 2004 y. №5 76-109-b.
5. Karlibayeva Guljahan Ermekbayeva . FIZIKA O'QITISH METODIKASI FANINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI. O'quv uslubiy qo'llanma. Toshkent – 2014.

## PARDA TURSUN

Fazliddin Mamasidiqov

NamDU, Tarix yo'nalishi talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'z davrining fidokor pedagogi sifatida ta'lim berish uchun bir maktabni tanlagan va ana shu maktabdan yuqoriga zinama-zina chiqib borgan shaxs – Parada Tursun haqida so'z boradi. Adibning ilmiy faoliyati, qilgan ishlarining samarasi, yozgan asarlarining ahamiyati haqida quyida ma'lumot beriladi.

**Kalit so'z:** Sho'ro davri, Chorkesar, Toshkent, "Batrak" gazetasi, "Qizil O'zbekiston" ro'znomasi, dastlabki hikoya, "Domla", "Haq yo'l", "O'qituvchi" romani, o'zbek o'qituvchisi, Elmurod.

Sho'ro davri o'zbek adabiyotining ko'zga ko'ringan vakillaridan biri jamoat arbobi Parada Tursundur. Uning asl ismi Tursunov Parada bo'lib, 1909-yilning 11-iyulida Namangan viloyati, Pop tumanidagi Chorkesar mahallasida (qishlog'ida)gi dehqon oilasida tug'ilgan<sup>1</sup>. Ota-onadan erta yetim qolgan Parada Tursun qiyinchilikda hayot kechiradi. Ayovsiz yillar shamoli uni 1918-yilda Chorkesar qishlog'idan Toshkentga yetaklaydi. Boylar eshigida xizmatkor bo'lib kun kechiradi. Undagi ilmga tashnalik 1923 – 1927-yillarda Almaiy nomidagi o'lka O'zbek namuna ish-maktabiga olib keldi. 1927 – 1928-yillarda Toshkentdagi Karl Marks nomli pedagogika bilim yurtida o'qiydi<sup>2</sup>. "Batrak" gazetasida mas'ul kotib bo'lib faoliyat yuritadi (1930 – 1931). So'ngra, Toshkent viloyatining Piskent tumanidagi maktablarda o'qituvchilik qiladi. Parada Tursunning adabiyotga qiziqishi xuddi shu davrdan boshlangan bo'lib, "Qizil O'zbekiston" ("O'zbekiston ovozi") ro'znomasi muharririyatida adabiy xodim bo'lib ishlay boshlaydi (1931 – 1934; 1939 – 1940). 1929 – 1934-yillarda mazkur ro'znomasi sahifalarida o'zining xabar, ocherk, hikoyalarini chop ettiradi. 1930-yillarga kelib, uning "Alvasti" (1929), "Zo'rlik" (1932) nomli dastlabki hikoya to'plamlari e'lon qilinadi<sup>3</sup>.

Parada Tursun 1934 – 1935-yillarga kelib, adibning "Ostonada", "Qo'ldosh va Marusya", "Bir xotinning tarixi" kabi bir necha hikoyalari yaratiladi.

Parada Tursunning ijodiy faoliyatida "Domla" (1937) hikoyasi muhim ro'l o'ynaydi. Mazkur hikoyaning syujet chizig'ini aytish mumkinki, adibning butun umri davomida yaratgan o'rta va yirik asarlari uning sahifalariga ko'chdi, qissa va romanlarining bosh mavzusiga aylandi.

Parada Tursun bu yillarda zamondoshlari hayotidan olingan bir qator hikoyalar, o'nlab ocherklar yaratdi. Uning "Dadajon rais" (1932), "Yangi raislar" (1933), "Majlisda" (1934), "Quvnoq hayot" (1935), "Yaylovda" (1935), "Traktorchi" (1935) kabi ocherklari shular

<sup>1</sup> Қўлдошев Т., Қўлдошев Ш. Поп тумани тарихи. – Т.: Шарк, 2020. –Б. 208.

<sup>2</sup> <https://saviya.uz/hayot/tarjimai-hol/parda-tursun-1909-1957>

<sup>3</sup> Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Том 9. "П" харфи.– Т.: Давлат илмий нашриёти, 2001. –Б.78.

jumlasidandir. Adib hikoyalari kabi ocherklarida ham o'zbek ziyolisining bosib o'tgan yo'li, kurashi haqida hikoya qiladi<sup>4</sup>.

Parda Tursun 1935 – 1936-yillarda O'rta Osiyo plan-iqtisod institutida ma'lum bir vaqt ta'lim olgach, O'zbekiston Markaziy Ijroiya Qo'mitasi raisining kotibi (1937 – 1938), O'zbekiston Telegraf agentligi (1940 – 1945)da adabiy xodim va muharrir, partiya tarixi institutida ilmiy xodim (1948 – 1950) bo'lib faoliyat ko'rsatgan. Urushdan keyingi yillarda oliy o'quv yurtida talaba, o'qituvchi, nashriyotlarda muharrir bo'lib faoliyat ko'rsatdi.

Parda Tursun 1947-yili uning birinchi yirik asari – “Haq yo'l” nomli qissasi chop etiladi. Undagi bosh qahramon Xolmurod Do'stmatovning hayot yo'li timsolida adib tarjimai hol emas, o'zbek ziyolisining bosib o'tgan mashaqqatli yo'li gavdalantiriladi. Qissa keyinroq “O'qituvchining yo'li” nomi bilan o'zbek va rus tillarida chop etiladi. 1950-yillarga kelib, mazkur qissa qayta ishlanib, “O'qituvchi” nomi bilan mustaqil bir asar — roman sifatida nashr etiladi. Undagi bosh qahramon Elmurod obrazi, hatti-harakati va xarakteri vositasida o'zbek ziyolisi – o'qituvchisining hayoti va kurash yo'li umumlashmasiga ko'tarildi.

Parda Tursun jurnalist, o'qituvchi, noshir va publitsist, ocherknavis va hikoyanavis, qissanavis va romannavis bo'lishi bilan birga mohir tarjimon ham edi. U Saltikov Shchedrin, A.Tolstoy, Emil Zolya, Gi de Mopassan asarlarini o'zbek tiliga o'giran. Uning asarlari ko'plab qardosh va xorijiy tillarga tarjima qilingan<sup>5</sup>.

Atoqli va sevimli yozuvchi Parda Tursun 1957-yilning 28-sentabrida Toshkent shahrida vafot etdi. Uning qilgan salmoqli ishlari va mehnatlarini inobatga olib bugungi kunda ko'cha va obyektlar nomi Parda Tursun nomi bilan atalib kelinmoqda. Shuningdek, o'zi tug'ilib o'sgan Namangan viloyati, Pop tumanida uning nomi berilgan qishloq va sihatgoh mavjud.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Қўлдошев Т., Қўлдошев Ш. Поп тумани тарихи. – Тошкент, 2020.
2. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Том 9.“П” ҳарфи. – Тошкент, 2001.
3. Мирвалиев С. Ўзбек адиблари. – Т.: Фан, 1993.
4. <https://saviya.uz/hayot/tarjimai-hol/parda-tursun-1909-1957>
5. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/o-zbek-ziyolilari/parda-tursun-1909-1957>

<sup>4</sup> Мирвалиев С. Ўзбек адиблари. – Т.: Фан, 1993. – Б. 46.

<sup>5</sup> <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/o-zbek-ziyolilari/parda-tursun-1909-1957>



## МОЗАИКАЛИ ПОЛЛАРИНИНГ ТУРЛАРИ ВА ХУСУСИЯТЛАРИНИ ТАҲЛИЛ ЭТИШ

**Салимова Ирода Назарбаевна**

*Таянч докторант,*

*Тошкент архитектура-қурилиш институти,*

Оддий бетон поллар қулранг бўлиб зерикарли кўринишга эга. Бироқ уни ғайриоддий ва жуда қизиқарли бўлиши мумкинлигини ҳар ким ҳам тушунмайди. Бетон мозаикали поллар таъмирлаш соҳасида янгилик эмас, аммо ҳозирги пайтда улар асосиз равишда унутилган. Ушбу камчиликни тўғирлаш вақти келди ва бу ишлар қандай амалга оширилишини билишимиз керак.

Мозаик бетондан ишланган поллар биринчи марта бундай қопламали поллар Венецияда пайдо бўлган ва шу пайтгача бундай гўзалликни яратиш бўйича ноёб билимлар ўз ўқувчиларига венециялик қурувчилар томонидан берилиб келинмоқда. Аммо, биламизки, инсоннинг эътиборини тортадиган ва унга ёқадиган ҳамма нарса охир-оқибат бутун дунёнинг мулкига айланади ва шунинг учун мозаик полларни ўрнатишнинг венециялик технологияси ҳозирги кунда барча мамлакатларга тарқалган. Ушбу полнинг номи ҳам "Венециялик" – террасцо деб аталади (1,2-расм).



*1-расм. Террасцо полларининг айрим вариантлари*

*2-расм. Венециядаги Ка-д'Оро саройи полининг мозаикалари*

Ҳозирги кунда мозаикали полларни турли мақсадларда ишлатиладиган биноларда кўриш мумкин. Одатда, улар холларга, катта залларга, офисларга жойлаштирилган. Афсуски, анъаналар кўпинча янги тенденцияларни сиқиб чиқаради ва кўпинча биноларда биз мармар ёки мозаикаларни эмас, балки оддий ламинат ёки плиткаларни кўришимиз мумкин.

Мозаик-бетон полнинг асоси, бетоннинг ўзи, шунингдек, ушбу тошни қайта ишлашдан кейин қолган мармар увокларидир. Бундай қопламада бетон аралашма пол учун мустаҳкам асосга айланади ва мармарнинг кичик бўлакчалари тўлдирувчи

вазифасини бажаради ёки бетон юзасини қоплайди. Шунингдек, мрамар увоқлари ўрнига баъзан бошқа минераллар ёки ушбу гуруҳга умуман алоқаси бўлмаган материаллар ишлатилади (3,4-расм).



Мрамар ўзининг мустаҳкамлиги ва хос тузилиши билан машҳур бўлган й тошдир. Материал сувни шиммайди, оний таъсирларга чидамли ва юзага кимёвий моддалар тушишидан қайди. Шунинг учун мрамар кўпинча иш соҳасида қўлланилади. Ва унинг қиёфаси тошдан фойдаланиш шини кенгайтириш ва уни пардозлаш ишлатишга имкон беради.


**3-расм. Мрамар увоқларидан бетонли полларни қуриш**



**4-расм. Мрамар увози**

Одатда кум-цемент қоришмасидан ясалган бетонли асос қатламининг қалинлиги 20-35 мм, иситиладиган полларда - 40 мм ва ундан ортиқ. Бу мозаик-тош аралашмаси учун мустаҳкам асос бўлиб хизмат қилади. Иккинчисининг қалинлиги 15-25 мм ва кўпинча тўлдирувчи фракцияларининг ўлчамларига боғлиқ (5-расм).

Шуниси қизиқки, мрамар увоқларини ўз ичига олган бетон-мозаикали поллар мрамарнинг ўзига хос мустаҳкамлигидан ҳеч қандай кам эмас. Бундай қоплама ишончли, мустаҳкам ва ўнлаб йиллар давомида ишлаб фойдаланиш тавсифини йўқотмасдан ва таъмирсиз хизмат қилишга қодир. Аммо бундай полнинг нархи каттиқ мрамар плиталарга караганда арзонроқ бў'лади



**5-расм. Грунт устига жойлаштирилган цементли ва мрамар поллар**

**Мозаикали поллардан фойдаланиш кўлами ва хусусиятлари.** Бундай полни яратиш учун аралашманинг анъанавий бир қисми бўлган мармар увоқлар энди фақат тошнинг ўзидан олинadиган энг талабчан ва тежамкор материалдир. Бу, айниқса, ички пардозда тез-тез ишлатилади, чунки у ҳар қандай сиртга жуда ғайриоддий, чиройли ва кўринадиган кўриниш беришга имкон беради (6-расм).



**6-расм. Мармар увоғидан бўлган мозаик пол**


Шундай қилиб, бетон мозаикали поллар офис, уй, омбор, катта зал, кўпгина хона ва зал кабилар ҳамда ҳар қандай мақсад учун биноларни яратиш учун ажойиб имкониятдир. Бу қори мустаҳкамлиги туфайли улар спорт заллари, таълим муассасалари, кўчаларда, гаражларда, фойеларда ва хоказоларда ишлатилади. Қизиғи шундаки,

бундай пол зарба берганда учқун қолмайди, демак у ёнғин ҳафсизлиги талабларига жавоб беради, бунинг учун уни корхоналарда қадрлашади.



**7-расм. Саноат биносининг мозаик поли.**

Кўпинча бундай поллар жамоат биноларида – клиникалар, спорт муассасалари, кўчалар, савдо муассасалари ва саноат биноларида (7-расм) қурилади. Уйда ҳар доим ҳам бундай асос яратиш учун жой мавжуд бўлади.



**8-расм. Мозаик поллар**

Уй-жой шароитида ҳам баъзида мозаик полнинг чиройли кўринадиган жойини топиш мумкин. Бу бассейнга эга хона, ҳаммом ёки ҳожатхона бўлиши мумкин. Шунингдек, мозаикали пол коридор ёки залнинг ички қисмига яхши мос тушади (8-расм). Бироқ, ётоқхонада ёки болалар хонасида уни ўрнатмаслик керак, чунки пол қопламаси чиройли чиқсада - жуда совуқ бўлади.

**Бетон-мозаикали полларнинг афзалликлари:**

жуда мустаҳкам, ейилишга бардошли ва серкатнов юқори бўлган жойларда ҳам узоқ вақт давомида мукаммал хизмат қилади;

намликка чидамли - уни сингдирмайди ва унинг таъсири остида емирилмайди;

-чиройли кўриниш билан бирга жуда кўп турли хил рангларга эга;

-ўзгача кўринишдаги ва эса қоладиган пол яратиш имконини беради;

-қуёшда ранги сўнмайди;

-экологик;

-парвариш қилиш ва ювилиши осон;

-механик таъсирнинг ҳар қандай турига чидамли;

ёнгин хавфсизлигининг юқори кўрсаткичлари билан ажралиб туради.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Бозорбоев Н., Муhibова Н., Салимова И. Бино ва иншоотларни турли конструкцияли полларини барпо этиш технологияси. Монография. Тошкент 2011. "ТУРОН-ИСТИҚБОЛ" МЧЖ, 2011й.

2. Бозорбоев Н., Салимова И. Бино ва иншоотларнинг полларини барпо этиш технологиясининг баъзи муаммолари. Ж-л "Архитектура. Қурилиш. Дизайн." Илмий-амалий журнал. № 1, Тошкент, 2006.

3. Анзигитов В.А. и др. Технология и механизация шлифования мозаичных покрытий полов. М., СИ, 1975. – 48 стр.

4. Данилов Н.Н. «Технология строительного производства» М., Высшая школа, 2000.

## NEVROZ KASALLIGINING KELIB CHIQISHI VA PROPIDEVTIKASI.

**Salomov Shoxabbos Nozimjon o'g'li**

*Andijon davlat tibbiyot instituti*

*„Davolash ishi “ fakulteti 2- bosqich talabasi*

**Madumarova Maxfuza Maksimovna**

*„ Patologik fiziologiya " kafedrasi katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya :** *Ushbu maqolada hozirgi kunda ko'p uchrayotgan kasallilardan biri – nevroz haqida ma'lumotlarga ega bo'lasiz. Bu kasallikning qanday turlari bor, bu kasallikning ayanchli oqibatlari, uni o'rganilish tarixi haqida hamda nevroz kasalligiga chalinmaslik uchun qanday chora tadbirlar ko'rish haqida ma'lumotlar olishingiz mumkin.*

**Kalit so'zlar :** *Nevroz, nevrasteniya, isteriya, psixostimulyator, sedativ dorilar, isterik fuga, puerilizm, isterik astaziya – abaziya , iserik algiya, psixasteniya, fobiya, klaustrofobiya, kardiofobiya, kanserofobiya, obsessiyalar.*

Nerf sistemasi tom ma'noda insonning eng muhim organ sistemalaridan biri hisoblanadi. Ushbu sistema eng muhim bo'lishi bilan birga kasalliklari uchrash soni jihatidan ham yetakchi o'rinni egallaydi. Nerf to'qimasining o'ziga hos xususiyatlaridan biri, nerf to'qima si faqatgina embrional rivojlanish davridagina ko'payadi, ya'ni , odam organizmining post embrional davrida ko'paymaydi , faqatgina nerflar zararlanib o'lim holatiga keladi xalos. O'lgan nerflar esa qayta tiklanmaydi. Nerflar juda ko'p xolatlarda , jumladan asabiylash ganda, siqilganda uydagi ishxonadagi majorolar ta'sirida yemirilishi mumkin. Barcha asab kasalliklari organik va funksional turlarga ajratiladi. Nerf to'qimalarida morfologik o'zgarishlar bilan kechuvchi kasallilarga organik, asab sistemasini funksiyasi bilan kechuvchi kasalliklarga funksional kasalliklar deyiladi. „Nevroz“ ushbu so'z bugungi kunda ko'p tilga olinayotgan hastalik hisoblanadi. Hozirgi kunda nevrozlarga asab sistemasining funksional kasalligi sifatida qaraladi. Ba'zi olimlar bu fikrga qo'shilishmaydi va nevrozlarda aniqlangan turli metabolik va yengil organik buzilishlarni bunga misol qilib ko'rsatishadi. Ularning fikricha, yengil organik simptomlar nevrozlar uchun ham hos. Biroq bu organik va meta bolic sindromlar nevroz sababli paydo bo'lganmi yoki avval o'kazilgan kasallik yoki meta bolic sindromlar asoratimi, bunga aniq javob berish ancha mushkul. Shunday qilib , nevrozga qanday ta'rif berish mumkin? Nevroz asab sistemasining funksional kasalligi bo'lib , odamga ruhiy jarohat yetkazuvchi tashqi va ichki omillar natijasida rivojlana di. Demak, nevroz psixogen kasallik. Nevrozda aniq ifodalangan morfologik buzilishlar bo'lmasada , uning aksariyat turlarida vegetativ belgilar kuzatiladi. Nevroz belgilari uzoq yoki qisqa vaqt davom etishidan qat'i nazar, bemorlarni samarali davolash jarayoni ba'zan uzoq davom etadi.

Nevrozning 3 ta turi farqlanadi : nevrasteniya ( tom ma'noda nevroz ), isteriya , miyadan ketmaydigan fikrlar.

Nevrasteniya – asab zaifligi degan ma'noni bildiradi. Nevrasteniya asabning ortiqcha zo'riqishidan kelib chiqadi. Tez asabiylashadigan odamlar nevrasteniya tez

chalinishadi. Aqliy va jismoniy mehnatning nomutunosibligi ham nevrasteniya kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Doimiy hissiy zo'riqishlar, yaqin kishisidan judo bo'lish, oila va ishxonadagi kelish -movchiliklar, doimiy qo'rquv va xavotir nevrasteniya rivojlanishiga turtki bo'ladi. Nevrasteniyaning oila a'zolarida uchrashi uning rivojlanishida naliy omillar ning ahamiyatini ko'rsatib beradi. Yosh bolalarda nevrasteniya rivojlanishiga uni o'rab turgan muhit, ayniqsa, ota – ona orasidagi janjallar sabab bo'ladi. Bolalik davrida olingan ruhiy jarohatlar bundan mustasno emas.

Bemorning oilaviy ahvoli va ishlash sharoiti bilan tanishib, unga dam olib ishlash, ish soatlarini qisqartirish, ovqatlanish tartibiga rioya qilish, teatr va kinolarga borib turish tavsiya etiladi. Ortiqcha ta'sirlanish, har narsaga haddan tashqari e'tibor berish, mustaqil fikrlay olmaslik, ortiqcha ishonuvchanlik, rang barang his tuyg'ularga berilish isteriya uchun juda xos belgilar. Ular ruhan va jismonan zaif kishilardir. Ko'pchilik isterik bemorlar fe'l-atvori bolalar fe'l atvoriga o'xshab ketadi.

Isterik nevrozning turlari xilma-xil. Ularning barchasi, odatda, ruhiy jarohatdan so'ng paydo bo'ladi. Isteriya turlariga : es-hushining kirdi-chiqdi bo'lib qolishi, isterik fuga, puer ilizm, isterik tutqanoq xuruji, isterik astaziya-abaziya, isterik algiyalar, isterik homilador – lik kabilar kiradi.

Miyadan ketmaydigan fikrlar – nevrozning bu turi qadimdan ma'lum bo'lib, bu kasallik psixasteniya deb ham ataladi. Psixasteniya atamasini fransus olimi P'er Jane taklif qilgan va miyadan ketmaydigan fikrlar bu kasallikning asosiy belgisi ekanligini ta'kidlagan. Agar tarixga bir nazar tashlaydigan bo'lsak, nevrasteniya, isteriya va psixasteniyaning klinik belgilari to'g'risida Sharq olimlari ( ayniqsa, Ibn Sino ) risolalarida ko'p bor eslatib o'tilgan. Bir necha asrlardan so'ng deyarli barcha kasalliklar singari nevroz va psixasteniya lar ham Yevropa olimlari tomonidan sistemalashtirildi, ularga nom berildi va tasniflari yaratildi. Shuning uchun bo'lsa kerak, biz Yevropa olimlari tomonidan yaratilgan darsliklarda Sharq ( Markaziy Osiyo, Xitoy, Eron, Iroq va h.k ) olimlarining nomlarini juda kam uchramiz.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Z. Ibodullayev . Asab kasalliklari : darslik – T – 2013 – 1001 b. Lotincha  
Ibodullayev Z. Asab kasallilari
2. Majidov . N. Umumiy nevrologiya ( asab kasalliklari propidevtikasi ) Tibbiyot institutlari uchun darslik – 2 – to'ldirilgan nashri – T : Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti . 1995 – 296 b

**“ЁШЛАРНИНГ ТАҲДИДБАРДОШЛИГИ” ТУШУНЧАСИНИНГ  
ИЖТИМОЙ-ФАЛСАФИЙ МОҲИЯТИ ВА НАМОЁН БЎЛИШ  
ХУСУСИЯТЛАРИ**

**А.А.Дармонов**

*Андижон қишлоқ хўжалиги ва агротехнологиялар институти  
“Гуманитар фанлар” кафедраси ассистенти*

Ижтимоий фанларда “таҳдидбардошлик” тушунчасининг мазмуни, хусусиятлари ва кўринишларини ўрганиш файласуфлар, тарихчилар, сиёсатшунослар, психологлар, социологлар тадқиқотларида катта ўрин эгаллайди. Уларда кўпроқ бу тушунчанинг ижтимоий-сиёсий ҳамда тарихий таҳлилига, унинг маданият, маънавият ва маърифат соҳаси билан ўзаро боғлиқлигига алоҳида эътибор берилган. “Ёшларнинг таҳдидбардошлиги” тушунчасининг мазмун-моҳияти ва намоён бўлиш хусусиятларининг ижтимоий-фалсафий таҳлили ҳам ана шу йўналишдаги умумий ёндашувларга мос келади.

Бугунги кунда бундай умумийлик билан бирга, ёшларга хос таҳдидбардошлик туйғусини тадқиқ этишга нисбатан турлича ёндашувлар ҳам мавжуд. Улардан кенг тарқалгани сиёсий, тарихий, фалсафий, социологик, аксиологик, функционал, дидактик, семиотик, антропологик ва гуманистик ёндашувлардир. Мазкур ёндашувларнинг ҳар бири ўзига хос маъно-мазмунга эга бўлса-да, уларга хос умумийлик ҳар бир инсонда акс этадиган таҳдидбардошлик хусусияти доирасида ёрқин намоён бўлишини унутмаслик лозим.

Ёшларда таҳдидбардошлик туйғусини шакллантириш муаммосини ҳал этишнинг назарий асосларини ёритишда мамлакатимизда бир қатор қарашлар илгари сурилгани эътиборни тортади. Масалан, И.Эргашев, М.Жакбаров, Б.Шариповлар таҳдидбардошлик ва барқарорликни йўлга қўйишнинг асосий омили ички сиёсий, ғоявий ва маданий тараққиётни мустаҳкамлашда деган ғояни илгари сурсалар, Б.Мирбобоев, О.Ҳусанов, А.Бегматовлар эса мамлакат бошқарув тизими ва ҳуқуқий соҳаларини модернизациялаш, янги типдаги давлат хизмати тизимини шакллантиришга ёшларда таҳдидбардошлик туйғусининг кафолати сифатида ёндашадилар.

Шунингдек, С.Саидолимов ва З.Абдуғаниевалар мамлакатнинг халқаро миқёсдаги алоқаларининг хавфсизлигини таъминлашни бирламчи асос деб билсалар, М.Қирғизбоев эркин нодавлат нотижорат ташкилотлар, шунингдек партиялар ва бошқа фуқаролик институтларининг мамлакат ички ва ташқи сиёсатидаги ролини ошириш рақобат орқали ўтувчи тараққиёт йўли ғоясини илгари суради. Т.Жўраев миллий давлатчилик анъаналарини ривожлантириш уни хавфсизлик ва барқарорлигини асраш ёшларда таҳдидбардошлик туйғуси ва янги миллий тараққиётга йўл очишини таъкидласа, А.Холбеков адолат ва демократияга таҳдидбардошлик ва барқарорликнинг устивор омили сифатида ёндашади. Шунингдек, турли фан вакиллари томонидан олиб борилган тадқиқотлар, айни вақтда

хаётий тажрибалар ва амалиётни татбиқ этувчи турли соҳаларда ёшларда таҳдидбардошлик туйғусини шакллантириш, ривожлантириш ва ҳимоя қилишга турлича ёндашилади.

Бизнинг назаримизда, ушбу мавзунинг фалсафий талқинида, кўплаб йўналишлар билан бирга, ниҳоятда муҳим бир масалага алоҳида эътибор бериш унинг мазмун-моҳиятини кенгроқ очиш имконини беради. Яъни, ҳар бир киши ёки муайян жамиятга доир таҳдидбардошлик бир томондан, маънавий, руҳий феномен бўлса, иккинчи томондан жамиятдаги ижтимоий муҳит ва сиёсий, ғоявий омилларнинг тафаккурдаги акс этишидир. Шунинг учун ҳам тадқиқотимизнинг бош мавзуси ҳисобланган ёшларда таҳдидбардошлилик туйғусини шакллантиришнинг мазмун-моҳиятини ва намоён бўлиш хусусиятларини изоҳлашда нафақат даврий, балки ҳудудий ва қиёсий интерпритациялардан, ушбу ижтимоий қатламга ҳос соғлом рақобатнинг маънавий, ахлоқий ва ҳуқуқий жиҳатларидан фойдаланиш мақсадга мувофиқдир.<sup>6</sup>

Давлатимиз раҳбарининг Шанхай ҳамкорлик ташкилотига аъзо давлатлар раҳбарлари кенгашининг 2018 йил 10 июндаги мажлисида илгари сурилган “БМТнинг Ёшлар ҳуқуқлари тўғрисидаги халқаро конвенцияси” тўғрисидаги таклифи ҳам айни шунинг ечимига хизмат қилади, албатта.<sup>7</sup>

ЮНЕСКОнинг собиқ Бош котиби Фередирико Майор фикрига кўра, “Таҳдидбардошлик туйғуси” ўзига ҳос ижтимоий ҳодиса бўлиб, замонавий тараққиётнинг айрим томонларини акс эттиради. Агар таҳдидбардошлик туйғуси этнослар, миллатлар ва қитъалар ўртасида ўзаро ҳамкорликка, интеграцияга кўрилса уруш туйғуси ўзаро низоларда, халқаро нормаларга риоя этиш, тинч аҳолига низоларда иштирок этмаётган фуқароларга зарар етмасликни назарда тутлади. Инсон ҳуқуқларини камситишга, расизмга қарши бирлашиш даъвати таҳдидбардошлик туйғусининг моҳиятини ташкил қилади<sup>8</sup>.

Ёшларга ҳос таҳдидбардошлик деганда, уларнинг ҳар қандай хавф-хатар ва ҳуружларга қарши кураши, уларга бирор бир тарзда зарба беришни мақсад қилиб олиши ҳам тушунилади. Бундай инсонда бугунги техноген цивилизация шароитида миллий ва умуминсоний маданиятни уйғунлаштиришга таянган ҳолда фаол хатти-ҳаракат, уюштирувчилик, ташкилотчилик биринчи даражали мақсад ҳисобланади.<sup>9</sup>

Ёшларда таҳдидбардошлилик туйғусини қарор топтириш умумбашарий ва минтақавий жиҳатлари замонавий дунё учун ниҳоятда муҳим бўлган толерантлик тамойили билан чамбарчас боғлиқдир. Бугунги кунда турли тафаккурга эга, хилма-

<sup>6</sup>Негматова Ш. Ўзбекистонда соғлом рақобатнинг маънавий, ахлоқий ва ҳуқуқий жиҳатлари. – Тошкент, 2016.

<sup>7</sup> Халқ сўзи, 2018. – 12 июнь, № 119 (7077).

<sup>8</sup> Қаранг: Мустақил Ўзбекистон: Фалсафа фанларининг долзарб муаммолари (маърузаларнинг қисқача матнлари 2012 йил 5 июнь). Республика VIII илмий-назарий конференцияси. – Т.: И.Мўминов номидаги Фалсафа ва ҳуқуқ институти, 2012. – Б. 38.

<sup>9</sup>Абдуллаева Н.Техноген цивилизация шароитида миллий ва умуминсоний маданиятни уйғунлаштириш. – Тошкент, 2017. -246 б.



хил фикрлайдиган, кўплаб миллатлар ва диний эътиқоддаги одамлар ўртасида қандай қилиб толерант муносабатларни ривожлантириш мумкин деган масала устувор аҳамият касб этмоқда.

#### АДАБИЁТЛАР РЎЙҲАТИ:

1. Негматова Ш. Ўзбекистонда соғлом рақобатнинг маънавий, ахлоқий ва ҳуқуқий жиҳатлари. –Тошкент, 2016.

2. Халқ сўзи, 2018. – 12 июнь, № 119 (7077).

3. Мустақил Ўзбекистон: Фалсафа фанларининг долзарб муаммолари (маърузаларнинг қисқача матнлари 2012 йил 5 июнь). Республика VIII илмий-назарий конференцияси. – Т.: И.Мўминов номидаги Фалсафа ва ҳуқуқ институти, 2012. – Б. 38.

4. Абдуллаева Н.Техноген цивилизация шароитида миллий ва умуминсоний маданиятни уйғунлаштириш. – Тошкент, 2017. -246 б.

## СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРАВОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

**Чебатарева Алина Николаевна**

*Ферганский областной юридический техникум  
учащаяся 2-курса, 6-группы по направлению  
«Судебно-правовая деятельность»*

Коммуникация - это многогранный процесс развития отношений между людьми, основанный на потребностях взаимодействия, коммуникация предполагает обмен информацией между людьми, которые работают вместе. При этом учитывается коммуникативный аспект отношений. Когда люди вступают в отношения, они в первую очередь обращаются к языку. Другой аспект общения - взаимодействие собеседников - обмен не только словами, но и действиями в процессе речи. Например, когда мы вступаем в отношения, мы общаемся с помощью жестов, если это нас устраивает. Следующим аспектом взаимоотношений является то, что коммуникаторы могут понимать друг друга.

Каждому важно знать законы общения и развивать навыки и умения их устанавливать.

Сформированные качества человека играют важную роль в успешности общения. В частности, если у человека хорошо сформированы положительные качества (вежливость, смирение, человечность, честность, честность и т. Д.), Процесс общения идет хорошо. Потому что, чтобы люди правильно понимали друг друга, чтобы общение было успешным, им нужно быть искренними.

Психологические особенности получения необходимой информации от свидетелей и потерпевших, подозреваемых и подсудимых.

1. Мы можем показать вам два основных способа получить необходимую информацию. Первый - это склонность испытуемого к произвольному изложению фактов, интересующих юриста. Второй - вызвать произвольное физическое и выразительное поведение, содержащее информацию об интересующем нас человеке.

2. Первый способ условно можно назвать речево-репродуктивным. Есть несколько способов мотивировать свидетеля, потерпевшего и обвиняемого предоставить необходимую информацию адвокату.

3. Демонстрация в памяти заинтересованного субъекта определенных объектов, вызывающих определенные образы и провоцирующих произвольные комментарии. Например, фотография, фотоаппарат, фотобумага - все это может стимулировать разговор.

4. Используйте родственную тему в разговоре. Необходимо перейти к основному вопросу и получить ответ через второстепенные вопросы, не задавая вопросов, которые вдруг сбивают с толку Ю.А.

5. Задавать прямые, прямые, но достаточно мотивированные вопросы.

6. Во время разговора мы побуждаем интересующего человека к соответствующему разговору, формируя определенное настроение.

7. Демонстрация конкретных объектов, связанных с преступным поведением интересующего нас субъекта.

8. Создание мгновенных, неожиданных, психологически эффективных жизненных ситуаций.

9. Создание нормальных условий труда.

Психологические основы общения с преступниками.

Чтобы общаться с преступниками, важно сначала договориться с ними. Способность вести переговоры или дипломатия веками рассматривалась как сложный процесс умственной деятельности. Предотвращение или прекращение конфликтов, поиск компромиссов и заключение соглашений, удовлетворяющих обе стороны, требуют навыков ведения переговоров.

Переговоры начинаются, когда одна из сторон выражает желание изменить ситуацию. Переговоры - прекрасное средство человеческого взаимодействия, замечательное изобретение, которое использовалось с древних времен. Переговоры, как и любое творение, - это тяжелая умственная работа, которая напрягает нервы.

Самое главное в переговорах с преступниками - это отбор и обучение переговорщиков. В основе этого процесса - желание волонтера, индивидуальные особенности кандидатов, то есть умение обмениваться идеями в сложных ситуациях, волнение, быстрота реакции, самоконтроль, эмоциональная устойчивость, интеллект, поведение, характер. необходимый уровень соответствия требует приоритета человеческой добродетели.

Переговорщики должны обладать глубокими знаниями в области психологии и педагогики, специальной подготовкой. Получение этих знаний играет ключевую методологическую роль, создавая особую среду, как в переговорах с преступниками. В процессе обучения укрепляются навыки психологической борьбы, умение влиять на преступников, достигать удовлетворительного соглашения с целью удержания от противоправных действий.

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНИШ  
ВАЗИРЛИГИНИНГ ВАЗИФАЛАРИ**

**Мўминова Нигорахон Икромжон қизи**  
*Фаргона Давлат Университети,  
Педагогика назарияси ва тарихи йўналиши,  
1-босқич магистранти.*

**Аннотация:** *Мақолада мамлакатимизда илм-фанни ривожлантириш, ёш тадқиқотчиларни инновацион ҳаялларини молиявий қўллаб қувватлаш мақсадида ташкил этилган Инновацион ривожланиш вазирлигининг ташкил топгани ва унинг мақсад вазифалари ҳақида сўз боради.*

Ўзбекистонда илм-фан ривожига катта эътибор берилмоқда. Олимлар, илмий тадқиқот билан шуғилланувчи ёшларни янада қўллаб-қувватлаш мақсадида 2017 йил 30-ноябрда Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 29 ноябрдаги «Ўзбекистон Республикаси Инновацион ривожланиш вазирлигини ташкил этиш тўғрисида»ги № ПФ-5264 сон Фармони ҳамда 2017 йил 30 ноябрдаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикаси Инновацион ривожланиш вазирлиги фаолиятини ташкил этиш тўғрисида»ги № ПҚ-3416 сон Қарори асосида Инновацион ривожланиш вазирлиги ташкил этилди. Бу ташкил этилган вазирлик илмий тадқиқотчиларни янада илмий фаолиятга қизиқишини орттириш, имкониятларни яратиш ишлари билан шуғулланади.

Вазирлик Ўзбекистон Республикасини инновацион ва илмий-техник ривожлантириш соҳасида жамият ва давлат ҳаётини ҳар томонлама ривожлантиришга, мамлакатнинг интеллектуал ва технологик салоҳиятини оширишга қаратилган ягона давлат сиёсатини амалга оширади;

-инновацион фаолиятни унинг самарадорлиги индикаторлари асосида баҳолайди, илғор технологияларни биринчи даражада жорий этиш талаб қилинадиган тегишли тармоқ ва соҳаларни ривожлантиришнинг асосий йўналишларини белгилайди;

-инновацион ҳаяллар, ишланмалар ва технологияларни жорий этиш масалалари бўйича давлат бошқаруви органлари, илмий-тадқиқот ва ахборот-таҳлил муассасалари ҳамда бошқа ташкилотларнинг фаолиятини мувофиқлаштиради;

-илмий-тадқиқот, таълим ва бошқа муассасалар томонидан амалга ошириладиган давлат илмий-техникавий дастурлари ва лойиҳаларининг ягона буюртмачиси ҳисобланади;

Инновацион Вазирликнинг ўз вазифалари мавжуд бўлиб улар қўйидагилар ҳисобланади:

-мамлакатни ривожлантиришнинг узоқ муддатли сценарийларини ҳисобга олган ҳолда инновацияларни ишлаб чиқиш ҳамда давлат ва жамият қурилишига жорий этиш, шунингдек, жамият ва давлат тараққиётини таъминловчи илмий тадқиқотлар ва

илғор технологияларнинг устувор ва истиқболли йўналишларини ривожлантириш стратегиясини белгилаш;

-тез ўзгарувчан жаҳон конъюнктурасини ҳисобга олган ҳолда иқтисодийнинг жадал ривожланишини таъминлаш бўйича стратегик ва олдиндан режалаштириш;

-аҳоли ҳаёт даражаси ва сифатини яхшилаш, унинг фаровонлигини оширишни таъминлаш бўйича давлат органлари ва ташкилотлари фаолиятини ҳар томонлама таҳлил қилиш ва прогноз қилиш, шунингдек, мамлакат ижтимоий-иқтисодий салоҳиятининг барқарор ўсиши учун зарур шарт-шароитларни таъминлай оладиган фан ва инновацияларни ривожлантиришнинг замонавий инфратузилмасини шакллантириш;

-қишлоқ хўжалигини модернизация қилиш ва интенсив ривожлантиришга йўналтирилган инновацияларни жорий этиш;

-ижтимоий ривожланишга, шу жумладан таълим ва соғлиқни сақлаш тизимига инновацияларни жорий этиш;

-атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва табиатдан фойдаланиш тизимига инновацияларни жорий этиш;

-давлат илмий-техник ва инновацион сиёсатининг устувор йўналишларини белгилаш ҳамда грант асосида фундаментал, амалий ва инновацион тадқиқотларнинг давлат илмий-техникавий дастурларини тасдиқлаш;

-мамлакатни ривожлантиришнинг узок муддатли сценарийларини ҳисобга олган ҳолда ноу-хауларни ишлаб чиқиш, инновацион фаолият ва рақобатбардош илмий-техника маҳсулотлари бозорини кенгайтиришга йўналтирилган замонавий технологияларни жорий этиш;

-инновацион ғоялар, ишланмалар ва технологияларни жорий этиш бўйича халқаро ҳамкорликни ривожлантириш ҳамда норматив-ҳуқуқий базани такомиллаштириш.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Инновацион таълим технологиялари / Муслимов Н.А., Усмонбоева М.Х., Сайфуров Д.М., Тўраев А.Б. – Т.: “Сано стандарт” нашриёти, 2015. – 150 б.
2. Йўлдошев Ж.Ғ., Усмонов С. Илғор педагогик технологиялар. – Т.: Ўқитувчи, 2004.
3. Рўзиева Д., Усмонбоева М., Ҳолиқова З. Интерфаол методлар: моҳияти ва қўлланилиши / Мет.қўлл. – Т.: Низомий номли ДТПУ, 2013. – 115 б.
4. Толипов Ў., Усмонбоева М. Педагогик технологияларнинг тадбиқий асослари – Т.: 2006. – 260 б.

**ЁШЛАРНИ ИЛМИЙ ФАОЛИЯТИНИ ОШИРИШДА ДИДАКТИК  
ЁНДАШУВ**

**Мўминова Нигорахон Икромжон қизи**  
*Фаргона Давлат Университети,  
Педагогика назарияси ва тарихи йўналиши,  
1-босқич магистранти.*

**Аннотация:** *Мақолада Олий таълим муассасаларида таҳсил олаётган ёшларни илмий тадқиқот ишларига қизиқтириши, бунда назарий педагогиканинг асоси - дидактиканинг ўрни муҳим эканлиги, ҳар қайси соҳада ҳам педагогика, янги педагогик технологияларни чуқур ўрганиш лозимлиги ҳақида сўз боради.*

Ўзбекистонда олиб борилаётган ижтимоий-иқтисодий, сиёсий-маънавий, маданий-маърифий ислохотлар натижасида таълим-тарбия тизимида ҳам тубдан янгиланишлар кузатилмоқда. Айни дамда, замон билан ҳамнафас кадрлар тайёрлаш ҳар қачонгидан ҳам долзарб бўлиб бормоқда. “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури”нинг қабул қилиниши бу соҳадаги ишларни янада жонлантиришни тақозо этди, миллий дастурнинг «Кадрлар тайёрлаш тизимида фан» ва «Педагог ва илмий-педагог кадрлар тайёрлаш, қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш» бўлимларида узлуксиз таълим тизимида, юқори интеллектуал салоҳиятли илмий-педагог кадрларни тайёрлашга катта эътибор берилиб, миллий дастурда «Таълим муассасаларида илмий-тадқиқот ва илмий педагогик ишлар даражасини баҳолашга замонавий ёндашувни рўёбга чиқариш» деб аниқ кўрсатилган [3-4].

Бу мақсадга эришишда аввало ёшларни илмий фаолият билан шуғилланишга қизиқтириш ва жалб этиш лозимдир. Бундай вазифаларни илмий-тадқиқот ишларига инновацион ёндашув орқали ҳал этиш мумкин. Маълумки, таълимда инновацион услубларни қўллаш ижобий сифат ўзгаришлари қилиб, юқори самарадорликка эришиш демакдир. Юқори малакали илмий-педагог кадрлар тайёрлашда педагогик дидактика ва инновацияларнинг аҳамияти катта. Шу сабабли ҳам мазкур ишни бажаришнинг мақсадларидан бир ҳам педагогик тадқиқотлар олиб боришни такомиллаштиришда дидактик-инновацион услубларни қўллашнинг методологик асосларини баён қилишдан иборатдир.

Бўлажак олимларнинг илмий фаолиятга тайёрлашдаги инновацион услубларни жорий этишнинг методологик асосларини баён қилишдан олдин, дастлаб ушбу муаммога оид илмий-назарий ва дидактик имкониятлар эътиборга олинган. Бунда асосан қуйидагиларга эътибор берилган:

- илм-фан тараққиёти ва таълимни инновациялаштириш йўналишлари;
- илмий-инновацион фаолият ва унинг ташкилий-тузилмавий ҳамда ташкилий-вазифавий моделлари;
- инновацион таълим технологияларининг илмий-назарий асослари ва бўлажак мутахассисларни тайёрлашга қўйилган замонавий талаблар;

- таълимда инновацион услубларни ишлаб чиқишнинг илмий-назарий асослари;
- бўлажак ўқитувчиларни илмий-инновацион фаолиятга тайёрлашнинг ахборотли-услубий асослари ва шу кабилар.

Бу қайд этилган илмий-назарий асослар ва дидактик имкониятлар бўлажак ўқитувчиларни инновацион фаолиятга тайёрлашни оптималлаштиришга муҳим фундаментал асос бўлади ва булар мазкур муаммога тегишли илмий-амалий ишланмаларни (инновацион метод ва технологиялар, интерфаол машғулотлар, инновацион-интегртив таълим ва шу кабилар) яратишга кенг имкониятлар ва педагогик шарт-шароитларни яратади.

Бунга сабаб талабаларни илмий фаолиятга йўналтиришда уларнинг назарий билим ва кўникмаларини шакллантириш мақсадида ўқитиш жараёнида дидактикадан, инновацион метод ва технологиялардан фойдаланишни давр тақозо этмоқда ва айниқса, улар ҳозирда ижтимоий жиҳатдан ҳаётий заруратга айланмоқда. Бу бевосита бўлажак ўқитувчиларни касбий фаолиятга тайёрлашдаги таълим-тарбия жараёнига ҳам тегишли.

Ушбу соҳада олиб борилган изланишлар натижаларининг кўрсатишича, бўлажак ўқитувчиларни инновацион фаолиятга тайёрлашда инновацион таълим ва технологиялардан, бу борада айниқса ахборот технологиялари ютуқларидан, шу жумладан, инновацион-интегртив таълимдан самарали фойдаланиш бўлажак ўқитувчиларни замонавий рақобатбардош, инновацион ривожланган қилиб тайёрлашда фундаментал асосдан иборат экан.

Уларга асосланиб бўлажак олимларни, илмий фаолият билан шуғилланувчи ўқитувчиларни илмий-инновацион фаолиятга тайёрлашда инновацион-интегртив таълимдан фойдаланишда қуйидагиларни назарда тутиш лозим, деб ҳисобладик:

- бўлажак олимда, ўқитувчида ўз билимларини бойитиб боришга ва инновацион таълимга нисбатан мойилликни таркиб топтиришга ҳаракат қилиш керак;

- бўлажак олимда мустақил ва ижодий фикрлашни юксалтиришга доимо эътиборли бўлиш орқали улардаги ўқув фаолиятига жавобгарликни ошириш;

- бўлажак ўқитувчиларни илмий фаолиятга бўлган мойиллиги, қизиқиши ва қобилиятларини тўғри баҳолаб, уларга мос бўлган инновацион таълимни танлаш керак.

Хулоса қилиш мумкинки, талабаларни илмий фаолиятга жалб этишда дидактика бўлажак олимларнинг эгаллаши лозим бўлган ахборотли ва инновацион таълимга бўлган эҳтиёжларини қондиришни лойиҳалаштириш, бунга оид билим, кўникма ва малакаларни белгилаб, асослаб олиш зарурдир.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Ходжабоев А.Р. Касбий таълим педагогикасининг долзарб муаммолари // Касб-хунар таълими. ИМЖ. – Т., 2004. №. 6, 4-б.
2. Чернусова А.М. Создание и использование баз данных. – Оренбург: ГОУ ОГУ, 2009, 244 с.
3. Шарипов Ш.С. Ўқувчилар ижодкорлиги узвийлигини таъминлашнинг назарияси ва амалиёти. Пед. фан. док... дисс.. автореф. – Т., 2012, 46 б.
4. Қурбонов Ш.Э., Сейитхалилов Э. А. Таълим сифатини бошқариш. Монография. – Т.: Шарқ, 2004, 572 б.